

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



Ro‘yxatga olindi
№ BD 511200
“27” 06.2019-yil



O‘zbek tili kafedrası

(bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun)

Bilim sohasi:	100000 –	gumanitar
Ta'lim sohasi:	140000 –	pedagogika
Ta'lim yo`nalishi:	511200 –	O‘zbek tili va adabiyoti

NUKUS-2021

Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Sh.Sh.Yuldasheva – O‘zbek tili kafedrası dotsenti, p.f.n.

Taqrizchi: E. Xo‘janiyozov – O‘zbek tili kafedrası dotsenti, f.f.n.

Mundarija

1	1-Modul: Kirish. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursi haqida ma'lumot. (Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining obyekti, maqsadi va vazifalari. Matn ta'rifi, matn birliklari, Matn va uning tipologik tasnifi)	1
2	2-Modul: Badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar. (Mazmuniy yaqinlik. Mazmuniy izchillik.)	1
3	3-Modul: Badiiy matnning fono-grafik xususiyatlari. Fono-grafik vositalar. Alliteratsiya, assonans. Geminatsiya	2
4	4-Modul: Badiiy matnning leksik – semantik xususiyatlari. (Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar. Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va agnonimlar).	2
5	5-Modul: Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. (Badiiy matnda morfologik birliklarning qo'llanilishi. Morfologik parallelizm. So'z turkumlari kategoriyalari birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari)	1
6	6-Modul: Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari. (Badiiy matnda ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllari. Sintaktik parallelizm. Emotsiyonal va ritorik so'roq gaplar. Inversiya, ellipsis, sukut. Gradatsiya va antiteza. Farqlash va o'xshatish).	1
7	7-Modul: Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish.	1
8	8-Modul: Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish usullari. Lisoniy tahlil tiplari	1
Jami:		10 s.

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ularga ajratilgan soat

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzusi	Ajratilgan soat
1.	1-Modul: Matn tavsifi. Matn tiplari. Matnning hajm va ifoda maqsadiga ko'ra tiplari. Matnda tema-rema munosabatining ifodalanishi	1
2.	2-Modul: Badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar	1
3.	3-Modul: Alliteratsiya. Assonans. Geminatsiya va ularning badiiy matndagi o'rni	2
4.	4-Modul: Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar.	2
5.	5-Modul: Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va ularning badiiy matndagi o'rni	2
6.	6-Modul: Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanishi (anostomasiya).	1
7.	7-Modul: Subyektiv baho shakllarining badiiy matndagi o'rni.	1
8.	8-Modul: Sifat, son, olmosh va fe'l so'z turkumida ekspressivlikning ifodalanishi.	2

9.	9-Modul: Sintaktik parallelizm. Emotsional gaplar. Ritorik so‘roq gaplar. Inversiya.	2
10	10-Modul: Ellipsis. Gradatsiya. Antiteza. Farqlash. O‘xshatish.	2
11	11-Modul: Ko‘chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag‘a, grotesk va kichraytirish.	2
12	12-Modul: Ilmiy mushohada usuli. Lisoniy tabdil usuli. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Lug‘atlarga asoslanish usuli.	2
	JAMI:	20s.

1-MODUL: Kirish. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursi haqida ma’lumot (1 soat)

Dars o‘quv maqsadi: Davlat ta’lim standartlari asosida bo‘lajak pedagog kadrlarga fanning o‘rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Matn ta’rifi, matn birliklari, Matn va uning tipologik tasnifi)

Asosiy savollar:

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn qanday birliklardan iborat?
3. Matnning qanday tiplari mavjud?
4. Badiiy va nobadiiy matn deganda nimani tushunasiz?
5. Muallif maqsadiga ko‘ra badiiy matnning qanday tiplari mavjud?

Asosiy o‘quv materialini qisqacha bayoni:

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o‘ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o‘rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug‘ullangan V.Vinogradov o‘zining «Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari» nomli ma’ruzasida badiiy adabiyot tili to‘g‘risida gap ketganda, «til» so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llanishini ta’kidlaydi, ya’ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki »matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materialini) ma’nosida; 2) «san’at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasini ma’nosida.

Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san’ati yaralibdi-ki, bu san’atning asosiy ifoda vositasi bo‘lgan so‘z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Buyuk ma’rifatparvar adib Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari qo‘llanmasida «Go‘zal san’atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bo‘lsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqalar bo‘lsa, rasm bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’danlar esa, haykalchilik bo‘ladir; tosh yog‘och, kirpich, ganj, tuproq bo‘lsa, me’morliq bo‘ladir; tan, mug‘a (muqom, mimika) harakatlari esa, o‘yun (tans) bo‘ladir; gap, so‘z esa, adabiyot bo‘ladir» deb yozadi va adabiyotga shunday ta’rif beradi: «Adabiyot - fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir»¹.

Atoqli o‘zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o‘zining «Adabiyot tildan boshlanadi» nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz

¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. –B. 12-13.

musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyдилar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobqa chiqariladi»².

Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdar quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomiik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqdar, bo'yoqlar vositasi biian emas, so'zlar vositasi bilar yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi».

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin³.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati biian umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. 1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi. 3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi. 4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng. Albatta har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi»⁴. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash

² Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986, 5-sentabr

³ Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati.– Toshkent: O'zadabiyohs, 1962.– 173-174.

⁴ Gorelikova M. I., Magomedova D.M. Lingvisticheskii analiz xudojestvennogo teksta.– M: Russkii yazik,

lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz».

Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so'zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko'pdan-ko'p o'tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma'noli so'z o'yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o'z-o'zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi⁵.

Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

Ushbu metodik qo'llanmada yozuvchining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va shu asosda talabalarning badiiy matndagi lisoniy-poetik xususiyatlarni idrok etish malakalarini shakllantirish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilindi. Zero, badiiy matnni to'g'ri tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy balog'ati, dunyoni anglash salohiyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim ekanligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Badiiy matnning lisoniy tahlili" kursi haqida umumiy ma'lumot. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining asosiy maqsadi badiiy matndagi badiiy ma'no va badiiy mazmunni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matnni baholashdan iborat bo'lmog'i lozim. Badiiy matnning lisoniy tahlili maxsus tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Badiiy matndagi poetik aktuallashuv fonografik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning har birida o'ziga xos tarzda kechadi. Badiiy matnning lisoniy–estetik butunlik sifatidagi tabiati ham shakliy, ham semantik mohiyatga ega bo'lgan integrativ munosabatlarning mavjudligiga ko'ra yuzaga keladi.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining maqsadi va vazifalari: Talabalarni matn va uning tiplari, birliklari; badiiy matn va uning mazmuniy turlari, badiiy matnda

⁵ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

intertekstuallikning ifodalanishi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, badiiy matnning fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari hamda lingvopoetik tahlil tamoyillari bilan tanishtirish, shuningdek, mazkur kurs bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini o'zbek adabiyotidagi eng sara badiiy asarlar tili tahlilida sinab ko'rishga o'rgatish.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanini o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar: Talabalar mazkur fanni o'zlashtirganlaridan keyin matn va uning to'liq lingvistik ta'rifi, tiplari, birliklari haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishlari; badiiy matn va uning mazmuniy turlari, badiiy matnda intertekstuallikning ifodalanishi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, til birliklari orqali namoyon bo'ladigan estetik maqsadning yuzaga chiqish mexanizmlari haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishlari; badiiy matnning fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashlari; lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida muayyan bir badiiy asarni mustaqil holda tahlil qilish malakasini egallashlari lozim.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Mazkur kursning mazmuni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, nutq madaniyati, uslubshunoslik, falsafa, etika, estetika, mantiq va psixologiya kabi fanlar bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish talabdan jiddiy filologik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki badiiy matn ijodiy tafakkur mahsuli sifatida shakl va mazmun jihatidan o'ta murakkab badiiy estetik butunlik hisoblanadi.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanini o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar: Aqliy hujum, qarorlar shajarasi, bumerang, «3in1» (uchtasi birda), forum. inferens, ilmiy munozara, «workshop», «lingvopoetist», «epistol» kabi badiiy matnning lingvistik tahlili jarayonida bevosita qo'llash mumkin bo'lgan interfaol texnologiyalardan foydalaniladi. Har bir mavzuni o'rganishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion metodlar joriy qilinadi.

Uslubiy ko'rsatmalar: Har bir mavzu puxta o'rganilishi lozim. Mavzuga tegishli nazariy savol va topshiriqlar o'qituvchi nazoratida bajarilishi kerak. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar havola qilinishi, ularning talabalar tomonidan mustaqil o'qib o'zlashtirilishi jiddiy nazoratga olinishi zarur. Kurs avvalida har bir talabaga ma'lum bir badiiy asarni o'qish va lingvistik tahlilga tayyorgarlik ko'rish topshiriq sifatida berilishi lozim. Ma'ruzada o'tilgan har bir mavzu bo'yicha misollarni talaba o'zi tanlagan badiiy asardan izlab, to'plab boradi va yozma nazorat ishi holatiga keltiradi. Talabaga ilmiy-nazariy adabiyotlardan, maqola va lug'atlardan qanday foydalanish mumkinligi, ulardan iqtibos olish tartibi va qoidalari haqida batafsil ma'lumot berish zarur.

Matn ta'rifi

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug'atda *tekst* so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: [r<lat] 1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham ayni ta'kid saqlangan: matn [arabcha - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik

asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Avvalo, aytish lozimki, kishilar o'rtasidagi aloqa-kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqningina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdaginginagina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy. To'g'ri, og'zaki nutqning so'zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas. Yaxlit og'zaki nutq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi tarzidagi hukm daryoda oqib turgan suv suv emas, balki bu "modda" faqat shishaga solingandagina suv paydo bo'ladi degandek bir gapdir. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butuniik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov bu haqda shunday yozadi: "Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi». Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqiash lozimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida "diskurs" termini ham bot-bot qo'llanadi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo'q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab "diskurs" va "matn" terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha *discours* - "nutq", "so'zlash" demakdir.

Xulosa qilib aytganda, matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir.

Matn birliklari

Har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bir qarashda, matn birliklarini belgilash u qadar ham qiyin ish emasdek tuyuladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko'p va farqli qarashlar mavjud. Masalan, I.R.Galperin gapni matn birligi bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Uningcha, bir

necha gapni o'zida birlashtiradigan yirik butunlik – frazadan katta butunlik matnning birligi bo'la oladi. Frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan gap bir paytning o'zida matnning ham birligi bo'la olmasligini aytadi.

Ko'pchilik tilshunolar esa gapni matnning asosiy shakllantiruvchi unsuri ekanligini ta'kidlashadi. Aslida ham matnning mazmuniy tarkibini, bu mazmunning ob'yektiv olam bilan nisbatlanishini, demakki, to'g'ri anglanishini gapsiz tasavvur etish mushkul. Shunga ko'ra gapning matn sistemasidagi o'rnini, ayniqsa, uning matn hosil qilish imkoniyatini aslo inkor etib bo'lmaydi.

Linqvistik adabiyotlarda gap, murakkab sintaktik butunlik va abzas matn birligi sifatida talqin qilinadi. Gap va murakkab sintaktik butunlikni matnning asosiy birliklari deyish mumkin, lekin abzasni mazkur birliklar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Chunki, abzas, avvalo, yozma matngagina xos bo'lgan hodisa. Tilshunos A.N.Gvozdev abzasni tinish belgilari qatoriga kiritadi. "Abzas yangi fikrlar qatorining ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Bir necha gap yoki hatto bir gapni alohida abzas sifatida ajratish bu gaplarga muayyan salmoq baxsh etadi, bunday ajratish muallif tomonidan o'z maqsadiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Matn lingvistikasining yirik tadqiqotchilaridan biri I.R.Galperin ham abzas xuddi tinish belgilari kabi matndagi mantiqiy va emotsional jihatlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladigan vosita, kompozitsion–grafik usul ekanligini asoslagan. Lekin abzaslar yozma nutq uchun, ayniqsa, badiiy matn uchun nihoyatda zarur vosita hisoblanadi. Abzaslar bir so'zdan, bir gapdan yoki bir necha gapdan tuzilishi mumkin. Abzasning tashkillanishini yozuvchilar o'zlarining badiiy niyatiga ko'ra mutlaqo ixtiyoriy tarzda belgilashadi. Bir necha gapdan iborat abzaslar, odatda, 3 bosqichdan iborat bo'ladi: 1-bosqich xabarning boshlanishi (abzasda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), 2-bosqich xabarning to'ldirilishi (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) 3-bosqich esa xabarning xulosalanishi (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) hisoblanadi. Shuningdek, abzasdagi oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog'lovchi vositalar (bog'lovchi vositalar abzasni o'zidan oldingi yoki keyingi abzasga bog'laydi) ham o'sha butunlikning ajralmas qismlaridan hisoblanadi. «Matn lingvistikasi» qo'llanmasida abzasni tashkil etgan gaplar o'zaro sinsemantik (sintaktik va leksik-semantik) hamda, avtosemantik (grammatik aloqalarsiz, faqat semantik) aloqa usulida birikishi aytildi. Shuningdek, abzaslarning strukturasi ko'ra quyidagi korinishlari mavjudligi sanab o'tiladi: 1) Sodda gapdan iborai bo'lgan abzaslar; 2) qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzaslar; 3) Periodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzaslar; 4) Superfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzaslar; 5) Ko'chirma-o'zga gapli abzaslar. Bunga aralash tipdagi nutq formalaridan tashkil topgan abzaslarni ham kiritish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, gap va murakkab sintaktik butunlikni matn birliklari hisoblash mumkin, Abzas esa subyektiv hodisa, yozuvchilar mutlaqo erkin holda qo'llashi mumkin bo'lgan kompozitsion-grafik usuldir.

Matn va uning tipologik tasnifi

Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning **og'zaki matn** va **yozma matn** tiplarini farqlash lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'ladi⁶.

⁶ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra **minimal matn** va **maksimal matn** tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda minimal matn deb biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan: *Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadil* (O'. Hoshimov). Yoki: *Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi, Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir* (O'.Hoshimov).

Minimal matn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (**tovuq-tuxum-qaqog'lamoq**). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni to'laroq izohlash yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda *tovuq-tuxum-qaqog'lamoq* so'zlari mazmuniy o'q vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar boglovchisi va matnning mazmuniy o'qini tashkil qiluvchi *sevgi* so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob berilyapti. Ya'ni, *Sevgi nima? Sevgi - sirli va abadiy tushuncha*.

Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Tilshunos N.Turniyozov «matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin» ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta'kidlaydiki, «matn lingvistikasi muammolarini bir so'zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasi unsurlarining nutqqa ko'chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo'lmaydi. Tilshunos M.Hakimov ham bitta gap matn tushunchasiga teng kelishi mumkinligini ta'kidlaydi: «Masalan: *Bahor...* Bu jumlaning kichik matn hisoblash mumkinmi? Bizningcha, to'la ma'noda kichik matn deb hisoblash mumkin. Chunki tugal bir ohang bilan aytilgan Bahor jumlasida *"tabiatning jonlanishi"*, *"hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi"*, *"atrof-muhitning go'zal tusga burkanishh* kabi yashirin mazmun mavjuddir. Shuning uchun kichik matnda bir tugal mazmuniy fikr o'z ifodasini topadi. Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butuniik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, *ona* degan so'zni oladigan

bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Pirmiqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan; 1. Agra. Hamida bonu arosatda.,. 2. Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Shuningdek, matn lingvistikasiga oid ishlarda ma'lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan **mikromatn**, yaxlit matnga nisbatan esa **makromatn** atamasi qo'llanadi. Lekin mikromatn va makromatn tushunchalari matn tiplari bo'la olmaydi. Chunki ular butun-bo'lak munosabatini tashkil etadi. Masalan, A.Qahhorning "Bemor" hikoyasi butun holicha makromatn (garchi hajman kichik - minimal matn bo'lsa ham), undagi murakkab sintaktik butunliklar mikromatndir.

Matnlarni tiplashtirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko'ra, tipologik jihatdan **turg'un strukturali matnlar** (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent kabilar) va **erkin strukturali matnlar** (maqola, hikoya, she'r, roman kabilar)ni farqlash mumkin.

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko'ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmoqchi bo'lgan axborotning xarakteri va uni ifodalashdan ko'zlangan maqsad asosiy o'lchov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg'un ravishda **hikoya, tasviriy, muhokama** matnlariga ajratish tilshunoslikda an'anaga kirgan.

Matn tiplarini belgilashda yana bir omil - asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy, nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining - kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi-yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, ya'ni **badiiy matn** va **nobadiiy matn**. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihatchilik qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot

maqsadimiz ba'zan qandaydir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan nimanidir so'rashga ehtiyoj sezamiz. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish-qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz. Shu asosda badiiy matn ifoda mazmuniga ko'ra ham tiplarga ajratiladi: **hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.**

Unutmaslik kerakki? Biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yohud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

[http://WWW.ziyonet.uz.](http://WWW.ziyonet.uz)
<http://WWW.bimm.uz>
<http://WWW.yazikoznanie.ru>
<http://WWW.lingust.ru>

2-MODUL. BADIY MATN VA UNING QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR (1 soat)

Dars o'quv maqsadi: talabalarga badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar haqida ma'lumot berish, ularda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Mazmuniy yaqinlik, mazmuniy izchillik, takror, parsellyatli tuzilmalar, atov gaplar, infinitiv gaplar, murojaat birliklari, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar, xiazmatik konstruksiyalar.

Asosiy savollar:

1. Mazmuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik deganda nimani tushunasiz?
2. Til birliklarining takroriy qo'llanishi va xiazmatik konstruksiyalar haqida ma'lumot bering.
3. Parsellyatli tuzilmalar deb nimaga aytiladi?
4. Atov va infinitiv gaplarning lingvopoetik imkoniyatlari haqida nimalarni o'rgandingiz?
5. Murojaat birliklari va ularning lingvopoetik imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Zamon va makon ifodalovchi birliklar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

O'quv materiali qisqacha bayoni:

Matnda gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi. «Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo'shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o'xshab ketadi, faqat murakkabroq ko'rinishda yuzaga chiqadi. Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalar-intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazali sintaktik butunliklar, abzaslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi»²². Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqozo qilishi kerak ekan. Matn butunligida mazmuniy yaqinlik qanchalik ahamiyatli bo'lsa, mazmun izchilligi ham shunchalik muhim Masalan: 1. *Hovli yog' tushsa yalagudek top-toza bo'ldi.*

2. *Ahmad bugun ham darsga kelmadimi?* 3. *Har qanday chuqurlikdan ham yuksaklikka ko'tarilish mumkin.* 4. *O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga orzu ulashishdan, orzu qilishni o'rgatishdan iborat bo'lmog'i lozim.*

Yuqorida to'rtta gap ketma-ket keltirildi. Lekin ularda mazmuniy yaqinlik yo'q. Shu sababli uni yaxlit bir matn deb bo'lmaydi. Quyidagi gaplar yig'inida esa mazmuniy yaqinlik ko'zga tashlanadi, lekin mazmun izchilligi yo'q:

1. *Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi.*
2. *Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortig'roqdir.*
3. *Maktab o'qituvchisining So'zi o'z o'ttiz bo'laga yetib boradi.* 4. *Notiqning so'zi ming tingiovchiga yetib boradi.* 5. *Dorilfunun domlasining so'zi yuz talabaga yetib boradi.*

Mazkur gaplardan matnning so'z va uning mas'uliyati haqida ekanligini payqash qiyin emas. Lekin fikrning to'g'ri, tugal va oson anglanishi uchun mazmun yaqinligining o'zi yetarsiz. Bu gaplar yig'inidagi mazmun izchilligining buzilganligi tufayli matn butunligiga putur yetgan. Endi mazkur gaplarni qayta terib chiqamiz:

Maktab o'qituvchisining so'zi o'ttiz bo'laga yetib boradi.

Doriifunun domlasining so'zi yuz talabaga yetib boradi.

Notiqning so'zi ming tinglovchiga yetib boradi.

Qalamkashning so'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir. {O¹. Hoshimov)

Muallif aytmoqchi bo'lgan fikr, aslida, oxirgi gapda keltirilgan. Agar yozuvchi faqatgina oxirgi gapni keltirib qo'ya qolganida o'sha fikrning ta'sirchanligi bu darajada bo'lmasligi mumkin edi. Adib maqsadini qiyoslash hamda miqdoriy gradatsiya usulidan foydalanib to'la va aniq yetkazishga erishgan: *o'qituvchi va bunga parallel ravishda o'ttiz bola, domla – yuz talaba, notiq – ming tinglovchi, qalamkash- o'n ming, yuz ming kitobxon.* Bu matndagi pog'onama-pog'ona «kengayib boruvchi" leksik-semantik birliklar fonida yana-da aniq ifodasini topgan: 1. Muassasalar: *maktab > dorilfunun > ijtimoiy - ijodiy maktab, ya'ni hayot*; 2. Kasb egalari: *o'qituvchi > domla > notiq > qalamkash*; 3. Miqdor *o'ttiz > yuz > ming > o'n ming, yuz ming.* Ohang ham shunga muvofiq ko'tarilib boradi.

Matn komponentlari o'zaro kontakt va distant aloqaga kinshadi. *Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi. Bolaga telefonimni bergan edim. Qo'ng'iroq qilmadi. Bir kuni yana uyushmaga kelsam, xuddi o'sha kitob do'koni oldida turibdi* (Sh.Xolmirzayev). Bu matnda birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to'rtinchi gaplar orasidagi aloqani kontakt (masofasiz) aloqa, birinchi va ushinchi, birinchi va to'rtinchi gaplar orasidagi aloqani distant (masofali) aloqa deymiz.

Badiiy matn qismlarini bog'lashda quyidagi leksik-grammatik vositalarning alohida ahamiyati bor:

1. Takrorlar yordamida birikish. Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'sirchanligi ortadi. «Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi». Quyidagi matnda grammatik jihatdan bir xil shakllangan so'z, so'z birikmasi va gaplar takrorlanib, parallel aloqani yuzaga keltirgan:

- *Iste'dodsiz iste'dodsizni yomon ko'rsa, nima bo'ladi?*
 - *Hech nima bo'lmaydi!*
 - *Iste'dodsiz iste'dodlini yomon ko'rsa, nima bo'iadi?*
 - *Hech nima bo'lmaydi!*
 - *Iste'dodli iste'dodsizni yomon ko'rsa, nima bo'ladi?*
 - *Hech nima bo'lmaydi!*
 - *Iste'dodli iste'dodlini yomon ko'rsa, nima bo'ladi? -Fojia bo'ladi!*
- (O'.Hoshimov)

Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: Alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar. Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi. Assonans esa unli tovushlarning takrorlanishidir. Anafora deganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Epiforada esa misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matnning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi.

Dastlab takrorlanuvchi birlikning tarkibiga ko'ra o'zgarishli va o'zgarishsiz

takrorlarni farqlab olishimiz kerak. Bu takrorning barcha ko'rinishlari uchun taalluqli xususiyat hisoblanadi. Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontaal va vertikal takrorlarga bo'linadi. Bunday takrorlar ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdoriikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilarga bo'linadi. Sintaktik tabiatiga ko'ra so'z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish o'rnini va o'rtadagi masofaga ko'ra kontakt (masofasiz, yaqin o'rinli), distant (masofali, uzoq o'rinli) takrorlarga ajratiladi. Takrorning yana bir ko'rinishi **xiazm** deb ataladi. Xiazm ikki qismdan iborat bo'lib, ikkinchi qism birinchi qismning teskarisi hisoblanadi:

Uzun tunlar bunchalar mahzun, Mahzun tunlar bunchalar uzun... (I.Mirzo)
Mumtoz adabiyotimizda takrorning bu turiga alohida san'at sifatida e'tibor beriladi. Quyidagi misolda birinchi baytning har bir so'zi ikkinchi baytda o'zgarishsiz holda teskari takrorlangan. Ham ohangdorlik, ham poetik jihatdan mukammal kompozitsiya yuzaga kelgan:

*Balodur manga hajring, davodur manga vasling,
Itobing manga ofat, hadising manga darmon.
Darmon manga hadising, ofat manga itobing,
Vasling manga davodur, hajring manga balodur.*

(Bobur)

2. Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. "Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarining distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bilvosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so'zlar leksik-grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi"⁷

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang oftob charaqlab yotibdi...(O'.Hoshimov). Ushbu matnning shakllanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda *ertalab* leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi xabar ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni: *ertalab > yomg'ir yog'di > qattiq yog'di > oftob chiqdi > charaqlab ketdi*.

Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo'la oladi. Odatda yozuvchilar voqea sodir bo'layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma'noli leksema keltirildimi, albatta uning tavsifi ham beriladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o'zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi.

Bog' juda orasta, yo'laklarga oltinrang qumlar solingan, marmar ariqlardan tiniq suvlar jildirab oqadi. Chorchamanlarda mamlakatning eng noyob gullari muattar hid taratib ochilib turibdi (P.Qodirov).

3. Parsellyatli tuzilmalar yordamida birikish. Og'zaki nutqda, matnda ba'zan muloqot talabiga ko'ra yaxlit bir jumlada uzilish sodir bo'ladi. So'zlovchi tinglovchiga biror voqea-hodisa haqida xabar berayotganda mana shu xabar ichidagi eng muhim

⁷ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

fikrni boshqalaridan ajratib, alohida ta'kidlab aytishga harakat qiladi. Ma'lumki, ta'kid og'zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg'u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda parsellyatli tuzilmalar - matn komponentlarini ekspressiv-stilistika maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: 1. *Hurriyat va adolat uchun kurashish kerak.* Yoki: 2. *Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun.* Birinchi gap odatdagi tartibda tuzilgan sodda gap hisoblanadi. Ikkinchi gap esa parsellyatli tuzilma hisoblanadi. Uch komponentli bu qurilmada birinchi qism - asos, qolganlari esa parsellyat bo'lak hisoblanadi. "Parsellyatli tuzilmalardagi tartib mohiyat e'tibori bilan ta'sirchan so'z tartibi bo'lib, uslubiy jihatdan betaraf tuzilmali gap qismlarini kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda guruhlash, sintaktik jihatdan qayta o'rinlashtirish sifatida ro'yobga chiqadi. Gap tuzilmasini bu xilda qayta qurish (uning qismlarini sintaktik jihatdan ajratishga asoslanadi va o'ziga xos ekspressiv ifoda shakli hamda funksional-semantik munosabatlar tarkib topadi".

Jalil aka deraza tagida yotardi(1). To'shakda(2). Bolishi baland(3) Unga suyanib, boshini ko'tarsa, bog'ni ko'radi(4). O'zi obod qilgan bog'u(5). (Sh.Xolmirzayev).

Bu matn parchasi beshta gapdan tashkil topgan. 1-gap asos, 2-gap parsellyat. Asosdagi o'rin hoi konkretlashtirilmaganligi uchun parsellyat bo'lak sifatida ajratilgan. 3-parsellyat gap ham asosdagi o'rin holini ta'kidlashga xizmat qiigan. Shuningdek, 4-gap bifan 1-gap o'rtasidagi aloqani zichlashtirgan. Ya'ni, qahramon deraza tagida yotibdi. To'shakda yotibdi. Baland bolishli to'shakda yotibdi. Unga suyansa o'zi obod qilgan bog'ni ko'radi. 5-gap 4-gapning parsellyati hisoblanadi. Ya'ni asos(4)dagi to'ldiruvchi(bog')ni aniqlashga xizmat qilgan.

4. **Nominativ (atov) va infinitiv gaplar** ham matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Atov gaplar biror narsa-buyumning mavjudligini tasdiqlaydi yoki ko'rsatadi. Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin atov gap mazmunini ochuvchi, tavsiflovchi boshqa gap yoki gaplar keltiriladi. Natijada matn hosil bo'ladi. Masalan: *Bugun bayram. Ko'chalar gavjum. Sho'x-sho'x kuylar yangraydi. Guras-guras odamlar o'tadi. o'yin-kuigi, shodon shovqin bahor osmonini titratadi* (O'. Hoshimov).

Infinitiv gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so'z yoki bir necha so'zdan iborat bo'lgan gaplardir: *Kutish! Soniyalar daqiqalarga, daqiqalar soatlarga aylanadigan bekat* «Bunday gaplar mazmunan ish-harakatni atab, shu ish munosabati bilan ajablanishni, shodlanishni va shunga o'xshash holatlarni, shunga bog'langan hayajonlarni bildiradi ».

5. **Murojaat birliklari** va ularning matnni shakllantirish imkoniyatlari. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'ziga turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Mumtoz badiiyat ilmida murojbat birliklari *nido* va *iltifot* san'ati doirasida o'rganilgan. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi turli kommunikativ munosabatlar ifodalangan bo'ladi. Misollar; - *Malikam,- debdi jahl otiga minib. - Sizga ruxsat! Saltanat xazinasidan o'zingiz uchun eng qimmatli narsani oling-da yurtigingizga jo'nang!* (O'. Hoshimov) *Hoy, ovsar! Bosar-tusaringni bilmay golding-ku!* (S.Ahmad). *Oyisha, Oyisha, Oyisha ona, Nechun ko'zlarindingan oqar marjon yosh.* (A.Oripov) Keltirilgan birinchi misoldagi "malikam" murojaat birligi muloqot maqsadi uchun "trampin» vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gap tarkibidagi

“ovsar” murojaat birligi kommunikantlar o’rtasidagi shaxsiy munosabatni (kamsitish haqorat) oshkora ifodalash orqali konnotativ vazifani bajargan. Uchinchi gapda so’zlovchining emotsional munosabati takror qo’llanuvchi “Oyisha ona” murojaat birligi orqali yana-da aniq ifodalangan. «Undalmaning bir murojaatning o’zida takror qo’llanishi ma’no kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi». Murojaat birliklarining badiiy matndagi qo’llanilishini o’rganishda kim, kimga, nimaga, qanday holatda, qanday nutqiy vaziyatda murojaat qilinayotganligiga e’tiborni qaratish kerak bo’ladi. Nutq qaratilgan shaxs yoki obyekt (muxotab)ning nutq jarayonida mavjud-mavjud emasligi, murojaatning ifoda tarsi, murojaat qiluvchining muxotabga subyektiv munosabati kabi omillar tahlilga tortilishi lozim. Muxotab ba’zan o’t-o’lan, hayvon yoki narsa-buyum bo’lishi ham mumkin. Masalan:

Qizg’aldog’im, qirdan bo’lak koshonang yo’q,

Kokii yoysang, yerdan bo’lak toshoyrang yo’q. (M.Yusuf)

Yoki:

Erka kiyik, maylimi bir erkalasam,

Majnun bo’lib, sahrolarga yetalasam,

Bu dunyoda birday g’arib men ham, sen ham,

Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?.. (M.Yusuf)

Tahlilda bu kabi holatlarning sababi aniqlanishi talab qilinadi. Yozuvchi yoki shoirning murojaat qilishdan maqsadi va badiiy niyati nimadan iborat ekanligi, murojaat birliklaridagi denotativ konnotativ ma’nolar haqida mulohaza yuritiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda mazkur usul ritorik murojaat atamasi ostida o’rganiladi. Ritorik murojaatlarda ritorik so’roqlarda bo’lgani kabi javob talab qilinmaydi, balki, “obyektga e’tiborni kuchaytiradi va kitobxonda biror munosabatni uyg’otadi”. Asosan, «shoirning poetic nutqda o’zi xohlagan intonatsiyasini – tantanavoriik, ko’tarinkilik, g’azab, kesatish kabilarni ifodalashda» keng foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san’atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O’qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo’ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma’ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo’ldoshev M. Cho’lpon so’zining sirlari. –T: «Ma’naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. –T: «O’ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She’r san’atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo’ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O’qituvchi», 1995.
2. O’rinboev B., Qo’ng’urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O’qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O’zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O’qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O’zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O’zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

<http://WWW.ziyonet.uz>.

<http://WWW.bimm.uz>

<http://WWW.yazikoznanie.ru>

<http://WWW.lingust.ru>

3-MODUL. BADIY MATNNING FONOGRAFIK XUSUSIYATLARI (2 soat)

Dars o'quv maqsadi: talabalarda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Fono-grafik vositalar, unilarni birdan ortiq yozish, undoshlarni birdan ortiq yozish, grafon, alliteratsiya, assonans, geminatsiya.

Asosiy savollar:

1. Fono-grafik vositalar va ularning badiiy matnda qo'llanilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish orqali qanday maqsadlar nazarda tutiladi?
3. Grafon deb nimaga aytiladi va ular badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
4. Alliteratsiya va assonans deb nimaga aytiladi?
5. Geminatsiya va uning lingvopoetik imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni:

Badiiy matni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi.

She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unililar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarning fonetik qobig'ini o'zgartirib yozish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi "fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fono-grafik vositalar yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. Masalan:

1. Unilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalamliligi ta'kidlanadi³⁰. Masalan, belgining kuchsizligi: *Ortiq jizzaki ko'rinmaslik uchun bos-i-iq tovush bilan dedi...* (P.Qodirov). Belgining ortiqchiligi: *Uzo-oq yo'l, ahyo-onda bir keladi, qato-or imoratlar, o'yla-ab tursam, o'g'lim, dunyoni ishi qiziq.* (A.Muxtor) «Sharq» sahnasi bilan "Turon"ning to'rtta karnayi: *g'o-o-o-o-ot, go'-o-otu-u-u g'o-o- o-ot!G'ot-g'ot-g'ot! Ha, tovushing o'chkur, ha, egasiz qolg'ur!!* (A.Qodiriy)

Shuningdek, badiiy matnda unilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi. Masalan: - *Marhamat..-O'-o', kaklikning sayrashini dedingizmi? - Uning manglayi tirishib va g'ijinib davom etdi: - Biz ham sizga qo'shilib eshitar ekanmiz-da? — O'-o'o', okaxon, tuda-suda to'laysiz-da.* (Sh. Xolmirzayev) -*A-a-a, o'sha sizmidingiz, buni qarang-a, tanimapman. Uyimizga yana bir kelgan ekansiz. Yo'qligimni qarang-a.* (S.Ahmad) *Men o'zimning odmi plashimni ham devordan*

daromad qiiib yasalgan shifonerga ildim. - O-o! - deb yana o'zi ichkariga yo'l tortdi Tavakkal –Yaxshi-ii... A, Gulsara? Bir kishiga bo'ladi-da! (Sh. Xolmirzayev)

Mazkur fono-grafik usuldan badiiy matnda chaqirish, xitob, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham foydalanishini kuzatish mumkin. Masalan, chaqirish: - *O'zimam biliedim-ov, –dedi-da, yog'och engarakdan (qoltbola darvoza) keyin eniladigan jarlikning u betidagi xo'jalik idorasiga qarab shovqin sold:–Ho'-o', Boltabo-oy!* (Sh. Xolmirzayev). *Hasan uni tanidi. -Ho'y, Bolta! To'xta deyaqman!-deb baqirdi.–Bolta-a!–alam bilan chaqlrdi keyin.* (Sh. Xolmirzayev)

2. Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me'yori bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So'zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik, karaxtlik, ikkilanish, achchig'lanish, biror voqea-hodisadan qattiq ta'sirlanish kabilari) va maqsadini kitobxoniga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me'yordan ortiqqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda ro'y berganligi), takroriyliigi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma'nolar ifodalangan bo'ladi. Masalan, belgining ortiqqligi; *Siz aslida uchchiga chiqqan muttahaq ekansiz!* (gazetadan), Harakatning davomiyligi: - *Mening xotinim bo'lib, aroq ochishni bilmaysanmi? – dedi mingboshi, xoxolab kuldi. - o'rgan! Mana qarab tur! – Shishaning tagiga yo'g'on shapalog'i bilan ikki marta urdi, po'kak chachrab chiqib shiftga tegdi, so'ngra u yerdan sachrab tovchadagi katta jomga kelib tushdi, «jar-r-rang!»... etdi jom. -Ha-ha-ha!.. –dedi mingboshi. Jomlarini jaranglatdim. sintaloq!* (Cho'lpon). *o'h-ho',bunaqa sigir bozorda falon pul bo'lsa kerak.* (S.Ahmad). *Yarim soatlik qonli "g'ov-v-v-v, g'u-v-v-v, ov-v-v-v, ov-v-v-v»dan so'ng Mallaxonning davangisi mag'lub bo'lib, faje bir suratda yaralandi.* (A.Qodiriy). Harakatning oniyliigi: *Salimani ko'rishi bilan Ziynat xola zippilab ko'zdan g'oyib bo'ldi.* Ovoz kuchining balandligi: *“Bummm” degan tovush eshitildi-yu, ko'kni chang-to'zon qopladi.*

Qahramon ruhiyatidagi oniy, keskin o'zgarishlar ham undoshlarni birdan ortiq yozish orqali beriladi: *N-nima qilishim kerak bo'lmasa? Bo'ldi, muddaongga yetding... En-nasini... bu dunyoni!* (Sh. Xolmirzayev)

Rus va Yevropa filologik an'anasida **geminatsiya** nomi bilan yuritiladigan hodisa mavjud. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»da mazkur hodisa «qo'sh undoshlik - ikki aynan bir xil undoshii holatning yuzaga kelishi» sifatida izohlanadi. «O'zbek tili tarixiy fonetikasi» o'quv qo'llanmasida esa bu hodisa “Qo'shoqlanish” yoki «ikkilangan undosh» deb yuritiladi. «qo'shoqlanish - undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish asosan, ikki unli orasida kelgan k, q, t, l tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lgan. Sanoq sonlar nomidagi bit xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki kabi so'zlardagi ikkinchi t, l, k lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardagi qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikr mavjud». Adham Abdullayev esa «undoshlarni qavatlash» atamasini ishlatgan⁸. Undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi

⁸ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

xursandiik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan, *Ayyorlikda uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg'on emas* (Oybek). *Uni ayblashga sizning ma'naviy Haqqingiz yo'q, uka! - dedi g'azab bilan* (gazetadan). Keltirilgan misollardagi undoshlarning qavatlanishi qahramonlar tabiatidagi subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ya'ni, birinchi gapdagi qahramonning o'z «ishi-hunaridan» mamnunligi. “anoyi” emasligini ta'kidlash istagi qavatlangan «**ch**» undoshi orqali yanada aniq ifodalangan. Ikkinchi gapdagi qahramonning qahq-g'azabi esa «**q**» geminatasi bilan ko'rsatib berilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmaganidek, sozda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lavermaydi. Masalan:– Ukaginam, bu **ken**noyingizga (kelin oyingizga–ellipsis) zagsda **patta** (so'z imlosida mavjud) kesilmagan. Birinchisidan to'**qq**izta (so'z imlosida mavjud) bola bor. Bechora giroy bo'laman deb rosa tug'di. To'**qq**izinchisini tug'di-yu o'zimizning til bilan aytganda **brakka** (brak+ga) chiqib qoldi. (S.Ahmad)

3. Noto'g'ri talaffuzni ifodalash. Og'zaki nutqda turli sabablarga ko'ra ayrim so'zlar, asosan, o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato o'zlashgan so'z imlosini to'g'ri bilmaslik, boshqa millatga mansublik, paronimlarni farqlamaslik, ayrim so'zlar imlosini tasavvur qilmaslik kabilar natijasida yuzaga kelishi mumkin. **Grafon** deb ataladigan bu usuldan badiiy asarda qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og'zaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi. Ayrim o'rinlarda kulgi qo'zg'atish maqsadida ham so'zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o'sha tarzda yoziladi. Masalan: -*Kotibadan, kirsam mumkinmi, deb so'rash kerak. -Jinni bo'ldingmi, Ne'mat?*

-*Men sizga Ne'mat emasman, o'rtoq Babbayev bo'laman, o'rtoq Xajjayip.* (S.Ahmad) -*Xo'p, bo'pti. Uning oti Zulfiqor, fomilasi... -aytaveraymi, deb unga qaradi.* (S.Ahmad). *Bo'rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To'g'ri, nima deyishni bilardi. Ammo, til bilmasa nima qilsin? o'ylab-o'ylab, «Salyam!» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig'lashni ham bilmay hayron turib qolishdi.* (S.Ahmad) –*Rahmatli padaringiz podachilikdan boshqa narsani bilmas edi. Esimda «Oshalo-ol!» deb keiganiari...*

-“**Oshalol**”emas, «oshi halol!» deb tuzatdi musiqa muallimi.(Sh. Xolmirzayev) **Alliteratsiya**. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik (“ilmi bade'”)da alliteratsiya «tavzi' san'ati» deb yuritilgan. Alliteratsiya deganda zabardast shoir Erkin Vohidovning mashhur “q” alliteratsiyali she'ri ko'z oldimizga keladi:

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing qiz,

Qilur qatlimga qasd qayrab-

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

*Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qarab qo'ygil qiyo,
Qalbimni qizdiring quyoshing qiz.*

Bunday usulni shoir Elbek ijodida ham kuzatish mumkin:

*Ko'klamda ko'karsa ko'k ko'katlar,
Ko'klarga ko'milsa katta-kattalar,
Ko'm-ko'k ko'karib ko'rinsa ko'llar,
Ko'ngilni ko'tarsa ko'rkli gullar.*

Alliteratsiya nasriy asarda ham kuzatiladi. Quyidagi misollarda **b, g', q, sh, t, k** undoshlarining takrorlanishi natijasida hosil qilingan alliteratsiyani kuzatish mumkin: *Butun bet-boshim bij-bij bo'ldi. Butun bet-boshim g'uj-g'uj ajin bo'ldi. Bet-boshim bet-bosh bolimadi - darz-darz yer bo'ldi. Bet-boshim bet-bosh bo'lmadi - qaqroq-qaqroq yer bo'ldi. Bet-boshim bet-bosh bo'lmadi - sho'r-sho'r yer bo'ldi!* (T. Murod) Bolalar folkloridatn tez aytishlar ham alliteratsiyaga asoslangan: *Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp. Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi? Oq choynakka oq qopqoq, Ko'k choynakka ko'k qopqoq.*

Alliteratsiyadan xalq maqollarida intonatsion butunlikni ta'minlash maqsadida ham keng foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin:

Suymaganga suykanma, suyganingdan ayrilma.

Tulkining tushiga tovuq kirar,

Tovuqning tushiga tariq kirar.

Tek turganga shayton tayoq tutqazar.

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan. Unilarning takrorlanishi maqollarda ko'p kuzatiladi;

Ovni otsang, bilib ot,

Dol nishonga qo'yib ot

Non qon bo'lsa, qon - jon.

O'zing o'yda bo'lsang ham, o'ying uyingda bo'lsin.

Assonans qofiyadosh so'zlar tarkibida kelib, she'riy nutqqa ko'tarinki ruh va o'ziga xos musiqiylik baxsh etadi:

Ruhimda yo'qoldi qarorim,

Tanimda qolmadi madorim.

Bizlarni bir yo'qlab kelibsan,

Vafo qilarmisan, bahorim?! (A.Oripov)

Alliteratsiya va assonans saj'li nasrda alohida ahamiyat kasb etadi. *Saj'* istilohi ilmiy adabiyotlarda nasrda ikki yoki undan ortiq so'zning qofiyada yoxud vaznda (ba'zan har ikkisida ham) kelishiga nisbatan ishlatilishi ta'kidlanadi. Misol: *Alqissa, Qoraxon podsho o'g'lining dardini ishqdan bilib, ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, o'g'liga qarab, bir so'z aytib turibdi.*

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboiev T., Boboieva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboiev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

- <http://WWW.ziyonet.uz>.
<http://WWW.bimm.uz>
<http://WWW.yazikoznanie.ru>
<http://WWW.lingust.ru>

4-MODUL. BADIY MATNNING LEKSIK – SEMANTIK XUSUSIYATLARI (2soat)

Dars o'quv maqsadi: talabalarga ma'nodosh va shakldosh so'zlar, paronim va zid ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, eskirgan va yangi so'zlar, sheva so'zlari, chet va haqorat so'zlari, barqaror birikmalar va agnonimlar haqida ma'lumot berish

Tushunchalar va tayanch iboralar: Ma'nodoshlik, shakldoshlik, ko'p ma'nolilik, zid ma'nolilik, antiteza, paronim, paronomaziya, neologizm, istorizm, arxaizm, dialektizm, vulgarizm, varvarizm, paremlar, agnonimlar, agnomaziya.

Asosiy savollar:

1. Ma'nodosh, shakldosh hamda zid manoli so'zlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida *mutobaqa* atamasi qanday izohlanadi?
3. Neologizm, istorizm va arxaizmlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
4. Dialektizm, vulgarizm va varvarizmlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
5. Paremlar deb nimaga aytiladi?
6. Agnonim va agnomaziya deb nimaga aytiladi?

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni:

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

Ma'nodosh so'zlar

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yana-da to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan hodisadir. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun: *Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi.* (Cho'lpon) Tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun: *Xolbuki, musulmonlik kiyimda emas, qallda, dilda.* (Cho'lpon) Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham bir-biridan yaxshi, bir-biridan soz, bir-biridan ochiq, bir-biridan quvnoq...* (Cho'lpon) Salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun: *Xo'sh, mingboshining o'zi odamlar aytganiday juda xunuk va badbashara odammi?* (Cho'lpon)

Kontekstual ma'nodoshlik. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilar, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan: *Kechagina qarg'ab, so'kib, "o'ldirsam!" deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi "qalin do'st" bo'lgan emishlar.* (Cho'lpon)

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. *Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq* kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, iker-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan: *U yenggan, yutgan, oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldirgan kundosh emasmi?*

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. "Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi".³⁶ Masalan: *Xursand - og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi: *Qurvon bibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar*

kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.

Shakldosh so'zlar

Tilimizda tovush (yozuvda grafik) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: Omoleksema, omograf va omofonlar. «Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi»³⁷. Masalan, *qovoq-I* (inson a'zosi) –*qovoq-II* (o'simlik nomi). Omograflar esa, harfiy jihatdan bir xil bo'lib talaffuzi har xil bo'ladi: *tom-I* (uyning tomi) – *tom-II* (jild), *atlas-I* (ipakdan tayyorlangan mato turi) - *atlas-II* (xarita).

Omofonlar deb talaffuz jihatidan teng kelish hodisasiga aytiladi: *yot*(<*yod*) - *yot*, *sutxo'r*(<*sudxo'r*) - *sutxo'r* kabi. Shakldoshlik iboralarda ham kuzatiladi: *boshiga ko'tarmoq-I* (*e'zozlamoq*) –*boshiga ko'tarmoq-II* (*to'polon qilmoq*), *qo'l ko'tarmoq-I* (*ovoz bermoq*, *ma'qullamoq*) - *qo'l ko'tarmoq-II* (*urmoq*). Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Xalq og'zaki ijodida askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida she'riyatda esa tuyuq yoki so'z o'yini hosil qilishda ishlatiladi.

Masalan:

Qo'qonda Urfiy degan, Xo'jandda Kamol Xo'jandiy degan shoirlar bir-birlari bilan do'st ekan. Kamol Xo'jandiy Urfiyni mehmonga chaqiribdi. Supada suhbat qilib o'tirganlarida Kamol Xo'jandiyning kichkina kuchugi dasturxon yoniga kelib, hatto dasturxoniga tegib ketsa ham, u indamas ekan. Urfiyning juda g'ashi kelib, achchig'i chiqipti va so'rapti:– Bu maxsumchaga nima nom qo'yganlar?

Kamol Xo'jandiy: Urfiy nomlardan birini qo'yganmiz-da.

Urfiy: Kamoliga yetsin!

Paronim so'zlar

Paronimlar deb fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qoigan so'zlarga aytiladi. *Abzal* (asli afzor-asbob egar-jabduq) - *afzal* (fazl so'zining orttirma darajasi), *xalos* (ozod bo'lish) -*xolos* (faqat), *xush* (yaxshi, yoqimli) - *hush* (insonning sezish, idrok etish qobiliyati). «Paronimlarga asoslangan uslubiy figura paronomaziya deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziya ifodalilik, ohangdorilikka erishish, komik effekt yaratish, so'z o'yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi». Badiiy adabiyotda o'xshash so'z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma'naviy hamda lisoniy saviyasini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Quyidagi parchada paronimlardan komik effekt yaratish maqsadida foydalanilgan. Qahrmon kompot (mevalardan tayyorlanadigan sharbat) va kompost (chiqindilardan achitib tayyorlanadigan organik o'g'it) paronim so'zlarining ma'nosini bilmaganligi uchun kulgili vaziyatga tushadi: *Aylanib yurib to'rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo'lim boshlig'i O'rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to'g'risidadir qo'llarini paxsa qilishib bahslashmoqda edi. Meni ko'rishi bilan bo'lim boshlig'i:*

- O'rtoq agronom sizdan o'ir ittimosim bor,-deb qoldi.

Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a'zolariga **kompost** tushunmas ekan.

– Marhamat, - dedim-da, u yoq – bu yoqqa qarab olgach, leksiya o'qishga tushib ketdim:

- O'rtoqlar, **kompot** juda foydali ichimlik, uni asosan mevdan tayyorlashadi. Mevaiarning xili qanchalik ko'p bo'lsa. u shuncha shirin bo'ladi. Bizning Farg'ona tomonlarda **kompotni** o'rik shaftoliqoqi va olchanning qurug'idan tayyorlashadi. Xulias, kompot ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. (X.To'xtaboyev)

Said Ahmad o'zining «Sinovchi uchuvchi» deb nomlangan hajviyasida ham o'xshash talaffuzli so'zlar vositasida paronamaziyaning yuzaga keltirgan: *Har bir korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o'z sinovchilari bo'ladi. Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini **sinovchi uchuvchi** deyдилar... Mana, qarshimizda turgan barvasta qomati qarashi burgut nigohini eslatadigan. butun vujudidan kuch-g'ayrat sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning **sinovchi- uchuvchisidir...***

Birinchi parchadagi paronamaziya ikkita o'xshash so'zning qahramon tarafidan farqlanmasligi, ya'ni ikkita alohida *sozi* ma'nolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan. Ikkinchi parchadagi paronamaziya esa qahramon kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun atayin o'xshash talaffuzli yangi konstruksiyani hosil qiladi.

Zid ma'noli so'zlar

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zaiur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana *mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod* va *takofu* deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi". Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'zining badiiyat ilmi istilohlari tadqiqiga bag'ishlangan "Mafotih al-ulum" asarida mutobaqa atamasiga shunday izoh beradi: **mutobaqa** so'zi tobaqa fe'lidan olingan bo'lib, u muannas "tuya orqa oyog'ini o'zining oldingi oyog'ining iziga qo'yib yurdi" ma'nosini beradi⁹. Yevropa filologik an'anasida bu san'at «*antiteza*» deb yuritiladi. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda *zidlantirish, qarshilantirish* atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar belgilar, holatlar, obrazlar zidlantirladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan: Eski qishloqda yangi odat (maqol) *Hali ancha balandda bo'lsa ham uning **kamolidan zavoli** yaqinroq ekani ko'rinib turardi. Shuncha yer qo'ldan **chiqqan** bo'lsa, uning baravariga qancha davlat **qo'lga kirgandir**, muni xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub biladi!..(Cho'lpon)* Ba'zan mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Masalan: *U vaqtda o'zi - **kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi...** Xadichaxon esa **ezildi, kuydi, o'rtandi, xo'rlanib-xo'rlanib, achchiq - achchiq***

⁹ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

yigladi. (Cho'lpon)

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan: «*Zelixon Elchidan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U **mushtdek** yurakni **qoyadek** dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to'playotgan ekan...*» (T.Malik)

Bu nutqiy parchada *mushtdek* va *qoyadek* so'zlari «*kichik*» va «*katta*» ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan. Zid ma'nolilikni barqaror birikmalarda ham ko'plab kuzatishimiz mumkin. Iboralarda: *ko'kka ko'tarmoq-yerga urmoq, yuzi yorug' -yuzi shuvut, ko'ngli oq - ichi qora, ko'ziga issiq ko'rinmoq – ko'ziga sovuq o'rinmoq kabi. Yoki so'z va ibora o'rtasidagi– leksik-frazeologok zid ma'nolilik: xasis – qo'li ochiq, xafa – og'zi qulog'ida kabi. Maqol va matallarda: kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda. Yaxshidan ot qoladi yomondan dod. Osmon yiroq – yer qattiq. Hikmatli so'zlarda: Bilmaganni so'rab o'rgangan– olim, orlanib so'ramagan– o'ziga zolim.* (Navoiy)

Ko'p ma'noli so'zlar

Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni ko'p ma'noli so'zlarni o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi. Masalan: *yuk so'zi* o'zbek tilida ko'p ma'noli so'z hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'zning quyidagi ma'nolari qayd qilingan: 1) «Bir yerdan ikkinchi yerga ko'tarib, tashib borilishi lozim bo'lgan og'irlik»; 2) «Kishini urintirib qo'yadigan, tashvishga soladigan ortiqcha narsa, tashvish, dahmaza»; 3) «Qorindagi bola, homila»; 4) «Diniy e'tiqodga ko'ra aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yuz beradigan kasallik». Ardoqli adibimiz Cho'lpon o'zining «Kecha va kunduz» deb nomlangan romanida qahramonlar nutqida ana shu so'zning 2- va 4- ma'nolarini qorishtirish asosida ham qahramonlar ichki dunyosini yorqinroq ochishga, ham chiroyli kulgi chiqarishga muvaffaq bo'lgan: - *Yelkamda o'n putdan o'ttiz put yukim bor... - dedi mingboshi. Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. Xadichaxonning fikricha, mingboshiga «irim» qilgan edilar. Endi uni «qaytartirmoq»dan o'zga iioj yo'q edi. Bu fikr boshqa kundoshlarning miyalaridan ham o'tmadi emas... Faqal Xadichaxonning bu fikri qat'iy bo'lsa kerakkim, yashirishga lozim ko'rmadi:*

- *G'animlar qasd qilganga o'xshaydi. Qaytarma qildirib bersammi? - dedi.*

-*Ayollaming bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... - dedi mingboshi... Shu ochilishdan dadillanib bo'lsa kerak Xadichaxon yana e'tiroz qildi:*

-*O'zingiz o'z og'zingiz bilan «yuk bosd» demadingizmi?*

Mingboshi kulib yubordi:

-*“Yuk bosdi” degan bo'lsam -qanday yuk?” deb so'ragin-da, bachchag'ar! - dedi u.*

Bu vaqtda uydagiiar ham asta-sekin tashqariga chiqib yaqin o'rtaga kelgan edilar. Mingboshi davom qildi:

-*Uchalang yukmisan menga?*

-*Nima og'irimiz tushdi sizga? -dedi Xadichaxon. (Cho'lpon)*

Ko'p ma'noli *yuk* so'zi mingboshi nutqida «*ortiqcha tashvish*» ma'nosida, ya'ni «*uchta xotini o'n puddan o'ttiz pud*» *dahmaza* ma'nosida qo'llangan, xotinlar esa bu so'zning qayd etilgan 4- ma'nosida tushunganlar, shu tarzda kulgili holat yuzaga kelgan. Iboralarda ham ko'p ma'nolilikni kuzatishimiz mumkin. Masalan: yuragi

qinidan chiqmoq iborasi *sevinchni va qattiq qo'rquvni ifodalashga xizmat* qiladi. *Qizning paranjisini ko'rishi bilan oq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi* (Oybek). *Qo'rqmayman deb bo'lmayd, o'g'lim. Shunaqa vaqtda odamning yuragi qinidan chiqib ketadi.* (A.Qahhor) Bosh suqmoq – qisqa fursatga kirmoq, xabar olmoq; aralashmoq odamlarga qo'shilmoq. Tomdan tarasha tushganday – kutilmaganda, qo'qqisdan; qo'pol tarzda.

Eskirgan so'zlar

Jamiyat o'sib-o'zgarib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotdagi ba'zi tushunchalar tamomila eskirib, amaliyotdan chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning aslo iloji yo'q. Tilshunoslikda bunday tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar «*arxaizmlar*» va «*istorizmlar*» degan nomlar ostida umumlashtiriladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. «Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi». Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. *o'rdu-qo'shin, handasa-geometriya, tilmoch-tarjimon, mirza-kotib, sadr-raiis, lak-yuz ming* kabi so'zlar ishlatilganda davr ruhi ta'kidlangan bo'ladi. Ayrim arxaik so'zlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, yo'qsil – *kambag'al* arxaik so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, «*hech narsaga ega emaslik*» ma'nosi *yo'qsil* leksemasida *kambag'al* leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so'zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganda anglanadigan *yo'q-kam* so'zlari qiyoslansa, birinchisida muayyan ayni belgining “*nol*” darajada ekanligi seziladi. Arxaik so'zlar nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. She'riyatda nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlash maqsadida ishlatiladi:

*Siz ko'kning qopqasin qoqqan soatda
Quyosh ko'z uqalab uyg'onar edi.* (G'.G'ulom)

*Ulug¹ shaharlarning bo'ysirasida
Abadiy o'rinni topa olgan Shosh.* (A.Oripov)
Ne-ne zilziladan chiqolgan omon

Manglayi yarqiroq makonsan buyuk. (A.Oripov)

Hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar *istorizm* (tarixiy so'zlar) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan; *amin, pristav, mingboshi, noyib, ellikboshi, ponsad* kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy voqelikni ko'z oldiga keltiradi. Tarixiy so'zlar ham badiiy matnda o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatiladi.

Badiiy asar tilidagi eskirgan so'zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, «so'zlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davrdayoq eskirgan bo'lishi mumkin bo'lganidek, asar yozilgan davrda faol iste'molda bo'lib, keyinchalik iste'moldan tushgan»⁴⁴ bo'lishi mumkin.

Yangi so'zlar

Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash

uchun hosil qilingan leksemar **neologizm** yoki **yangi** soʻzlar deyiladi. «Neologizm tilga umuman mansub boʻlishi yoki yakka shaxs nutqiga xos boʻlishi mumkm. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi»⁴⁵. Badiiy asarda asosan individual nutq neologizmlari badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Mahoratli yozuvchilar voqelikni oʻziga xos, betakror va yangicha ifodalashga harakat qiladilar. Shuning uchun hali koʻnikilmagan yoki umuman qoʻllanilmagan, yangi, ohorli soʻzlardan foydalanadilar. Buni quyidagi misollarda ham koʻrish mumkin: 1. *Shu ikki kechaning ixtiyori menda! Men -jinlanganman, men -oʻtman, olovman.* 2. *Miryoqub Akbarali mingboshini haqir koʻradi, xoʻrlaydi, uning itlanishidan kuladi.* 3. *Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim-* (Choʻlpon) 4. *Bajarajak yumushlarimni bot-bot bayonlaydi.* 5. *Taʻtillanib podayotoqqa bordim.* (T. Murod). *Direktorimiz kabinadan tashqarilaydi* .(T.Murod)

Sheva soʻzlari

Yozuvchilar oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli, tasvirlar ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadilar. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga “badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir”. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning **fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar** sifatida tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. **Fonetik dialektizmlar** asosan, tovushlarni oʻzgartirib qoʻllash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qoʻllash koʻrinishlarida namoyon boʻladi. Masalan: 1. *Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan koʻngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol toʻshalgan aravada boʻlsa ham, allaqaylarga tala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi.*(Choʻlpon) 2. *Enaxonlarning butun oilasi yoyilgan qopning tegrasida jugari uqalab oʻtirardilar.*(Choʻlpon) 3. *Toshkanniyam olibdimi-a?* 4. *Televizorning ichida-da, ulim.* 5. *Obroʻy bor-da, obroʻy!* **Leksik dialektizmlar** ham oʻz "navbatida ichki guruhlarga boʻlib oʻrganiladi: **sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik semantic dialektizmlar**. Masalan: 1. *Kampir shotining yon yogʻ ochini silab oʻynar, Enaxon ogʻzidan olgan saqichini ezib “soqqa” yasar...* (Choʻlpon) 2. *Jiyaningiz qishloqdan zigʻir moy olib keldi. Shuni chuchityapman.*(T.Murod) 3. *U yozlik kiyimini kiyib, toʻppa-toʻgʻri birinchi klass nomerga bordi va oʻzi uchun ajratilgan kichkinagina chigiling (bejirim) vas oz oʻyiga oʻrnashdi.*(Choʻlpon) 4. Tok osti soʻri olachalpoq koʻlaga boʻldi. (T.Murod) Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning oʻzlariga xos boʻlgan urf-odatlarining nomlari **etnografik dialektizmlar** deb yuritiladi. Bunday soʻzlar tasvirning realligini taʼminlaydi: *U eshikdan kirar - kirmas toʻy toʻqqizini xotiniga uzatib:-Qizing qani? - deya soʻradi.*(Choʻlpon) Biror soʻz adabiy tilda ham shevada ham mavjud boʻlib, shevada adabiy tilda boʻlmagan maʼnosi bilan qoʻllana oladigan soʻzlar **semantik dialektizmlar** deb yuritiladi. Masalan: *Men buvimdan (onamdan -M. Y.) beruxsat mehmon chaqirmayman.*(Choʻlpon) **Grammatik dialektizmlarning** ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish mumkin. Masalan: *Qurvonbibi bu haqiqatni oʻzi-oʻz koʻnglida necha marta takrorlagan boʻlsaykin. Bilamiz, taqsir, yangi uylangan odamdi gapga tutib boʻlmaydi.* Shevaga xoslik iboralarda ham mavjud boʻlib badiiy matn qahramonlarining maʼlum bir hududga mansubligini va voqea-hodisalar boʻlib oʻtayotgan oʻrinni taʼkidlashga xizmat qiladi

Masalan, Tog'ay Murod asarlarida Surxondaryo shevasiga xos frazeologizmlar ko'p qo'llanilgan: *Xolilatib-xolilatib oyoq ildi. Men ovoz qo'yib chiriq berdim. Seni yo'qlab chiriq berdim.*

Chet va haqorat so'zlari

Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish, nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi, qahramonlar xarakteri haqida ma'lumot berish maqsadida foydalaniladi. Bunday birliklar **varvarizmlar** deb yuritiladi. Masalan, quyidagi parchada tatar millatiga mansub Fatxullin ismli amaldor nutqida keltirilgan varvarizmlar qahramonning qaysi millatga mansubliginiga emas, balki uning xarakterini ham to'liq ochib berishga xizmat qilgan: *O'xu, talkoviy malay shul. Bundan otlichiy kommunist chiqa. Ul partiya atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasay yib kursatdi. Buni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay yeyishi mumkin. Bravo, bravo!* (S.Ahmad)

Tilshunoslikda **vulgarizmlar** deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Haqorat so'zlari badiiy asarlarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilar) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi. Misollar:– Hey! *Baqqqa tush enag'ar!*, *Momo qo-oldi... Yuraging sovudimi, haromi? Endi yaylov keng bo'ldi senga! Bog'da javlon urasan, silkasal!* (Sh.Xolmirzayev) - *Ahmoq!* - dedi kampir. - *Qayoqlarda sang'ib yurganding?* (S.Ahmad) - *Nima, nima? Menga til tegizdi? Nimalar deydi xotintatoq?* (Cho'lpon) *G'animat g'arniki, deydilar,-dedi Botir firqa.* (T.Murod)

Barqaror birikmalar

«Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi». **Iboralar, maqol-matallar** va **hikmatli so'zlar** barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboraalarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga “umutil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin”. Frazeologik iboralarni qayta

ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan. Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardan iborat: 1. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish: *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo'lib qolasiz.* (S.Ahmad) *Mingboshining falon – falonlari bizni ko'ziga iladimi?, -deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og'zingga paxta tiqdingmi hammang? Dunyoda o'z oyog'iga o'zi bolta chopadigan ahmoq ham bo'ladimi?* (Cho'Ipon) 2. Ibora tarkibini kengaytirish. Bunda ibora tarkibiga yangi so'z kiritiladi. Tilimizda *jar solmoq* iborasi mavjud. Cho'Ipon uni *qo'shkarnayi bilan jar solmoq* tarzida kengaytiradi: *Mingboshilikni tortib olib, el ko'zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo'shkarnayi bilan jar soladiganday!* 3. Ibora tarkibini qisqartirish. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni tushirib qo'llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o'z badiiy maqsadiga ko'ra foydalanadilar. Tilimizda *qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq* iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi "ixlosi qaytib, ishonmay qo'yib, diqqat-e'tibordan soqit qilmoq" tarzida izohlanadi. Cho'Ipon «Kecha va kunduz" romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo'llaydi: *Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi.* Bu iboraning noyib to'ra nutqida *qo'l yuvmoq* tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma'no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to'raning «voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to'g'ri keladi» demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta'kidlangan. Bundan ko'rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti «tashlab chiqmoq», «ajralmoq», «qochib qolmoq» kabi yangi ma'no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Maqol – matal va hikmatli so'zlar

Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir.⁵⁰ Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asaming xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqni boyitish emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida

ham maqollardan keng foydalaniladi. *Yaxshining so'zi - qaymoq, Yomonning so'zi - to'qmoq. Eshikli bo'lding - beshikli bo'lding. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin. Sulaymon o'ldi devlar qutildi. Hamal keldi - amal keldi* kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi. «Matallar-tarbiyaviy, pand-nasihati ma'nolarini ifodalovchi, grammatik jihatdan to'liq gap shaklida bo'lgan, faqat o'z ma'nosida - to'g'ri ma'noda qo'llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir»⁵¹ Masalan: *Go'sht suyaksiz bo'lmas, sholi - kurmaksiz. Gumon iymondan ayirir. Gul tikonsiz bo'lmas* kabilar matal hisoblanadi. Hikmatli so'zlar ma'lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma'nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo'lgan bunday so'zlar aforizmlar ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so'zlar «paremlar» deb ham

yuritiladi. O'zbek tilida maqol-matal hamda aforizmlarga bag'ishlangan ko'plab lug'atlar mavjud.⁵² Badiiy asarni lisoniy jihatdan tahlil qilishda bunday lug'atlardan unumli foydalanish zarur.

Agnonimlar

Agnonim atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum degan ma'noni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish mumkin. Mutaxassislar ma'lum leksik-frazeologik birlik agnonim sifatida qabul qilinishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak, deb hisoblashadi: 1. Bir tilda so'zlashuvchilar butunlay tushunarsiz bo'lgani holda iste'molda qaysidir darajada mavjud bo'lsa: *jo'mish (jo'mish o'kirib biyik bo'lmas, echki yugurib kiyik), olato'g'anoq (olato'g'anoq og'ir bo'lsa ham. qarchig'aydek bo'lmas)* 2. Bir tilda so'zlashuvchilar tomonidan eshitilgan, lekin to'liq anglanmagan bo'lsa: *kvalifikatsiya, bakalavr, fauna, fayl, emissiya, embargo, rokirovka* kabi. 3. Til egasi muayyan so'zni qaysidir sohaga tegishli ekanligidan xabardor, «buni faqat ma'lum bir soha egalarigina biladi» degan fikrda, lekin aniq aytib bera olmagan bo'lsa: *gistologiya, sistalogiya, aksiologiya, falaj, esperanto, etnografiya, anemiya* kabi. 4. Til egasi muayyan so'zning qandaydir predmet ekanligini bilgani holda uning aynan nima ekanligini aytib bera olmasa: *hantal, ang'iz, tuvoq, koshin, kofein, eskort* kabi. 5. Til egasi muayyan so'zning eng umumiy bo'lgan tomonini bilgani holda uning xususiy tomonlarini aytib bera olmasa: *Sakura-daraxt*, lekin qanday daraxt, qayerlarda o'sadi, shaki-shamoyili qanday? *Sug'ur-hayvon*, lekin qanday hayvon? *Avakado-meva*, lekin qanday meva? Shuningdek, tildan foydalanuvchi muayyan so'zni nutq jarayonida ko'p va o'rinli qo'llagani holda ma'nosini bilmasa yoki tushuntirib bera olmasa ham mazkur birlik agnonim hisoblanadi; *ma'naviyat, anqov, aqida, go'ya, qadriyat, hamiyat, mijoz* kabi.

Badiiy adabiyotda agnonimlar alohida estetik vazifa bajaradi. Agnonimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo'llanilish hodisasini agnomaziya deb atash mumkin. Agnomaziya yuklanadigan vazifalar sirasiga qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funktsiya bajarish kabilarni kiritish mumkin. Quyidagi parchada ostiga chizilgan agnomik birliklar, asosan, farmasevtika bo'yicha mutaxassis nutqida (domlanning ma'ruzasida) qo'llanilgan bo'lib, illustrativ xarakter kasb etadi. Kitobxon uchun bu so'zlarning anglanishi u darajada muhim emas. Faqatgina qahramonning faoliyat o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar xolos: «*Birinchi qatorga o'tirib leksiya daftarimni ochib qo'ydim. Sadir Fuzaylovich uyoqdan-buyoqqa vazmin borib kelib, leksiyasini davom ettirdi. – Uxlata digan moddalar neyronlardagi qo'zg'alish seanslarini susaytiradi, retikulyar formatsiyaning bosh miya po'stlog'iga ko'rsatadigan, stimullashtiruvchi ta'sirini pasaytiradi va shu tariqa uyquni vujudga keltiradi.*

Sekin burilib qaradim. Muzaffar ham mendan ko'z uzmay o'tirgan ekan. Soqoli o'sib ketibdi. Sochi taralmagan, ko'ylagi g'ijim... Hech qachon bunaqa yurmas edi. Bir gap bo'lgan.

- Uxlaturvchi preparatlar orasida eng ta'sirli dorilar, -Sadir Fuzaylovich ovozi balandroq ko'tardi, -barbituratlar hisoblanadi. Bular orasida hozirgi kunda eng kuchlisi fenobarbital hisoblanadi. Bu preparat uxlaturvchi, shuningdek, talvasani, epilepsiya-tutqanoqni tinchlantiruvchi dori sifatida poroshok yoki tabletka holida 0.1-

0,2 grammdan ichiladi.

Oyim kecha ham fenobarbital ichdi. Ikkita tabletk. 0,2gramm! Keyin qotib uxlab qoidi. Men esa mijja qoqmadim. Shu kecha oyimni birinchi marta yomon ko'rib ketdim.» (O'.Hoshimov."Ikki eshik orasi") Quyidagi matnda esa oqsoqolning bankrot so'zining ma'nosini bilmasligi natijasida komik effekt yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin: *Bir biznesmen yigit mahallada yashaydigan bir oqsoqolni uyiga chaqiribdi. Oldinlari uyi to'la odam bo'ladigan yigitga qarab, otaxon asta so'rabdi:*

-Ha, bo'lam, tinchlikmi?

-Tinchlik, otaxon, tinchlik. Shu kichkinagina bankrotcha bo'lib qoldim. Shunga bir duo qilib yuboring, -debdi biznesmen.

-Omin, iloyo bundan keyin katta-katta bankrot bo'lib yurgin,-deb duo qilibdi otaxon!

Axir otaxon bankrotni qaydan ham bilsin!

Abdulia Qahhorning «Adabiyot muallimi» asaridagi prakti-kum, minimum, maksimum, Detirding, Stending, Mering, Demping kabi agnonimlar Boqijon Baqoyevning nutqini individuallashtirishga xizmat qilgan. Boqijon Baqoyev ana shunday, o'zidan boshqalar (hatto o'zi ham tugal) tushunmaydigan so'zlarni ishlatib huzur qiladigan odamlar qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

<http://WWW.ziyonet.uz>.

<http://WWW.bimm.uz>

<http://WWW.yazikoznanie.ru>

<http://WWW.lingust.ru>

5-MODUL. BADIY MATNNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI (1

soat)

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga badiiy matnda morfologik birliklarning qo'llanilishi, morfologik parallelizm, so'z turkumlari kategoriyalari va birliklarining lingvopoetik imkoniyatlari haqida ma'lumot berish

Tushunchalar va tayanch iboralar: Morfologik parallelizm, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya, antroponim, antonomasiya.

Asosiy savollar:

1. Badiiy matnda morfologik parallelizmdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
2. Affiksial sinonimiya va affiksial omonimiya deb nimaga aytiladi?
3. Affiksial omonimiya deb nimaga aytiladi?

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni:

1. Badiiy matnda morfologik birliklarning qo'llanilishi

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi degan «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik-emotsionallik tushuniladi". Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birikmali ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Odatda erkalash-suyish, hurmat-e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: *qizaloq, toychoq, o'rgilay, girgittan bo'lay, bolaginam, oppog'im, do'mbog'im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim* kabi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Masalan: *to'ng'iz, to'nka, takabbur, yebto'ymas, ochofat, bedavo, makkor, muttaham, beso'naqay, satang, mug'ombir, shilqim* kabi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. «Poetik morfologiyani tadqiq doirasi nihoyatda keng bo'lib, ulardan biri o'ziga xos qo'llangan affikslar tadqiqidir. Affikslarning poetik tadqiqi jarayonida, avvalo, turli leksik-grammatik kategoriyalar jihatidan bo'linishi hisobga olinadi»⁵⁶. O'zbek tilida kichraytirish shakli *-cha, -choq, -chak* qo'shimchalari bilan; erkalash shakli *-jon, -xon, -oy, -(a)loq* affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar *-lar* affiksi bilan hosil qilinadi. *-gina* qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalardan biri takroridir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita - morfologik parallelizmning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Morfologik parallelizm deb «nutq parchasida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar, grammatik vositalarning qayta qo'llanilish usuli. Bu o'rinda bir sintaktik qurilma doirasida parallel qo'llanuvchi yordarnchi so'zlar, forma yasovchi qo'shimchalarning aynan takrorlanishi nazarda tutiladi". Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan she'riy nutqda parallel ravishda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

Vatan, to tanda jonim bor,

*Seningdirman, seningdirman,
Tanim hok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.* (E.Vohidov)

Nasriy matnda morfologik (sintaktik) parallelizm ertaklarning boshlanmasida ko'p kuzatiladi. Quyidagi misolda *emoq to'liqsiz* fe'lining tushlangan shakli takroridan o'ziga xos ohangdorlik, musiqiylik hamda mazkur fe'l shakli orqali doimiylik belgisiga ega bo'lgan barqaror butunlik hosil qilingan: *Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa posbon ekan...*(ertakdan)

Badiiy asarda qo'llanilgan morfologik parallelizm yoki har qanday tasviriy-ifodaviy vositani qayd etish yoki mavjudligini ta'kidlashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Asl maqsad shu tarzda tasviriy vositalar) yoki badiiy san'atlar yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni qay darajada; ravon, qulay, jozibador yoxud san'atkorona ifodalashiga xizmat qilganini aniqlashga qaratilishi lozim. Aks holda, bu jo'n va zerikarli mashg'ulotga aylanadi. Badiiy tasvir vositalari o'z nomi bilan badiiyatga xizmat qiluvchi vositalardir. Ular biz uchun qidirib topilishi shart bo'lgan narsa yoki asosiy maqsad emas.

Ot so'z turkumining ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalari va subyektiv baho shakllarining poetik imkoniyatlarini tahlilga tortish ham lingvopoetikaning muhim masalaridan hisoblanadi. Tegishli adabiyotlarda mazkur qo'shimchaning hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta'kidlash kabi ma'nolarni ifodalashda ishlatilishi aniq misollar bilan asoslab berilgan. Ko'plik shakli qo'shimchasining qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni tugal aks ettirish imkoniyati boshqa qo'shimchalarga qaraganda aniq ko'zga tashlanib turadi. «Jumlada ifodalangan harakat yoki holatning egasi shaxs bo'lmaganda turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ega ko'plik shaklida bo'lsa ham, unga tegishli fe'l, asosan, ko'plik qo'shimchasini olmaydi, ya'ni *Barglar to'kildilar* emas, *Barglar tokildi* tarzida bo'ladi. Ammo Abdulla Qodiriy bunday o'rinlarda ham «-lar»ni qo'llaydi, u shunday tasvir tarzini tanlaydiki, *-lar* o'zgacha bir nozik ma'no ishvalarini kasb etadi. Ayniqsa, Kumush va Otabek bilan aloqali tasvirlashda bu juda yaqqol ko'rinadi: (...) *ikkinchi yoqdan o'zini asir etgan shaxlo ko'zlar unga nafratlanib qaragandek bo'lurlar, go'yoki vafosiz, va'dasiz deb qichqururlar edi*». Rauf Parfi she'rlarida ham shunday holatni kuzatish mumkin:

*Yomg'ir ham tinmadi uzun kun
Ivishgan novdalar sindilar.
Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,
Barglari jon uzib tindilar.*

Egalik shakli ham sof egalik, qarashlilik ma'nosidan tashqari erkalatish, koyish, nolish, tinchlantirish, achinish, kinoya, kesatiq, faxrlanish, kibr, kamtarlik kabi modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Ushbu misolda egalik shakli orqali qahramonning ma'naviy dunyosi ochib beriladi. Yozuvchi jirkansh ishlaridan faxrlanish va qarshisidagi insonga nisbatan kibr, manmanlik yoki tahqirlash ohangida muomala qilishga odatlangan qahramon qiyofasini benihoya aniq aks ettira olgan: - *Aql yoshda emas, aql boshda, eshon!* - deydi general Skobelev.- *Men, o'ttiz yoshimda Xivani tiz cho'ktirdim! Mana, o'ttiz iki yoshimda Qo'qonni tariqday tirqiratdim! Saksonni urib qo'yib, sen nimani qotirdinig?* (T.Murod). Shuningdek, atoqli otlar (antroponimlar)ning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qo'llanilgan ayrim ismlar yozuvchining badiiy -

estetik niyatini aniqlashga yordam beradi. Atoqli otlarning ana shunday vazifalarda qo'llanishi bilan bog'liq hodisa ayrim adabiyotlarda antonomasiya degan nom ostida umumlashtiriladi⁶¹. O'zbek adabiyotida personaj xarakter-xususiyatini ochib beruvchi, tag ma'noli kulgi yaratuvchi ismlar Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida juda ko'p ucnraydi. Masalan, *Salimsoq semiz, Kerzon, So'navoy, Sovinak, Mag'zava qori, Burnash abziy, Kalvak mahzum, Toshpo'lot tajang (A.Qodiriy); Jonfig'on, Cho'loq domla, Norin Cholpiq, Nabigul, Semiz Nazarov, Oriq Nazarov, Yovqosh Olloberganov (A.Qahhor); G'oyipnazar Pinhonov, Oldi Sottiyev, Tijoratxon (S.Ahmad)* kabi asar qahramonlari ismlarida yozuvchining kinoyasi aniq sezilib turadi. Mahoratli yozuvchilarimiz qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasida mushtaraklik o'rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar. Bu albatta yozuvchining lisoniy mahorati hisoblanadi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib borish mumkin.

“Sifat so'z turkumi poetik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy adabiyot tilida eng ko'p uchraydigan epitelar hosil qilishda qo'llaniladi”. Shuningdek, sifat so'z turkumidagi sinonimiya, sifat darajasini hosil qiluvchi shakllar hamda sifat yasovchi qo'shimchalar orqali ham badiiy-estetik effekt hosil qilinadi.

Sonlar, aslida, gapdagi muayyan miqdorga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin, mavhumlik yoki me'yordan ortiqlik ma'nolarini urg'ulash uchun qo'llanilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu misolda bir soni aniqlikni emas, *qandaydir, qaysidir* ma'nolaridagi mavhumlikni ifodalaydi:

Hindiqushdan taraladi bir nola,

Yuraklarni titratib zir-zir nola.

Qarang, qonga botib yotar bir dala,

Mangu armon bo'lib ketgan o'g'lonlar. (M.Yusuf)

Quyidagi parchada keltirilgan *ming* soni ham konkret miqdorni emas, balki *uzoq muddat* ma'nosidagi me'yordan ortiqlikni bildiradi:

Sochgum gulday dunyoga mehrim.

Toki yurak urib turadi.

Sen abadiy yashaysan, she'rim -

Qarg'a faqat mingga kiradi. (M.Yusuf)

Badiiy matnning ekspressivligini ta'minlashda olmoshlarning ham alohida o'rni bor. Olmoshlar bir so'zning takrorlanishi bilan yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan g'alizlikning oldini oladi. Olmoshlarning takrorlanishi esa nutqqa o'ziga xos ohangdorlik bag'ishlash bilan birga matnni shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bu turkumdagi so'zlarning ekspressiv imkoniyatlari benihoya kengdir. Fe'lning mayl, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon bo'luvchi o'ziga xosliklarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldashev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – T: «Ma'naviyat», 2002.

- 5.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T: «O‘ME», 2002.
- 6.Hojiahmedov A. She‘r san‘atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
- 7.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O‘qituvchi», 1995.
2. O‘rinboev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O‘qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O‘qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

- <http://WWW.ziyonet.uz>.
<http://WWW.bimm.uz>
<http://WWW.yazikoznanie.ru>
<http://WWW.lingust.ru>

6-MODUL. BADIY MATNNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI (1 soat)

Dars o‘quv maqsadi: talabalarga badiiy matnning sintaktik xususiyatlari haqida ma’lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar 1. Sintaktik parallelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so‘roq gap. 4.Inversiya. 5. Eilipsis. 6. Sukut. 7.Gradatsiya. 8.Antiteza. 9. Farqlash. 10. O‘xshatish.

Asosiy savollar:

1. Sintaktik parallelizm deb nimaga aytiladi?
2. Emotsional gap deb nimaga aytiladi?
3. Ritorik so‘roq gap deb nimaga aytiladi?
4. Inversiya deb nimaga aytiladi?
5. Ellipsis deb nimaga aytiladi?
6. Sukut deb nimaga aytiladi?
7. Gradatsiya deb nimaga aytiladi?
8. Antiteza deb nimaga aytiladi?
9. Farqlash deb nimaga aytiladi?
10. O‘xshatish deb nimaga aytiladi?

Asosiy o‘quv materialini qisqacha bayoni:

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq" kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi"ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili" kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi takror asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar».⁶⁵ Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan barcha adabiyotlarda uchraydi. Biz quyidagi o'nta hodisaga to'xtalish bilan cheklanamiz: 1. Sintaktik parallelizm. 2. Emotsiyonal gap. 3.Ritorik so'roq gap. 4. Inversiya. 5. Ellipsis. 6. Sukut 7. Gradatsiya. 8. Antiteza. 9. Farqlash. 10. O'xshatish.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yun. *parallelos-yonma-yon boruvchi*) yonma-yon gaplar sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi. Masalan: *Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi, Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti - bilolmaydi* (T. Murod) "Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to'la ishontira olishdan iborat. Ular uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi». Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga va fikrning batafsil – atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan: *Qo'shchi kalondimoq - kalondimoq qadam bosdi. Kibor – kibor quoch otdi. Kerma qosh - kerma qosh boqdi.*(T.Murod) Bu misolda qahramonning uch xil harakati bir xil shakllangan gaplarda ifodalangan, ya'ni, *qadam bosmoq - quloch otmoq-boqmoq*. Quyidagi misolda esa bir harakat bilan ma'lumotlar fondi parallel gaplarda kengayib boradi: *Tom bosh adog'ilab qadamladi. Vazmin - vazmin qadamladi. Oslarga dono – dono boqib qadamladi. Yoki: Qo'shchi qo'llari ketida tag'in qadam oldi. Mag'ribga boqib qadam oldi. Mashriqqa boqib qadam oldi.*(T.Murod)

Emotsional gaplar. So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsiyonal gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlar (*chehra, o'ktam, tabassum / turq, qo'pol, tirjaymoq* kabi) mavjud bo'ladi. O'sha so'zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo'rquv, g'azab kabi psixologik jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'z va iboralar, his-tuyg'u ifodalovchi undovlar (*oh, voy, sho'rim, eh, attang, bay-bay-bay* kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi: *Qanday yoqimli tong! To'yib-to'yib nafas olasan! Buncha fusunkor bo'lmasa bahor! Qishlog'imiz naqadar go'zal-a!* (Gazetadan). *Sarvarov to'ng'illadi: – Ikkinchi chiqishimda ushlashi kerak edi. Birinchi chiqishimdayoq ushlab o'tiribdi bu miyasi aynigan chol* (S.Ahmad). – *Tilimni qichitma jo'jaxo'roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqiliab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo'roz bo'lishingga hali o'n to'rt prosent bor. Bahorda karillab hech kimga so'z bermaganding. Menga, kekkayma, deganday shama qilding-a!*(A.Qahhor) *Evo, essiz umr, essiz qizim!.. Voy bechora! - dedi Gulsumbibi birdan. Sho'rlik qizga qiyin bo'libdi hammadan* (Oybek).

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so'roq gap deyiladi. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida *nahotki, axir* kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi. Ardoqli shoir Abdulla Oripovning «Olamonga» deb atalgan quyidagi she'ri ritorik so'roqning go'zal namunasi bo'la oladi:

Mashrab osilganda qayoqda eding?

*Cho'lpon otilganda qayoqda eding?
Surishtirganmidning Qodiriyni yo
Qalqon bo'lganmidning kelganda balo?
Hukmlar o'qilur sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.
Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?
Qarshingda, hasratli o'yga tolaman,
Qachon xalq bo'lasan, ey, sen - olomon?!*

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishi, yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi: *Bolangni olib ketsang-chi! Ko'rmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o'tiripti!* (A.Qahhor) - *Tashla u toshni! - deb do'q qilib qoldi onam. Ko'chaning o'rtasidan haydatib ketdim aravani. - Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? - deb qolsa bo'ladimi shunda.* (Sh.Xolmirzayev)

She'riyatda esa ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ko'p ishlatiladi:

*Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,
Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.
Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo,
Molim yomon degan biror kimsani.* (A.Oripov)

Ellipsis (yun. tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytiladi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod – lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Masalan: *Avaylaganing shu bo'lsa... uning zardali ovozi ham jonimga tegdi.* (Y.Akram) *Iltilimos to'xtang... Anavinga qarang!* (Sh.Xolmirzayev) – *Nima qilardingiz shu sassiq bilan tortishib?* (S.Ahmad) – *Topamiz-da, - dedim. Talantlar seni redaksiyanga emas, redaksiyam bo'lmasayam menga keladi.* (Sh.Xolmirzayev) Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida «**narsa**» so'zi, uchinchi va to'rtinchisida «**odam**» so'zi ellipsisga uchragan. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo'lib, badiiy matnga ham huddi shu – jonli nutqqa xos tabiiylikni ta'minlash maqsadi bilan olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis tekshirilganda, qaysi gap bo'lagi ellipsisga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi izohlanadi.

Ellipsisni maqollarda juda ko'p uchratamiz. So'zlarning tushirilishi natijasida maqol tabiatiga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi: Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga. Yomon bilan yursang qolarsan uyatga. Yaxshi xunuk libos bilan ham yaxshi. Ahmoq og'asini tanimas, To'qmoq tog'asini tanimas.

Sukut (yoki *jim qolish*) deb, “so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishiga»ga aytiladi. Adabiyotlarda ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda quyidagi maqsadlarda foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin: 1. Qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalashda: - *Bu tuproq... Oqqoshsho gapinitopolmay qoldi. Ketiga qayrilib qaraydi.* (T.Murod). 2. Tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalashda: - *Qap lo'ndasi... Shvetsiya vaziri Falonchiyev janoblari aytganlariday, bu tuproq O'rusiya tojidagi oliy qimmat dur,*

ha, dur! (T.Murod) 3. Qahramonning ma'lum muddat o'ylanib qolganligini ifodalashda: - *O'zi... poshsho kattami, vazir kattami?* (T.Murod) – *Bolalarim... -deydi. Oppoq soch odam labiarini rho'chchaytirio'cho'chchaytirib o'ylab qoladi. ~ Bolalarim... ~ deydi - Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. Sizlar kattatar hayotini boshdan kechiryapsiz.* (T.Murod).

Odatda, qahramonning sukuti (jim qolishi) ko'p nuqta bilan belgilanadi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ko'p nuqta bilan tugallangan hamma gaplar ham sukutga misol bo'lavermaydi.

Ba'zan muallifning o'zi qahramonning jim qolishi va uning sababini bayon qiladi. Bunday vaziyatda ekspressiv effekt sezilarsiz darajaga tushadi: *Xotini nima desa "yo'q" deydigan so'fi bu safar birdaniga "yo'q" demasdan, xayolga ketdi. Sukut-uzoqqa cho'zilganidan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan: - Nimaga indamaysiz? Xo'p deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki...* (Cho'lpon).

Gradatsiya (lot. gradatio - zinapoya, bosqichma bosqich kuchaytirish). Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon⁶⁸. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, hishayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya va pasayuvchi gradatsiya; ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya.

Men nadomatlarni unutganman. Men meros dovlamayman. Men molparast ham emasman.

Lekin qani mening yetti ma'dandan eritib quyilgan darvozam?

Jahonning bir mo'jizasi?

Oltin, temir, qurch, qalay, po'lat, mis, kumush darvozam?

Bibixonim darvozasi?

Yo'qolgan darvoza...

O'g'irlangan darvoza...

Tanga qilib maydalangan darvoza... (I.G'afurov)

Keltirilgan misolda dastlab shaxsiy sifatlar bosqichma-bosqich kuchaytirib tasvirlanyapti. Keyin darvoza bilan bog'liq sifatlar tasvirida pasayuvchi gradatsiyani kuzatish mumkin: mo'jizaviy darvoza – *temir darvoza – qurch darvoza*. Ortidan darvozaning kimga taalluqli ekanligi aytiladi va darvozaning g'oyib bo'lish sababi oshkor qilinadi: *darvoza yo'qolgan – (aslida) o'g'irlangan – (va) tanga qilib maydalangan*.

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yana-da aniq ko'rinadi. Masalan: *Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma!* (O'.Hoshimov) Bu misolda bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikkita tushuncha – *non* va *nom* zidlantirilyapti. Nega? Yozuvchi nima uchun bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'yyapti? Aslida non – hayotning, tiriklikning ajralmas bo'lagi. Bir parcha non

topib yeyish uchun odamzod mehnat qiladi ter to'kadi. Ammo hayotda o'sha bir parcha nonni topaman deb o'z nomiga, sha'niga dog' tushirayotganlar ham uchrab turadi. Non zarur, lekin nom undan ham muhim ekanligi mazkur misolda ta'kidlanmoqda. Haqiqatan ham, nonini yo'qotgan uni qaytib topishi mumkin, lekin o'z nomiga, sha'niga dog' tushirsa-chi? Uni qaytib tiklab bo'lmaydi. Bu misoldagi «non»ni “hayot uchun kerak bo'lgan hamma narsa, mol-dunyo” ma'nosida ham tushunish mumkin. Yoki: *Nodonlar davrasida kar bo'l. Donolar davrasida soqov bo'l...* (O'.Hoshimov) Bu misolda antitezaning ifoda materiali sifatida *nodon - dono, kar - soqov* birliklari keltirilgan. *Bolalikda dunyo keng-u kiyim tor. Keksayganda kiyim keng-u dunyo tor...* (O'. Hoshimov) Zidlanishni yuzaga keltirayotgan birliklar (*bolalik – keksalik, keng – tor, keng dunyo – tor dunyo, tor kiyim – keng kiyim*) xiazmatik konstruksiya shaklida kelib kontrastlikni yana-da bo'rttirib ifodaiashga xizmat qilgan.

Adabiyot ilmida oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladi. **Oksyumoron** grekcha so'z bo'lib, «*o'tkir lekin bema'ni*» degan ma'noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkazional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g'ayriodatiy birikmalar» deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko'nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta'minlaydi: *Sokin hayqiriq (M.Ali). Otashin muz, yong'inli daryo, so'qir lomakon, qora nur, yalang'och shuur, yaxlagan sarob (R.Parfi), oppoq tun, so'zsiz suhbat* kabi birikmalar oksyumorongga misol bo'ladi. Bunday g'ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma'lumki, istalgan ikki so'zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g'ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog'lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur, o'zaro bog'lanmaydigan so'zlarni bog'layotgan kuch nimada? Ularning birikib badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mavjud? Yozuvchini bunday “maromsiz” birikmalar yaratishga nima majbur qildi? kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin.

Farqlash deb ikki narsa-buyum, voqea-hodisa yoki holatlardagi differensiyal belgini aniqlashga aytiladi. Farqlash ham qiyos va chog'ishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga ko'ra antitezaga yaqin, lekin “antitezaga mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb qiyoslanadi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi”. Tasviriy vosita sifatidagi farqlashda belgilar qaysi xususiyatiga ko'ra farq qilayotganligi aniqlanadi. O'xshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq o'xshatishda integral belgilar idrok qilinadi. Farqlashda qiyos asnosida o'rta chiqadigan fundamental tafovutni aniqlash nazarda tutiladi. O'xshatishda bo'lgani kabi farqlashning ham ifoda unsurlarini quyidagicha tartiblash mumkin: 1. Farqlash subyekti. 2. Farqlash nisbati. 3. Farqlash asosi. 4. Farqlashni yuzaga keltiruvchi shakliy belgilar. 5. Farqlash natijasi. Masalan: *"Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamrak bir hujra, anavi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar narigilarda qora charog' sasiganda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarlik edi".* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Ayon bo'lganidek, parchada hujra, hujra ashyolari, hujra egalari qiyosga tortilgan. Qiyos asnosida hujraning qaysi belgilari o'rtaga chiqarilgan? Saroyda bir necha hujra bor. Lekin tasvirda ikkiga ajratilyapti: **a** (bitta) *hujra* va **b** (*ko'p*) *hujra*. **a** ni **b** dan ajratib turuvchi belgilar dastlab umumiy tarzda berilgan: **a** – ko'rkam (**b**– ko'rkam emas). Keyin hujra ashyolarini birma-bir sanash asnosida o'rtadagi farq ko'rsatib berilgan: *gilam - kiygiz; adras ko'rpa – bo'z ko'rpa; sham' – qora charog'*; Shundan so'ng hujra egalariidagi farq sanab o'tiladi: **a** ning egasi *og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabza urgan bir yigit*. **b** ning egalari, tabiiyki, bu tarzda tasvirlab bo'lmaydi. Shu sababli **b** dagi barcha kishilar ikkita belgida umumlashtiradi: *yengil tabiatlik, serchaqchaq*. Farqlashning ifoda unsuriga ko'ra *hujra (a)* – farqlash subyekti hisoblanadi. Chunki farqlanayotgan predmet bu - *hujradir. Hujralar (b)*– farqlash nisbati bo'lib *hujra(a)ning* o'ziga xosligi boshqa *hujralar (b)ga* nisbatan aniqlanyapti. Farqlash asosi sifatida «*ko'rkamrak*» so'zini olishimiz mumkin. Chunki **a** da mavjud bo'lgan ko'rkamlik **b** da mavjud emas. Shu belgi **a** ning **b** dan farqini ta'kidlaydi. Farqlashning shakliy belgilari: "*boshqalarga qaraganda*» birikmasi yordamida o'rtadagi tafovut yana-da bo'rttirilgan. Farqlash natijasi yozuvchining badiiy niyatini aniqlashga olib keladi. Xo'sh, yozuvchi nima maqsadda bunday taqqosni keltiradi? Mazkur ifodalarning badiiy asar mohiyati bilan qay darajada aloqadorligi bor? Bu kabi savollar asosida farqlashning beshinchi unsuriga javob izlanadi. Keltirilgan parchada 3 bosqichli farqlar silsilasi mavjudligini sezish qiyin emas. 1-bosqich: hujra. 2-bosqich: hujra ashyolari. 3-bosqich hujra egalari.

Badiiy asardagi bunday holatlarni tahlil qilish orqali yozuvchining murakkab konstruksiyali farqlash sillogizmini, qiyoslash, chog'ishtirish mantig'ini tasavvur etishimiz mumkin bo'ladi.

O'xshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkreteroq, bo'rttiribroq ifodalash»ga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari. Masalan: *Alisher tulkiday ayyor bola*. Bunda: **Alisher** - o'xshatish subyekti; **tulki** -o'xshatish etaloni; **ayyor** - o'xshatish asosi; **-day** - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi. M. Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlari lingvopoetikasiga bag'ishlangan monografiyasida o'xshatishning yana bir unsuri “o'xshatish maqsadi» ham mavjudligini ta'kidlagan. O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo'ladi. Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an'anaviy va xususiy–muallif o'xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo'ladi. **An'anaviy o'xshatishlar** og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan, shu sababdan ta'sirchanligini yo'qotgan o'xshatishlardir. Masalan: *tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko'zlari charosdek, qo'yday yuvosh, otning qashqasiday ma'lum* kabilar. Aslida ko'p takrorlanishi tufayli “siyqasi chiqqan” deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan

o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-hoatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Masalan: *Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q. Uning rangi machitning jaydari shamidek sap-sariq... go'yo kasaldan yaqindagina bosh ko'targan.*(Cho'lpon). Keltirilgan misolda so'fining, ruhoni kishining so'ngan, sarg'aygan rangi masjidning jaydari shamiga o'xshatilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi tasvirdagi holat qahramon ruhiyati uchun favqulodda muvofiq o'xshatish etaloni tanlagan, ya'ni qahramon – ruhoni, sham – masjidniki, qahramon – g'arib, dardmand, sham – jaydari, arzonbaho, qahramon tuganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham –yonib tugashning ham ramziy ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyuqlashib katta bir dard shaklini olgan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

<http://WWW.ziyonet.uz>.
<http://WWW.bimm.uz>
<http://WWW.yazikoznanie.ru>
<http://WWW.lingust.ru>

7-MODUL. KO'CHIMLAR (1 soat)

Dars o'quv maqsadi: talabalarga metafora, metonimiya, sinekdoha, kinoya, perifraz, mubolag'a, grotesk, kichraytirish haqida ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Metafora, metonimiya, sinekdoha, kinoya, perifraz, mubolag'a, grotesk, kichraytirish.

Asosiy savollar:

1. Badiiy matnda metafora qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Badiiy matnda metonimiyadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

3. Badiiy matnda sinekdoxa qanday maqsadlarda ishlatiladi?
4. Kinoyadan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
5. Perifrazdan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
6. Mubolag'adan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
7. Badiiy matnda groteskdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
8. Kichraytirishdan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni:

Ko'chimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishni» nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o'rganilgan. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozi, 2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet – apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota meyoziyning ko'rinishlaridir» Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga tartqanda ko'chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak.

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng kenq tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “*istiora*” deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi». Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog'i, odamning ko'zi – uzukning ko'zi, ko'ylakning etagi – tog'ning etagi* kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. «Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi,

natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi»¹⁰. Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. 2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: *Karim tulkiday ayyor odam.* O'xshatish konstruktsiya, Bunda **Karim** – o'xshatish subyekti, **tulki** – o'xshatish etaloni, **ayyor** – o'xshatish asosi, **-day** – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Karim – tulki.* Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, tulki-yey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu Metafora hisoblanadi. Chunki, Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar: 1. **Eshshak**, bu nima qilganing? 2. *Qamoqxonalarning «telegrafi» (gap tashuvchi, ayg'oqchi) juda aniq ishlaydi.* 3. – *Ko'ksiga pichoq sanchibdi, – dedi barak navbatchisi. -Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi.* 4. – *Oshga pashsha tushdi, aka! – dedi qo'rqa-pisa... «Devoriy gazeta» o'lgur keldi.* 5. *Qishdan qolgan qarg'alar.* 6. **Buqalamun bilan uchrashuv.** (S.Ahmad) 7. *Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi* (A. Qodiriy)

Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar⁷⁸. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san'atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: "Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo boladigan tasvir usulidir"⁷⁹. «O'zbek tili stilistikasi»da ham "kishining harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi" ga⁸⁰ jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan: 1. Tashxis –shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif "kuz"ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

*Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.
Unlmg qo'shig'ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida.* (A.Oripov)

¹⁰ Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa-buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi. Masalan: *Osmonga intilgan daraxtlar, ildizingiz yerdaligini bila turib, kelib-kelib sizni quchgan ko'k bag'rini tilasizmi? Har bahor yashillikka aldanganingizni hazon pallasida sezmaysizmi yo hammasini bila turib, hammasini seza turib shamol izniga bo'ysunasiz, shitirlaysiz. Men ham shivirlayman... Sizgaingan shudring mening ko'z yoshim... Bilaman, bor dardimni to'kib solmasam ham voqifsiz ahvolimdan. Zotan, siz tirik xotirasiz. Bebosh yaproqlarmng shivir-shiviri, mungli yomg'ir kuy, egilmachiq maysalar, injiq shamol, chuchmoma xo'rsinig'i, yuragimning ado bo'lmas o'kinchi, siz soddagina daraxtlarim va men egilishni eplolmagan asov g'alayon – hammamiz yolg'iz sog'inch bilan bog'langanmiz.* (Y. Akram)

2. Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida **allegoriya** deb ataladigan ko'chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori"⁸¹. Muxtor Xudoyqulovning «Sher bilan pashsha» deb nomlangan masalida ham ayrim insonlarga xos maqtancholik, yolg'on ishlatib bo'lsa ham obro' topishga urinish illati obrazli ifodasini topgan: *Bir pashsha Sherning qulog'iga bir zum qo'ndi-yu, uchib ketdi. So'ng ko'ringanga maqtandi:– Biz Sher bilan juda yaqinmiz, ko'p masalalarda u men bilan maslahatlashib turadi... Pashshalarga ishonmang!*

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan "tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og'ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi «shirin» va o'lchovni ifodalovchi «yengil» so'zlari «yoqimli» ma'nosida, «og'ir» so'zi esa «yoqimsiz» ma'nosida kelgan.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi"⁸². Masalan: *...yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo'ladirgan ko'ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyini yaxshilab o'qish kerak.* (A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib, «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki; Saroy tinch uyquda, tun yarim (A.Qodiriy). Bu misolda "saroy"

so'zi orqali «saroydagi odamlar» ma'nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir **mansurani** havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz:

Xemengueyni o'qish

– Aka Xemenguey ham badimga urib ketdi, – dedi buxorolik shoir. – *Endi o'qiyapman Jabron Xali, Folkner, Frishni.*

O'sha kuni uyga keldim. Yana kezib chiqdim o'zim sevgan Ernst olamlarini.

To'g'ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto Xemenguey ham.

Agar o'z erking ko'rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa.

Tuyulsa omonat, liqildoq.

Muomalaga o'rgatar Xemenguey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan. (I.G'afurov)

Sinekdoxa deb butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda «ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin»ligi⁸³ aytilgan. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Kinoya deb «til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim»ga⁸⁴ aytiladi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta'sirchan ifodalar yaratishda qo'llanilib kelingan. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa «**ironiya**» atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning **antifraza** (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo'li bilan inkor qilish) hamda **sarkazm** (zaharxanda ta'na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko'rinishlari farqlanadi. Mohir so'z ustasi, xalqimizning ardoqli adibi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. U «Mayiz yemagan xotin», «Adabiyot muallimi», «Nutq» kabi hajviy hikoya va fel'etonlarida kinoyaning turli ko'rinishlaridan foydalangan holda betakror obrazlar yaratgan. Masalan, adibning "Mayiz yemagan xotin» hikoyasidagi ironik bo'yoqlarda tasvirlangan mulla Norqo'zi ana shunday obrazlardan hisoblanadi: "*Ayo; kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'itiqqa ura bering. Paranj hayoning pardasi-da!*"

Perifraz deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Perifraz deb "narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi – xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash"ga aytiladi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa – hodisa nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektini bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom–ibora o'rtasida mazmuniy yaqinlik bo'lishi lozim. Masalan, **uchuvchilar** – samo lochinlari, **akula** – suv osti hukmdori, **sher** – hayvonlar sultoni, **Samarqand** – Sharq darvozasi, **teatr** – ma'naviyat o'chog'i, **yoshlik** – sevgi fasli kabi.

Mubolag'a, grotesk va kichraytirish. Narsalarni, voqea va hodisalarni, his-

tuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlashga mubolag'a (yoki **giperbola**) deyiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. "Mubolag'aning so'z ma'nosining ko'chishiga asoslanishi uning troplar guruhiga mansubligini ko'rsatsa ham, u tropning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko'rinishlarida ko'chma ma'no ma'lum bir belgi asosida o'xshatish, taqqoslash, voqea-hodisa yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra bo'lsa, mubolag'a esa to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi»⁸⁶. Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me'yor buzilsa kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida "mubolag'ali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qilishdir». Masalan, quyidagi parchada yozuvchi qahramon portretini mubolag'ador qilib tasvirlash orqali komik effekt yaratishga muvaffaq bo'lgan: *Mahallamizda Mamajon lo'mboz degan devdek kishi bo'lardi. Bo'yi unchalik daroz emasdi-ku, ammo eniga qarichlab o'lchasa, ikki gazdan oshiq chiqardi. O'tirganda dumbasi quymoqqa o'xshab yoyilib ketib uch gazga doira yasardi. Qorni shu qadar osilib ketganki, o'tirganda yerga yozsa bir ko'rpachalik joyga nari ketib qolardi. Kindigi qichiganda qo'li yetmay, otashkurak bilan qashlardi.* (S.Ahmad)

Mubolag'a yo'li bilan komik effekt yaratishmng yana bir usuli **grotesk** deb ataladi. «**Grotesk** fransuzcha so'z bo'lib, *kulgili, g'ayri tabiiy* degan ma'nolarni bildiradi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib vahimali hamda kulgili tarzda bo'rttirib tasvirlashdir. Grotesk haqiqatni inkor etmaydi, balki haqiqatni haqiqatsimon g'ayri tabiiy shakllarda yana-da ta'sirliroq ifodalash san'atidir». Abdulla Qahhorning ko'pgina feletonlarida turmushda uchrab turadigan salbiy holatlar, ijtimoiy va ma'naviy illatlar grotesk usulida oshkor qilinadi. Adibning «Bildirish» deb nomlangan feletonida o'zini duoxon va tabib deb atab odamlarni laqillatishni kasb qilib olgan "Cho'loq domla" haqida so'z boradi. U qabul qiladigan kasallar ham, tavsiya qiladigan dori-darmon ham, ish tarzi ham g'ayri tabiiy tarzda ifodalanadi: **Qabul qiladigan kasallar:** *Kindigiga bod to'xtagan, ko'kragi shishgan, tug'maydigan xotinlar, ishq dardiga mubtalo bo'lgan laylilar, majnunlar, parilar, yuk tashlagan kelinlar. Ayniqsa, xazonrezgi, toshqizig'i vaqtida qaytalanadigan jinni hamda arvoq urganlar va boshqalar...* **Dorilardan namunalar:** *Qo'ziqorinning bargi, havoning yog'i so'ngra mo'rining qurumi, chilimning suvi, aravaning g'ij-g'iji va bundan bo'lak turli-tuman attormng qutisida yo'q dori-darmonlar.*

Jinnilarni tuzatish borasidagi ikki so'nggi tajribamiz Qo'qonning Mirtohir mahallasidagi dong'li bir jinni ustida bo'ladi. Tashreh uchun sakkizta belkurak, yettita ketmon buyuriladi. Dori uchun eng munosib Hamroqulov qorining ashula aytganda chiqargan teri lozim ko'riladi.

Kichraytirish (litota) deganda mubolag'aning aksi tushuiniladi. «Lekin mohiyat e'tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqelik to'g'ridan - to'g'ri, bevosita bo'rttirib ko'rsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi» –Tilimni *qichitma, jo'jaxo'roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo'roz bo'lishingga hali o'n to'rt prosent bor* (A.Qahhor). Bunda qarshidagi insonni «jo'jaxo'roz» deb kichraytirish orqali o'zining kuchli ekanligi ta'kidlanayapti. Yoki, quyida berilgan misoldagi birinchi lofchi mubo'lag'adan foydalangan bo'lsa,

ikkinchisining nutqida kichraytirish va mubolag'a birdaniga kuzatiladi, hatto mubolag'a orqali birinchi obyekt yo'qqa chiqarilyapti: *Bir lofchi ikkinchi lofchining uyiga kelib dedi:*

– *Sizga bir gilamni sovg'a qilib keltirdim, uning bir uchi bu yerda bo'lsa, ikkinchi uchi Samarqandda turibdi.*

Ikkinchi lofchi unga darhol javob berdi:

– *Rahmat, yaxshi qilibsiz, mehmonxonadagi gilamning ozgina yeriga o't tushib kuygan edi, sen sovg'a qilgan gilamni o'shanga yamoq qilaman.*

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

<http://WWW.ziyonet.uz>.

<http://WWW.bimm.uz>

<http://WWW.yazikoznanie.ru>

<http://WWW.lingust.ru>

8-MODUL. Badiiy matni tahlil qilish tamoyillari (1 soat)

Dars o'quv maqsadi: talabalarga metod, tamoyil, usul haqida ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Metodologiya, metod, tamoyil, usul, shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, ilmiy mushohada usuli, lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lug'atlarqa asoslanish usuli.

Asosiy savollar:

1. Metodologiya, metod, tamoyil va usul deganda nimalarni tushunasiz?
2. Shakl va mazmun birligi tamoyilidan badiiy matn tahlili jarayonida qanday foydalaniladi?
3. Makon va zamon birligi tamoyili deganda nimani tushunasiz?
4. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyilini qanday izohlaysiz?
5. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili deganda nimani tushunasiz?

6. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyilini qanday izohlaysiz?
7. Badiiy matnni tahlil qilishda qanday usullardan foydalaniladi?
8. Lisoniy tahlilning qanday tiplarini bilasiz?

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni:

Badiiy matnning lisoniy tahlili fanining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Metodologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, *metodos*–yo'l, usul va *logos*–ta'limot demakdir. Boshqacha qilib aytganda, insonning nazariy va amaliy faoliyatini to'g'ri uyushtirish, tashkil etish haqidagi ta'limotdir. Dialektik tafakkur narsa va hodisalarning mohiyati ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanishi falsafiy qonunlar, tushunchalar (kategoriyalar) tizimi yordamida ochib beradi. Dialektikaning qonun va tushunchalari voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqasini aks ettirib, insonda narsalarning mohiyatiga chuqur kirib borish va ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin mazkur qonuniyatlar muayyan badiiy asarga tatbiq qilinganida uning xususiy tomonlarini hisobga olish zarur.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi degan fikrdamiz:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabat aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili⁹¹.

Tahlil usullari sifatida esa quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Lisoniy tadbil usuli.
2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.
3. Lug'atlarga asoslanish usuli.
4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.

1. **Shakl va mazmun birligi tamoyili.** Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasidir. Shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui» deb baho beradilar. Shaklni esa «mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shaki va mazmun bir-biri bilan shunday bog'lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur etkazishi mumkin. Shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to'la namoyon bo'lmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy e'tiborni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak.

Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy inatnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar makon va zamon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz:

– *Ha, sigiring yo'qoldimi?*

– *Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.*

– *Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?*

– *Ola ho'kiz...*

– *Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?*

– *Qo'sh mahali...*

– *Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?*

– *Bisotimda hech narsa yo'q...*

– *O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!* (Tanlangan asarlar. 1-tom. 33-bet). Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa bo'ladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arziyas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan.

Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga **makon va zamon birligi** tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Chunki har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy til munosabatini aniqlash tamoyili. Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutishning yana bir tamoyilidir. V.V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida" (1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan) 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug saltanat" mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin" tarixiy matndir.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili. Badiiy asardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilishi mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik

xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir.

1. Lisoniy tabdil usuli. Tabdil – “almashtirish, o'zgartirish, o'rin almashtirish” degan ma'noni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda o'zakdosh so'zlarning juft holda qo'llanishiga nisbatan ham ishlatilishi aytiladi³². Asar tilining badiiyliigi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniladi. Asarda qo'llanilgan so'z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko'rish, o'xshashi bilan almashtirib ko'rish va shu asosda baho berish nazarda tutiladi. Masalan, Abdulia Qahhorning «Anor» hikoyasidagi mana bu misolga e'tibor bering: *"Yo qudratingdan, indamaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matoini titkilaab-mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa, innaykiyin degin...*

Ayni o'rinda *narsa* so'zi emas, balki atayin *mato* so'zi qo'llanilgan. Narsa so'zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so'zi esa ayni ma'nosi bilan xolis emas, ya'ni unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrasini mavjud, bu ma'no qirrasini tikilab fe'l shakli bilan yana ham ta'kidlangan. Anorga boshqorog'i bo'lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o'tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning o'zi ham *narsa* emas faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o'rinda *mato* so'zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi.

Mahoratli adib Cho'lpon asarlaridan bunday holatlarni istagancha topish mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'ramoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatori mavjud bo'lib, burkamoq so'zida o'ramoq so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, ya'ni uning ma'no qurilishida “hech bir ochiq joyini qoldirmay” degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho'lpon tegishli mazmun ifodasi uchun o'ramoq so'zini emas, balki ayni burkamoq so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkanganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi.* Shuning uchun ham mazkur o'rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Almashtirilsa asar badiyatiga putur yetadi.

2. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma'lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g'oyasiga bog'lab yoritiladi. Yozuvchining badiiy asar tili ustida ishlashini o'rganishda, yozuvchi tuzatishlarni ayni bir mazmuni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va umuman yozuvchining tildan foydalanishdagi mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara beradi. Masalan, «Navoiy» romanining qo'lyozmasida: – *Buvijon, – hayajonlanib so'zladi Dildor, – ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (600-bet). Nashrda: –*Buvijon, – shivirladi u, – uni ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (237-bet).

Bu epizodda suhbat podshoh harami darvozasi yonida yuz beryapti. Vaziyat va ruhiy holat uyg'unligi ikkinchi variantda aniq ko'rinadi. Yoki G'afur G'ulomning «Shum bola» asari qahramoni – Qoravoyning yoshi dastlabki nashrda 17, keyingi nashrda 14 deb berilgan. Bunda ham qahramonning hatti-harakati va yoshi o'rtasida

muvofiglik hisobga olingan. Bu bevosita yozuvchining tuzatishlari. Shunday holatlar bo'ladiki, asar matni noshirlar tomonidan yoki adabiyotshunoslar tarafidan atayin o'zgartiriladi. "O'tkan kunlar» romani bir necha o'zgartishlar bilan nashr etib kelingani ko'pchilikka ma'lum.

3. Lug'atlarga asoslanish usuli. Asar tili, ayniqsa tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug'atlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Masalan, "Shayboniyxon" dostoni tilida qo'llanilgan *gudar, savash, sovut, sodoq, g'ul, tuv, baydoq* kabi o'sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma'nosini bilish asarni puxta o'rganishga yordam beradi. Bu-ku bir necha yuz yil oldingi asar ekan, o'tgan asr boshlarida yozilgan asarlar uchun ham lug'at tuzish oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Masalan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilarning asarlari uchun maxsus so'zlarning bevosita asarda reallashgan ma'nosiga asoslanib tuzilgan lug'atlar tayyorlanishi kerak. «O'tkan kunlar»da har bir sahifa ostida ayrim tushunarsiz so'zlarning izohi berib borilgan. Masalan, *utta – u yerda; siporish – topshiriq: muvofiquttab' – ta'bg'a mos, munosib; ashrof– e'tiborli kishi; ulug'lar; mushovir – maslahatchi; musohib – hamsuhbat* kabi. Va bu faqat mazkur asardagina emas, boshqalarida ham shunday. Lekin adibning barcha asarlarining tiliga bag'ishlangan maxsus lug'at tayyorlanishi lozim. J.Lapasovning «Badiiy matn va lisoniy tahlil" deb nomlangan qo'llanmasida muayyan bir badiiy matnning lug'atini tuzish bo'yicha namunalar hamda lug'at ustida ishlash bo'yicha muhim ko'rsatmalar berilgan. Olim to'g'ri ta'kidlaganidek: "Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lug'at ustida ishlash o'quvchi va talabalarning so'z boyligini, og'zaki va yozma nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi va shu lug'at yordamida nafaqat so'zlarning tub ma'nosini, balki ko'chma ma'nolari, har bir so'zlarning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (so'zning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, ba'zan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi".

4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli. Badiiy matnning tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talab qilinadi. Buning uchun dastlab, asardagi eng ko'p qo'llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo'lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar bo'lishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini o'taydi. Masalan, mohir so'z san'atkori Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida qo'llangan yuzdan ziyod ibora, metafora yoki metonimiyalarning indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqishimiz mumkin: (5 jildlik. 1 -jild. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987-yil)

Iboralar:

Aftini burishtirmoq – qimirlasam, biqinim sanchadi, – dedi Saidiy xuddi hozir sanchadiganday aftini burishtirib. (41 –bet)

Bo 'yniga olmoq – Saidiy xayrlashib chiqdi, qishloqqa borishni bo 'yniga olib qo 'ydi. (83-bet)

Dami ichiga tushmoq – Saidiy Yoqubjonning aytganini qilganida Kenjaning dami ichiga tushdi. (124-bet)

Oqizmay-tomizmay yetkazmoq – So'z o'rni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari ko 'rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini so'zlar, buni esa Munixon oqizmay-tomizmay Saidiyga yetkazar edi. (67-bet)

Ta 'bi ochilmoq – U qishloqqa kelganida dastlab yangi muhitga o'rganolmay ko'p qiynalgan edi, ammo o'rganganidan so'ng, ta'bi ochilib ketdi. (89-bet)

Yuragi dov bermaslik – Munisxon paltosining yoqasini ko'tardi-yu, eshikdan chiqishga yuragi dov bermay, turib qoldi. (43-bet)

Uhda qilolmaslik – Shef bilan ishlab ham uhda qilolmayotirsizmi? (82-bet)

Quloq bermoq – Qiz uning so'ziga o'zi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq berar edi. (35-bet)

Metaforalar:

Shervachcha – Assalomu alaykum, shervachcha,– dedi bir keksa tovush va bu tovushning egasidan ilgari «to'q» etib hassa kirdi. (88-bet) – Shervachcha, – dedi chol ikkala qo'lini ko'krigiga qo'yib, xirillab,– gazetaga bersalar... (89-bet)

Dori – Yo bosh og'rig'ini dori bilan bosaylikmi? Bir ryumka–bir ryumka... (129-bet)

Yaqinlik iplari – Bora-bora ikki oradagi Ehson tug'dirgan yaqinlik iplari uzila boshladi. (42-bet)

To'ngak – «To'ngak» biian professor o'rtasida o'tgan bu gap butun universitetga dovruq bo'ldi. (43-bet)

Metonimiyalar:

Zal – Yana qarsak zalni ko'targuday bo'ldi. (94-bet) Butun zal domlaga qaradi (94-bet)

Katta, mayda – U «katta» yozish uchun avval «mayda» bilan o'quvchi orttirish kerak, dedi. (136-bet)

Oshiqlar – Xususan, Kenja Saidiyning «Oshiqlar»i ochiqdan-ochiq sho'ro hukumatining xotin-qizlar ozodligi to'g'risidagi siyosatiga zarba berish, (...) Abbosxonning o'zi tasalligga muhtoj bo'lib qoldi. (139-bet)

Fakultet – Fakultetni tashlashga o'zingizda bu qadar majburiyat sezsangiz noiloj davom etmang, chunki bu narsa fakultetdan haydalisga olib keladi. (106-bet)

Firqa – Shunda, albatta firqa ko'rsatgan yo'ldan boramiz. (94- bet)

Universitet – Universitet chaqirtirayotir. (91-bet) «To'ngak» bilan professor o'rtasida o'tgan bu gap butun universitetga dovruq bo'ldi. (43-bet)

Shisha – Buni esa ko'proq shisha osonlashtiradi. (112-bet)

Lisoniy tahlil tiplari

Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo'lganidek, o'ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: tematik va kompleks tahlil.

1. Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalgam oshiriladi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarini birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

2. Kompleks tahlil. Tilning barcha sohalarga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liklikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu

xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo'lishimiz kerak. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar

bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

<http://WWW.ziyonet.uz>.

<http://WWW.bimm.uz>

<http://WWW.yazikoznanie.ru>

<http://WWW.lingust.ru>

Mustaqil ta'lim mazmuni

Talabanning mustaqil ishi o'quv rejasida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ishni tashkil etishda har bir talabanning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash;
- mavzu yuzasidan tahlilga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish;
- badiiy asar tahliliga oid ilmiy ishlarni oʻqish, munosabat bildirish, taqriz yozish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid keys-stadilar yaratish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid loyiha ishlarini bagarish;
- badiiy matnlarga xos xususiyatlarni belgilash, koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar va boshqalar.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish oʻquv mashgʻulotlarini olib boradigan oʻqituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan boʻyicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan oʻquv mashgʻulotini bevosita olib boruvchi oʻqituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va oʻquv qoʻllanmalar, metodik qoʻllanma va koʻrsatmalar, maʼlumotlar toʻplami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmogʻidagi tegishli maʼlumotlar, berilgan mavzu boʻyicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

«Badiiy matnning lisoniy tahlili» fani boʻyicha talabalarning mustaqil ishlari oʻquv semestri davomida tekshiriladi va baholanishi mumkin.

Semestr yakunida mustaqil ish natijalari umumiy reyting baliga qoʻshiladi.

Mustaqil taʼlim uchun quyidagi mavzular tavsifa etiladi:

1. Badiiy asar tilini oʻrganish muammolari.
2. Badiiy matn tilini tadqiq qilgan tilshunos olimlar haqida.
3. Tilshunoslik fanlari tizimida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanining ahamiyati.
4. Matnni lisoniy tahlil qilish usullari
5. Matn tiplari haqida maʼlumot.
6. Matnni shakllantiruvchi vositalari.
7. Matnning fonetik xususiyatlari.
8. Matnning leksik-grammatik xususiyatlari.
9. Matnni tahlil qilish tamoyillari.
10. Sheʼriy matnning lingvistik va semantik tahlili
11. Nasriy matnning lingvistik va semantik tahlili
12. Dramatik matnning lingvistik va semantik tahlili

AMALIY MASHGʻULOTLAR

1 – amaliy mashgʻulot. Mavzu: Matn tavsifi. Matn tiplari

Reja:

1. Matn taʼrifi.
 2. Matn tiplari.
 3. Matn va uning tipologik tasnifi.
- 1-topshiriq. Savollarga javob bering.*

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Kontekst nima?
3. Matn mazmun va hajm belgisiga kora nechaga bwlinaadi?
4. Matn qanday birliklardan iborat?

5. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.
6. Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot bering.
7. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
8. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.
9. Ifoda maqsadiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
10. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot bering.
11. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?
12. Badiiy va nobadiiy matn deganda nimani tushinasiz?
13. *Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi* gapidagi temani ayting.
14. Nominativ va infinitiv gaplar haqida ma'lumot bering.
15. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?

2- topshiriq. Quyidagi gaplardan tema-rematik munosabatlarni ko'rsating.

1. Umrbod ortingdan ergashib yuradigan yoqimli **dushman** - nafs.
2. **Maqtanchoqlik** qarilikning birinchi belgisidir.
3. Aql kirishi uchun **aql tishi** chiqishini kutib wtirish shart emas.
4. Mehrga **bemehrlik bilan javob berish** insonning abadiy kasolligadir.
5. **Ayol** gwdak isini birinchi farzandi tug`ilganidayoq his etadi. **Erkak** esa go`dak isi nimaligini nevarali bo`lganidan keyin anglaydi!..Biz – **erkaklar** doim kechikib yuramiz...(o`zgarmas temali bog`lanishlarga)
6. **Saltanat** – quyoshga wxshaydi. Juda yaqin borsang, yonib ketishing mumkin. Juda uzoq ketsang, muzlab qolishing mumkin.
7. **Baliq** boshidan sasiydi. Ammo uni dumidan tozalaydilir.
8. **Nodira** kun bo'yi kwrinmadi. Kutibxonada ham yo`q. Bozorga ham chiqmagan. Hali xonaga ham kelmadi.

3- topshiriq. Matnning ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra tiplari asosida tahlil qiling.

Muhammad Rahimxonning Tozabog'dagi sayrgoh bog'i. Uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha aylanib chiqish amri mahol, kishi charchab qoladi. Katta hovlining orqasida qirg'oqlariga marmar o'rnatilgan xon hovuz. Undagi zog'ora baliq, cho'rtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib tashlangan nonlarni yer, goh biltanglab o'ynab sho'ng'ib ketardi. Hovuzning to'rt tomonida yo'g'on – yo'g'on qayrag'ochlar, tanalari qulochga sig'maydi. Xorazmda hovuz desa, darhol ko'z oldingga katta – katta gujumlar – qayrag'ochlar keladi. Bu daraxtlar go'yo azamat dubni eslatadi. Hovuz labiga husn berib turganlar ham o'shalar. Ularning kichkina –kichkina barglari orasidan quyosh nurlari mo'ralaydi. Ammo ular quyosh haroratini o'zida singdirib, pastga tanga – tangaday oq shu'lalarini tushirardi. Ular kishiga orom beradi. Hovuz atrofiga oq marmarlar terilgan, suv sepib, chinni kosaday top – toza qilib qo'yilgan. Hovuz yonida, eng baland joyda xon o'tiradigan katta karavot, undan naridagi yerga lola rang taka turkman gilamlari to'shalgan. Ularning har biri xon bog'i uchun maxsus to'qilgan bo'lib, eni yigirma gaz, uzunligi o'ttiz gazdan oshiq. Ko'pincha ertalab va kechqurunlari xon shu hovuz bo'yiga chiqib o'tiradi. Hozir tush mahali bo'lgani uchun hovuz yonida hech

kim yo‘q, nariroqda rayhonning xushbo‘y hidlari dimoqqa uriladi. Bu yerda har xil gullar bor: nomozshomgul, gulsafsar, qamchingullar, qizil, sariq, oq atirgullar, karnaygul, gulbeor, sambitgul... Ularning ba‘zilari esa ertalab ochilib, kechqurun yumilar, ba‘zilari kech paytlari turli – tuman ranglarda ochilib, muhtasham boqqa husn berardi. Gulzorning narigi tomonida turli uzum ishkomlari: daroyi, husayni, yakdona, charos, kishmish... Xon uzum bilan olmani yaxshi ko‘rardi: bu yerda oq olma, qizil olma, un olma, kuzgi, qishki olmalar hosilini ko‘tarolmay shoxlari sinay – sinay deb turganidan, ularga katta – katta tirgovichlar qo‘yilgan. Anjirzor, shaftolizor... olxo‘ri, nashvati, behizorlar qator – qator. Tovlanib turgan chiroyli patlarini yoyib tovuslar qichqiradi. Kim bilsin Hindistondanmi, Tseylondanmi keltirilgan, ularga taqlid qilgandek to‘tilar ham qichqirib yuboradilar. (J.SHaripov)

(Tahlil. Tasviriy matn. Portonimik tasvir berilgan.(Muhammad Rahimxonning Tozabog‘dagi sayrgoh bog‘i. Katta hovlining orqasida qirg‘oqlariga marmar o‘rnatilgan xon hovuz.) Bog‘ tasvir ob‘ekti. bog‘ haqidagi ma‘lumot birlamchi x. undagi bor narsalar aloqador x. hovuz haqidag malumot 2lamchi x... formulasi $m=2(bx-ax)$ takrorlar. Temalarni tekshir)

2 - amaliy mashg‘ulot: Mavzu: Badiiy matn qismlarini bog‘lovchi vositalar

Reja:

1. Mazmuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik.
2. Badiiy matn shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Badiiy matn qismlarni bog‘lovchi vositalarni ayting.
2. Mamuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik deganda nimani tushinasiz.
3. Kontakt va distant aloqa deganimiz nima?
4. Takrorlar yordamida birikishda zanjirli va parallel aloqa mavjud. Bular qanday farqlanadi.

2-topshiriq. 1)Quyidagi matnlarni ifoda maqsadiga ko‘ra tiplarga ajrating. 2) Matnlarni bog‘lab turuvchi vositalarni aniqlang

Hudhud unga javob berish uchun nafasini rostlab, shunday dedi:

- Ey jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi! Sen shunday holatlarni bayon etdingki, bu ish faqat devonalar va yosh bolalar qo‘lidangina kela oladi, xolos. Odam degan tashqi go‘zallik haqida so‘z aytmaydi. Kimki undan faxr etar ekan, uni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi! Noz va husn faqat dilbar qizlargagina yarashadi. Er kishi esa dard va mashaqqat chekishi bilan yaxshidir. Barcha shakl ahli uchun eng sharafli ish ana shudirki, u shakldan ma‘no tomon olib boradi. Sen o‘z shaklingga bino qo‘yding, buning uchun kishilar tomonidan masxara etilishga loyiqsan. CHunki, inson o‘z tashqi go‘zalligi bilan faxrlanmaydi, agar faxrlansa, u masxaralanishga sazovordir! (Alisher Navoiy) (Didaktik matn. Olmoshlar)

Qaxraton qish. Osmonni bulut qoplagan. Qor yog'yapti, oppoq mayin qor...

Kampir karavotga suyanib ko'rpa qaviyapti. CHol deraza oldida, bukchaygan, yuzida keksalik xorg'inligi, bag'rida sochlari jingalak, qo'g'irchoqdaygina qizaloq. Qizcha kaftini yaxlagan oynaga bosib tashqariga talpinadi. CHol uni bir oldinga, bir orqaga tebratib, xixillagan tovush chiqaradi. Kampir ahyon – ahyonda ularga qarab qo'yadi. CHoli xi – xilab kulyaptimi, yo'talyaptimi bilmaydi.

CHol kuladi. Lekin kular ekan, nafasi tiqilib, yo'tal tutadi. Qor uchqunlariga tikilganicha, yiroq xayollar band etadi uni.

Osmon shunday bulutli va rutubatli edi o'shanda ham. Xuddi shunday oppoq, mayin qor yog'ardi...

CHoponlarining choki, mo'ylovi va qoshlariga ko'mir changi urgan, yoshi qaytgan, ammo o'zi anchayin bardam chol No'monxon ota vakzaldan poyi – piyoda yurib, uyga keldi. Darvozani ochib, nimqorong'i yo'llakka kiringach, yelkalaridagi qorni silqitib, telpagini qo'liga olib qoqdi. (Tasviriy matn. Nominativ.)

Malikam,- debdi jahl otiga minib. – Sizga ruhsat! Saltanat xazinasidan o'zingiz uchun eng qimmatli narsani oling-da yurtingizga jo'nang! (Buyruq mazmunli matn. Murojaat birliklari bilan)

Ayol kishi erkakka qwl berib kwrishdimi - bas!.. Rwza tutgan kishi og`zini chayqasa, suv tamog`iga ketmasa hamki, ro`zasi ochiladi – shu og`iz chayqashdan bahra oladi – da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning wg`li bir hovuch berganini o`z ko`zim bilan kwrganman. Hayo bormi shularda?Shariat ywli – xwp ywl. O`n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo`lini yuvib qo`ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da! (Izoh matn. Takror)

Hali maktabga bormasdim. Bahor edi. Akalarim o`qishga ketgandi.Zerikib ketdim. Uyimiz ro`parasidagi sambittoldan xivich kesib oldim. Undan hushtak yasashga tushdim. Harchand urinmay, tol pwstini ajrata olmmadim. Jahlim chiqqanidan, tolxivich bilan erni savalashga tushdim. (Hikoya mazmunli matn. Kesim.)

3-topshiriq. Guruhingiz bilan birgalikda Xabar mazmunli matn va Hissiy ifoda mazmunli matnlar tuzing. Xabar mazmunli matningizni zamon va makon ifodalovchi birliklar, Hissiy ifoda mazmunli matningizni portselyatli tizilmalaryordamida birikish hosil qilsin.

4-topshiriq. Badiiy matn qismlarini bog`lovchi vositalarni kwrsating.

Bir attorning eshagi shunday o'ylab qarasa, dunyoda turishning hech ham qizig'i qolmabdi: attor har kuni azonda og'ir yuk ortadi, o'zi ham minadi, «xi, isqoti!» deb ikki biqiniga tepadi. Qishloq ko'chalari... «Qizchalarga o'sma

keldi!.. Kelinlarga surma keldi...» Kechqurun qaytiladi. Attor yana «xi, isqoti!» deb og'ilga qamaydi-qo'yadi.

Eshak o'zini o'ldiradigan bo'ldi. SHu niyatda daryo bo'yiga ketayotsa, yo'lda ikkita odam urishayotibdi:

- Xonumonimni barbod qilib bo'lsa ham olaman!

- Bermayman! Senga berguncha ana u eshakka beraman!

Eshak to'xtaydi, qayrilib orqasiga qaraydi va quloqlarini tikka qilib o'ylanib qoladi: « Xo'sh, nima ekan u? Uch-to'rt kun sabr qilay-chi...»

Bu janjal eshakning joniga ora kiradi. Eshak qaytib ketadi.

Baron Fon Ring, albatta, eshak emas, balki oriy jinsidan bo'lgan bir zot. Baron to'g'risida gapirmoqchi bo'lib gapni eshakdan boshlaganimizning vaji bor. Bunga sabab, uning eshakka o'xshashligi emas. Nainki baron eshakka o'xshasa! Eshak deganning qulog'i uzun bo'ladi: baronning qulog'i mutlaqo yo'q: San-Marinoda bo'lgan bir karta o'yinida bor-yo'g'ini boy bergandan keyin, cho'talchining taklifi bilan ming tillo baravariga qulog'ini tikkan edi, bir inson boyvachchasini yutib shartta kesib tashlagan; yer yuzidagi hamma eshaklar yig'ilib, ming yil uringanda ham bitta kitobni o'qiyolmaydi, baron o'zi yakka yetti yil mobaynida «YUz ellik fokus» hamda «Ujda atrofida turgan frantsuz ofitserining kundalik daftari» degan ikki kitobni o'qib tashlagan.

Baron to'g'risida gapirmoqchi bo'lib, gapni eshakdan boshlashimizga sabab ana shu kitoblarining ikkinchisi bo'ldi.

3- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Alliteratsiya. Assonans. Geminatsiya va ularning badiiy matndagi o'rni

Reja:

1. Alliteratsiya
2. Assonans
3. Geminatsiya

1- Topshiriq Quyidagi matnlarning ichidan Alliteratsiyalarni toping va janrlarga ajrating.

1. Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp. Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi? 2. Chin qushim, chini qushim, chin tepaga qo'ndi qushim. Tumshug'ini erga berib, Xalqqa salom berdi qushim. (choynak) 3. Non ham non, uvog'i ham non. 4. Tulkining tushiga tovuq kirar, Tovuqning tushiga tariq kirar. 5. Teg desam, tegmaydi, tegma desam, tegadi. 5.

2-Topshiriq. Cho'lponning «Suygan chog'larda»she'rining fonetik-fonologik ritmik-intanatsion xususiyatlarini aniqlang.

- a) alliteratsiya;
- b) assonans;
- v) vazn;
- g) turoq.

4- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar.

1-topshiriq. Leksik ma'nodoshlikka misollar yozing.

Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi.

Xolbuki, musulmonlik kiyimda emas, qallda, dilda.

2-Topshiriq. Kontekstual ma'nodoshlik. *Kechagina qarg'ab, so'kib, "o'ldirsam!" deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi "qalin do'st" bo'lgan emishlar.* (Cho'lpon)

3-Topshiriq. Frazologik ma'nodoshlik. *Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq*

4-Topshiriq. Leksik-frazologik. *Xursand - og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi. Qurvon bibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.*

Omofonlar deb talaffuz jihatidan teng kelish hodisasiga aytiladi: *yot (<yod) - yot, sutxo'r (<sudxo'r) - sutxo'r* kabi. Shakldoshlik iboralarda ham kuzatiladi: *boshiga ko'tarmoq-I (e'zozlamoq) – boshiga ko'tarmoq-II (to'olon qilmoq), qo'l ko'tarmoq-I (ovoz bermoq, ma'qullamoq) - qo'l ko'tarmoq-II (urmoq).* Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Xalq og'zaki ijodida askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida she'riyatda esa tuyuq yoki so'z o'yini hosil qilishda ishlatiladi.

Masalan:

Qo'qonda Urfiy degan, Xo'jandda Kamol Xo'jandiy degan shoirlar bir-birlari bilan do'st ekan. Kamol Xo'jandiy Urfiyni mehmonga chaqiribdi. Supada suhbat qilib o'tirganlarida Kamol Xo'jandiyning kichkina kuchugi dasturxon yoniga kelib, hatto dasturxonga tegib ketsa ham, u indamas ekan. Urfiyning juda g'ashi kelib, achchig'I chiqipti va so'rapti:– Bu maxsumchaga nima nom qo'yganlar?

Kamol Xo'jandiy: Urfiy nomlardan birini qo'yganmiz-da.

Urfiy: Kamoliga yetsin!

Paronim so'zlar- *Aylanib yurib to'rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo'lim boshlig'i O'rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to'g'risidadir qo'llarini paxsa qilishib bahslashmoqda edi. Meni ko'rishi bilan bo'lim boshlig'i:*

- *O'rtoq agronom sizdan o'ir ittimosim bor,-deb qoldi.*

Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a'zolariga kompost tushunmas ekan.

- *Marhamat, - dedim-da, u yoq – bu yoqqa qarab olgach, leksiya o'qishga tushib ketdim:*

- *O'rtoqlar, kompot juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan*

*tayyorlashadi. Mevalarning xili qanchalik ko'p bo'lsa, u shuncha shirin bo'ladi. Bizning Farg'ona tomonlarda **kompotni** o'rik shaftoliqoqi va olchaning qurug'idan tayyorlashadi. Xulias, kompot ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. (X.To'xtaboyev)*

5- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va ularning badiiy matndagi o'rni

6- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanishi (anostomasiya)

7- amaliy mashg'ulot: Mavzu: Subyektiv baho shakllarining badiiy matndagi o'rni.

8- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Sifat, son, olmosh va fe'l so'z turkumida ekspressivlikning ifodalanishi.

9- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Sintaktik parallelizm. Emotsional gaplar. Ritorik so'roq gaplar. Inversiya

10- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Ellipsis. Gradatsiya. Antiteza. Farqlash. O'xshatish

11- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish

12- amaliy mashg'ulot: Mavzu:Ilmiy mushohada usuli. Lisoniy tabdil usuli. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Lug'atlarga asoslanish usuli.

GLOSSARIY

Anafora - She'riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishi.

Antiteza - Badiiy asarda bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash, qarshilantirish san'ati.

Antifraza - Ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgili intonatsiya bilan inkor qilishga aytiladi.

Allegoriya - Qochirim, kesatish, pichingga asoslangan ma'no ko'chishi

Alliteratsiya - Misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi: Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz...

Amfiboliya - Ikki xil talqin etish, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'ladigan gap. Bu //ahmoq odam emas. Bu ahmoq // odam emas.

Apastrofa - Jonsiz predmetlarga jonli narsadek murojaat qilish va shunday munosabatda bo'lish

Argo - YAsama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa vakillari o'rtasida tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklar.

Arxaizm - Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligi.

Assonans - Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan

ohangdoshlik.

Aferezis - Oldingi soʻzning soʻnggi tovushi taʼsirida keyingi soʻz boshidagi tovushning tushishi. Aytar edi → aytardi.

Varvarizm - Ona tiliga oʻzlashmagan, oʻzga til hodisasi sifatida qoʻllangan soʻz yoki ibora: madam, missis, mersi...

Vulgarizm - Adabiy tilga kirmaydigan dagʻal soʻz va iboralar.

Geminatsiya - Qoʻsh undoshlik. Ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: uchchida, teppasida...

Giperbola - Narsa-hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini oʻta boʻrttirib tasvirlash.

Gradatsiya - Nutq parchalaridan biri ikkinchisining maʼnosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon.

Demunitiv shakl - Kichraytirish shakli (deminutiv shakl, deminitus): qizcha, tugunchak, kelinchak.

Jargon - Biror guruh vakillarining, oʻz nutqi bilan koʻpchilikdan ajralib turish maqsadida, oʻzicha mazmun berib ishlatadigan soʻz va iboralari.

Jonlantirish - Jonsiz predmet, mavhum narsalarga insonga xos xususiyatlar berib tasvirlash usuli. Personifikatsiya. Tashxis.

Intellektual leksika – Maʼlum bir tushunchanigina ifodalab, qoʻshimcha emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlmagan soʻzlar

Ironiya - Soʻz va iboralarning kesatiq yoki piching bilan oʻz maʼnosiga qarama-qarshi maʼnoda ishlatilishi.

Kakofemizm-(disfemizm) - Ayrim tushunchalarni qoʻpol va dagʻal usulda ifodalash. Evfemizmning teskarisi. Masalan: oʻldirmoq-jonini jahannamga joʻnatmoq, asfalasofilinga ravona qilmoq kabi ifodalalar.

Kalambur- Soʻz oʻyini. Koʻp maʼnoliligiga, fonetik tuzilishi bir xilligiga yoki yaqinligiga asoslanadigan usul

Kantselyarizm - Rasmiy stilga xos soʻz va nutq shakllari

Kataxraza (Oksyumoron) - Qarama-qarshi tushunchalarni bogʻlash, soʻzni oʻz asl maʼnosiga muvofiq boʻlmagan holda qoʻllash: oq tunlar, qizil siyoh kabi.

Kinoya - Til birligini uning haqiqiy maʼnosiga nisbatan qarama-qarshi maʼnoda, kesatiq, piching bilan ishlatishdan iborat koʻchim.

Kontaminatsiya- Biror munosabat, tasavvurga koʻra oʻzaro bogʻliq boʻlgan ikki soʻz yoki iborani birlashtirish yoʻli bilan yangi soʻz yoki iboraning hosil boʻlishi. Masalan, erga tegmoq // turmushga chiqmoq = erga chiqmoq

Koʻchim - Badiiy ifodalilikni oshirish uchun koʻchma maʼnoda qoʻllangan nutq birligi, ramz bilan qoʻllangan soʻz.

Litota- Narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlash.

Majoz - Mavhum tushuncha yoki gʻoyalarni aniq obraz orqali ifodalash. Ayyorlik belgisiga egalik-tulki.

Maqol - CHuqur maʼnoli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega boʻlgan folklor janri

Metateza- Soʻzdagi tovushlarning oʻrin almashinishi: kiprik-kirpik, tuproq-turpoq kabi.

Metafora- Bir predmetning nomini boshqa predmetga shakl, belgi va harakat oʻxshashligini eʼtiborga olib koʻchirish.

Metonimiya- Bir predmet, belgi, harakat nomini oʻzaro tashqi yoki ichki bogʻliqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki haraktga nisbatan qoʻllash.

Monolog - Soʻzlovchining oʻziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini eʼtiborda tutmaydigan nutq.

Muvaqqat maʼno- Soʻzning maʼno tuzilishida shakllanib yetmagan, maʼlum individual qoʻllanishda yuzaga chiqadigan maʼno. Okkazional maʼno. Sanʼatimiz gullari, shabada yoʻrgʻaladi kabi.

Okkazionalizm - Mahsuldor boʻlmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning oʻzida qoʻllangan soʻz, individual-uslubiy neologizm.

Oksyumoron (Kataxraza) - Mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan ikki tushunchani qoʻshib qoʻllash. Baqirgan sukunat, qizil qor, shirin gʻam

Parallelizm - YOnma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega boʻlishi.

Parafraza- Tasviriy ifoda. Narsa, hodisani oʻz nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash. 3angori olov-gaz, dala malikasi- makkajoʻxori kabi.

Professionalizm - Tildagi kasb-hunarga oid boʻlgan soʻz va iboralar

Ritorik soʻroq - Faqat soʻroq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy vosita; javob talab qilmaydigan soʻroq gap.

Sarkazm - Achchiq zaharxanda, istehzoli taʼna, piching

Simvol - Badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun soʻzlarning maʼlum ravishda koʻchma maʼnoda ishlatilishi.

Sinekdoxa - Bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida koʻchishi, butunning nomi qismning nomi yoki aksincha boʻlib qolishi

Tabu- Diniy eʼtiqod, irim, qoʻrqish va shu kabilar taʼsirida soʻzning ishlatilishini cheklash yoki man etish. CHayon-oti yoʻq, boʻri-jondor kabi

Tavtologiya- Bir fikrni boshqa soʻz yoki soʻzlar bilan takroran ortiqcha qoʻllash: oyoq bilan tepish, gap gapirmoq kabilar.

Takror - Ayni bir soʻz, ibora yoki sintaktik shakllarning muayyan maqsad bilan qaytarilishi.

Figural maʼno- Voqelik bilan bevosita bogʻlanmaydigan, narsa, belgi, harakatning nomiga aylanmagan maʼno. Figural maʼno voqelik bilan nomlovchi maʼno orqali bogʻlanadi. Ovozining *shirasi* qochgan.

Evfemizm - Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi, ikkiqat-ogʻiroyoqli, homilador.

Evfoniya - Nutqning tovushlar takrori orqali yuzaga chiqariladigan xushohangligi.

Ekzotizm - Oʻzlashgan soʻzlar, nutqqa alohida bir oʻziga xoslik berish uchun qoʻllaniladigan soʻzlar.

Ekspressiya - Nutqning taʼsirchanligi, ifodaliligi va maʼnodor boʻlishi.

Emotsiya - Insoniy his-tuygʻu, kechinma va hissiyotlarning til birliklarida ifodalanishi.

Emfaza - Nutqning koʻtarinki ruhda boʻlishi, emotsionallikning kuchli boʻlishi: Amr et, Tojixon, amr et... Emfaza takror yordamida yuzaga chiqyapti.

Enantiosemiya - Bir soʻzning semantik tuzilishida zid maʼnolarning yuzaga kelishi. CHiqmoq-ichkaridan tashqariga harakatlanish, transportda ichkariga harakatlanish. Bosh-yoʻlning boshlanishi va yakuni

Epifora - Anaforaning teskarisi. Parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy vosita

Oʻxshatish- Ikki narsa yoki hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri

orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berish.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№BD-5111200-3.19.2
« » 2018



«TASDIQLAYMAN»
Nukus davlat pedagogika instituti rektori:
B.P.OTEMURATOV
« » 2018

BADIIY MATNNING LISONIY TAHLILI
FANINING

O'QUV DASTURI


Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Nukus – 2018

Fanning o'quv dasturi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashining 2018- yil "29" avgust dagi "4" -son majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:  Sh. Yuldasheva – Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchi: M. Xudayarova – Nukus davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari nomzodi
I. Kazakov – Qoraqalpoq davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi

KIRISH

Pedagogika institutida tahsil olayotgan bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi o'quvchilarga ona tilini mukammal egallash sirlarini o'rgatish uchun tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o'qitish nazariyasi va metodikasidan chuqur bilimga ega bo'lishlari hamda til hodisalarini tushuntira olishlari uchun ko'p qirrali bilimlarni egallashlari kerak. Bunda o'quv rejasining tanlov fanlari qatoridan o'rin olgan "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fani muhim ahamiyatga ega. Mazkur dastur bakalavriat bosqichi o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Unda matn va uning nazariy masalalari: matn qurilishi, tiplari, matn tarkibiy qismlarining bog'lanishi, matnning sintaktik va mazmuniy qurilishi, matnning aktual bo'laklanishi kabi masalalar bo'yicha nazariy bilimlar beriladi

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur fan ishchi o'quv rejasiga ko'ra tanlov fanlar qatorida o'rganiladi. Mazkur kursning mazmuni umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik asoslari, matnshunoslik, nutq madaniyati, uslubshunoslik, falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilish talabdan jiddiy filologik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki badiiy asar ijodiy tafakkur mahsuli sifatida shakl va mazmun jihatidan o'ta murakkab butunlik hisoblanadi.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy maktab filologik ta'limini yo'lga qo'yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanini to'liq o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki boshqa ko'p sohalarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

„Badiiy matnning lisoniy tahlili“ fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, axborot texnologiyalarini tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik texnologiyaning „Fikriy hujum“, „Klaster“, „Galereya“, „FSMU“, „Sinektika“, „Keys-stadi“ kabi, shuningdek, mavzularning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa interfaol usullarni qo'llash tavsiya etiladi. Talabalarga loyiha ishlari bajartiriladi. Shuningdek, yangicha usullarning o'zigina yutuqni ta'minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, yillar sinovidan o'tib kelayotgan usullar ham istifoda etiladi.

Fan modulining dasturi (modulli sillabus):

O'quv kursining to'liq nomi:	„Badiiy matnning lisoniy tahlili“	
Kursning qisqacha nomi:	BMLT	Kod: BMLT

Kafedra:	O‘zbek adabiyoti		
O‘qituvchi haqida ma’lumot:	Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna		mamura2010@umail.uz
Semestr va o‘quv kursining davomiyligi	4- semestr yoki 5-semestr		
O‘quv soatlari hajmi:	Jami:	76	
	shuningdek:		
	ma’ruza	18	
	amaliy	34	
	seminar		
	mustaqil ta’lim	24	
O‘quv kursining statusi	Umumkasbiy fanlar		
Dastlabki tayyorgarlik:	<ul style="list-style-type: none"> – Hozirgi o‘zbek adabiy tili; – Nutq madaniyati va mutolaa san’ati; – Sharq tillari; – O‘zbek dialektologiyasi; – Falsafa va boshqa fanlar. 		
<p>Fanning predmeti va mazmuni: talabalarga matn va uning nazariy masalalari: matn qurilishi, tiplari, matn tarkibiy qismlarining bog‘lanishi, matnning sintaktik va mazmuniy qurilishi, matnning aktual bo‘laklanishi kabi masalalar bo‘yicha nazariy bilimlar berish.</p>			
<p>“Badiiy matnning lisoniy tahlili” kursining maqsadi: o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarining umumfilologik saviyasini ko‘tarish va mustahkamlashdan iborat.</p>			
<p>Vazifasi: talabalarni matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko‘rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, ko‘chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bilan tanishtirish, hamda mazkur kurs bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini badiiy asardan tanlangan matnlar tahlilida sinab ko‘rish.</p>			
<p>Fan bo‘yicha talabalarining bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar</p>			
<p>Talabalarining bilimiga qo‘yiladigan talablar:</p> <p>matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko‘rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, ko‘chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bo‘yicha nazariy bilimga ega bo‘lishi</p> <p>Fan bo‘yicha talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> – badiiy asarni mustaqil o‘qish, tahlil qilish va baholash; – o‘qilgan asarni matn va uning tiplariga tasniflash; – badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash; – badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash; – badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘qish, munosabat bildirish <p>Fan bo‘yicha talaba quyidagi malakalarga ega bo‘lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish; – matnni tahlil qilishning samarali metod va usullarni tanlay olish; – faktlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqara olish; – badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘qib, taqriz yozish; – badiiy asar tahliliga oid loyiha ishini bajarish. <p>Talaba quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim: badiiy matn tahliliga oid qarashlarinimatnshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda tushunarli ifodalay</p>			

olish; badiiy matnning til xususiyatlarini, lingvopoetik tahlilini amalga oshirish va asarning badiiy qimmatini aniqlay olish, milliy adabiyotda tutgan o'rnini belgilay olish; har qanday badiiy asarga professional kitobxon maqomida munosabatda bo'lish.

ASOSIY QISM:

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Kirish. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursi haqida ma'lumot. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining obyekti, maqsadi va vazifalari. Matn ta'rifi, matn birliklari, Matn va uning tipologik tasnifi

2-modul. Badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar. Mazmuniy yaqinlik. Mazmuniy izchillik.

3-modul. Badiiy matnning fono-grafik xususiyatlari. Fono-grafik vositalar. Alliteratsiya, assonans. Geminatsiya

4-modul. Badiiy matnning leksik – semantik xususiyatlari. Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar. Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va agnonimlar

5-modul. Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. Badiiy matnda morfologik birliklarning qo'llanilishi. Morfologik parallelizm. So'z turkumlari kategoriyalari birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari

6-modul. Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari. Badiiy matnda ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllari. Sintaktik parallelizm. Emotsiyonal va ritorik so'roq gaplar. Inversiya, ellipsis, sukut. Gradatsiya va antiteza. Farqlash va o'xshatish

7-modul. Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish.

8-modul. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish usullari. Lisoniy tahlil tiplari

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar matn qurilishi haqidagi bilim va ko'nikmalarini

mustahkamlab boradilar. Ilmiy adabiyotlar va manbalar tavsiya qilinadi. Talabalar matn

tiplaridan namunalar tahliliga bog'liq referatlar tayyorlashadi.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1-mavzu: Matn tavsifi. Matn tiplari. Matnning hajm va ifoda maqsadiga ko'ra tiplari. Matnda tema-rema munosabatining ifodalanishi

2-mavzu: Badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar

3-mavzu: Alliteratsiya. Assonans. Geminatsiya va ularning badiiy matndagi o'rnini

4-mavzu: Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar.

5-mavzu: Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va ularning badiiy matndagi o'rni

6-mavzu: Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanishi (anostomasiya).

7-mavzu: Subyektiv baho shakllarining badiiy matndagi o'rni.

8-mavzu: Sifat, son, olmosh va fe'l so'z turkumida ekspressivlikning ifodalanishi.

9-mavzu: Sintaktik parallelizm. Emotsional gaplar. Ritorik so'roq gaplar. Inversiya.

10-mavzu: Ellipsis. Gradatsiya. Antiteza. Farqlash. O'xshatish.

11-mavzu: Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish.

12-mavzu: Ilmiy mushohada usuli. Lisoniy tabdil usuli. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Lug'atlarga asoslanish usuli.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ishni tashkil etishda har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- mavzu yuzasidan tahlilga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish;
- badiiy asar tahliliga oid ilmiy ishlarni o'qish, munosabat bildirish, taqriz yozish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid keys-stadilar yaratish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid loyiha ishlarini bagarish;
- badiiy matnlarga xos xususiyatlarni belgilash, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar va boshqalar.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o'quv mashg'ulotini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

«Badiiy matnning lisoniy tahlili» fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlari o'quv semestri davomida tekshiriladi va baholanishi mumkin.

Semestr yakunida mustaqil ish natijalari umumiy reyting baliga qo'shiladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

13. Badiiy asar tilini o'rganish muammolari.
14. Badiiy matn tilini tadqiq qilgan tilshunos olimlar haqida.
15. Tilshunoslik fanlari tizimida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanining ahamiyati.
16. Matnni lisoniy tahlil qilish usullari
17. Matn tiplari haqida ma'lumot.
18. Matnni shakllantiruvchi vositalari.
19. Matnning fonetik xususiyatlari.
20. Matnning leksik-grammatik xususiyatlari.
21. Matnni tahlil qilish tamoyillari.
22. She'riy matnning lingvistik va semantik tahlili
23. Nasriy matnning lingvistik va semantik tahlili
24. Dramatik matnning lingvistik va semantik tahlili

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish, talabalarning takliflarini ham inobatga olish tavsiya etiladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O'qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T: «Ma'naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: «O'ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She'r san'atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O'qituvchi», 1995.
2. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – T: «O'qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O'qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

1. <http://WWW.ziyonet.uz>.
2. <http://WWW.bimm.uz>
3. <http://WWW.yazikoznanie.ru>
4. <http://WWW.lingust.ru>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



Ro‘yxatga olindi
№ BD 5111200
“27” 06.2019-yil



O‘zbek tili kafedrası

«BADIY MATNNING LISONIY TAHLILI»

**FANIDAN ISHCHI DASTUR
(bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun)**

Bilim sohasi:	100000 –	gumanitar
Ta‘lim sohasi:	140000 –	pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5111200 –	O‘zbek tili va adabiyoti

NUKUS-2021

KIRISH

I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Pedagogika institutida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi o‘quvchilarga ona tilini mukammal egallash sirlarini o‘rgatish uchun tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘qitish nazariyasi va metodikasidan chuqur bilimga ega bo‘lishlari hamda til hodisalarini tushuntira olishlari uchun ko‘p qirrali bilimlarni egallashlari kerak. Bunda o‘quv rejasining tanlov fanlari qatoridan o‘rin olgan “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fani muhim ahamiyatga ega. Mazkur dastur bakalavriat bosqichi o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan. Unda matn va uning nazariy masalalari: matn qurilishi, tiplari, matn tarkibiy qismlarining bog‘lanishi, matnning sintaktik va mazmuniy qurilishi, matnning aktual bo‘laklanishi kabi masalalar bo‘yicha nazariy bilimlar beriladi

II. Fan dasturining maqsadi va vazifalari

O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning umumfilologik saviyasini ko‘tarish va mustahkamlashdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar qo‘yiladi. Talabalarning **bilimiga** qo‘yiladigan talablar:

matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko‘rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, ko‘chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bo‘yicha nazariy **bilimga ega bo‘lishi**

Fan bo‘yicha talaba quyidagi **ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi kerak:**

- badiiy asarni mustaqil o‘qish, tahlil qilish va baholash;
- o‘qilgan asarni matn va uning tiplariga tasniflash;
- badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash;
- badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash;
- badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘qish, munosabat bildirish

Fan bo‘yicha talaba quyidagi **malakalarga ega bo‘lishi kerak:**

- o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish;
- matnni tahlil qilishning samarali metod va usullarni tanlay olish;
- faktlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqara olish;
- badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘qib, taqriz yozish;
- badiiy asar tahliliga oid loyiha ishini bajarish.

Talaba quyidagi **kompetensiyalarga** ega bo‘lishi lozim: badiiy matn tahliliga oid qarashlarinimatnshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda tushunarli ifodalay olish; badiiy matnning til xususiyatlarini, lingvopoetik tahlilini amalga oshirish va asarning badiiy qimmatini aniqlay olish, milliy adabiyotda tutgan o‘rnini belgilay olish; har qanday badiiy asarga professional kitobxon maqomida munosabatda bo‘lish.

Badiiy matnning lingvistik tahlili” fanining 2021/2022 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi

OTMning nomi va	Nukus davlat pedagogika instituti	P.Seyitov	ko‘chasi,
-----------------	-----------------------------------	-----------	-----------

joylashgan manzili:		raqamsiz uy
Kafedra:	O'zbek tili	Filologiya fakulteti tarkibida
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	100 000 – Gumanitar 110 000 – Pedagogika	5111200 – o'zbek tili va adabiyoti
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	p.f.n. Yuldasheva Shaxlo	e-mail: mamura2010@umail.uz
Dars vaqti va joyi:	Bosh bino, 3-qavat 310- auditoriya	Kursning davomiyligi: 05.09.2098-02.02.2020
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	dushanba, juma kunlari 16.00 dan 18.00 gacha	
Fanga ajratilgan Soatlar 68	Auditoriya soatlari Ma'ruza: 10 Amaliy 20	Mustaqil ta'lim: 38
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Mazkur fan ishchi o'quv rejasiga ko'ra tanlov fanlar qatorida o'rganiladi. Mazkur kursning mazmuni umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik asoslari, matnshunoslik, nutq madaniyati, uslubshunoslik, falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilish talabadan jiddiy filologik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki badiiy asar ijodiy tafakkur mahsuli sifatida shakl va mazmun jihatidan o'ta murakkab butunlik hisoblanadi.	
Fanning mazmuni		
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	talabalarga matn va uning nazariy masalalari: matn qurilishi, tiplari, matn tarkibiy qismlarining bog'lanishi, matnning sintaktik va mazmuniy qurilishi, matnning aktual bo'laklanishi kabi masalalar bo'yicha nazariy bilimlar berish.	
Talabalar uchun talablar	matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko'rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, ko'chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lishi kerak	
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 18.00 gacha	

Nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soat

№	Mavzular	Ajratilgan soat
1	1-Modul: Kirish. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursi haqida ma'lumot. (Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining obykti, maqsadi va vazifalari. Matn ta'rifi, matn birliklari, Matn va uning tipologik tasnifi)	1
2	2-Modul: Badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar. (Mazmuniy yaqinlik. Mazmuniy izchillik.)	1
3	3-Modul: Badiiy matnning fono-grafik xususiyatlari. Fono-grafik vositalar. Alliteratsiya, assonans. Geminatsiya	2
4	4-Modul: Badiiy matnning leksik – semantik xususiyatlari. (Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar. Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va agnonimlar).	2
5	5-Modul: Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. (Badiiy matnda morfologik birliklarning qo'llanilishi. Morfologik parallelizm. So'z turkumlari kategoriyalari birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari)	1
6	6-Modul: Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari. (Badiiy matnda ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllari. Sintaktik parallelizm. Emotsiyonal va ritorik so'roq gaplar. Inversiya, ellipsis, sukut. Gradatsiya va antiteza. Farqlash va o'xshatish).	1
7	7-Modul: Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish.	1
8	8-Modul: Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. Badiiy matnni tahlil qilish usullari. Lisoniy tahlil tiplari	1
	Jami:	10 s.

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ularga ajratilgan soat

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzusi	Ajratilgan soat
1.	1-Modul: Matn tavsifi. Matn tiplari. Matnning hajm va ifoda maqsadiga ko'ra tiplari. Matnda tema-rema munosabatining ifodalanishi	1
2.	2-Modul: Badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar	1
3.	3-Modul: Alliteratsiya. Assonans. Geminatsiya va ularning badiiy matndagi o'rni	2
4.	4-Modul: Ma'nodosh so'zlar. Shakldosh so'zlar. Paronim so'zlar. Zid ma'noli so'zlar. Ko'p ma'noli so'zlar.	2
5.	5-Modul: Eskirgan so'zlar. Yangi so'zlar. Sheva so'zlari. Chet va haqorat so'zlarining uslubiy xususiyatlari. Barqaror birikmalar va ularning badiiy matndagi o'rni	2
6.	6-Modul: Badiiy matnning morfologik xususiyatlari. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanishi (anostomasiya).	1
7.	7-Modul: Subyektiv baho shakllarining badiiy matndagi o'rni.	1

8.	8-Modul: Sifat, son, olmosh va fe'l so'z turkumida ekspressivlikning ifodalanishi.	2
9.	9-Modul: Sintaktik parallelizm. Emotsional gaplar. Ritorik so'roq gaplar. Inversiya.	2
10	10-Modul: Ellipsis. Gradatsiya. Antiteza. Farqlash. O'xshatish.	2
11	11-Modul: Ko'chimlar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Kinoya. Perifraz. Mubolag'a, grotesk va kichraytirish.	2
12	12-Modul: Ilmiy mushohada usuli. Lisoniy tabdil usuli. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Lug'atlarga asoslanish usuli.	2
	JAMI:	20s.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ishni tashkil etishda har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- mavzu yuzasidan tahlilga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish;
- badiiy asar tahliliga oid ilmiy ishlarni o'qish, munosabat bildirish, taqriz yozish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid keys-stadilar yaratish;
- badiiy matnning lisoniy tahliliga oid loyiha ishlarini bagarish;
- badiiy matnlarga xos xususiyatlarni belgilash, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar va boshqalar.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o'quv mashg'ulotini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

«Badiiy matnning lisoniy tahlili» fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlari o'quv semestri davomida tekshiriladi va baholanishi mumkin.

Semestr yakunida mustaqil ish natijalari umumiy reyting baliga qo'shiladi.

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

25. Badiiy asar tilini o'rganish muammolari.
26. Badiiy matn tilini tadqiq qilgan tilshunos olimlar haqida.
27. Tilshunoslik fanlari tizimida «Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanining ahamiyati.
28. Matnni lisoniy tahlil qilish usullari

29. Matn tiplari haqida ma'lumot.
30. Matnni shakllantiruvchi vositalari.
31. Matnning fonetik xususiyatlari.
32. Matnning leksik-grammatik xususiyatlari.
33. Matnni tahlil qilish tamoyillari.
34. She'riy matnning lingvistik va semantik tahlili
35. Nasriy matnning lingvistik va semantik tahlili
36. Dramatik matnning lingvistik va semantik tahlili

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Bilimlarni baholash usullari, mezonlari va tartibi:

JN va ONning ballari (ilovada)	
Baholash usullari	Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari(ilovada) Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, taqdimotlar ko'rinishida o'tkazilishi mumkin

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari

Baho	Talabaning bilim darajasi
5 Baho	-talaba mashg'ulotlarga doimo tayyorlagan, juda faol, dasturiy matriallarni juda yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi; -talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi, o'quv materialini mohiyatini tushunadi; -talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi;
4 Baho	-talaba o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda obekttni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda yecha oladi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi; -bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbiiq qila olish mahorati, bir ishdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi; -talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega;
3 Baho	-talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; -talaba qator belgilar asosida ma'lum ob'ekttni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialni tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega;

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001, 120-b.

2. Boboiev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T: «O‘qituvchi», 2002.
3. Jamolxonov H. Yo‘ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma‘ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Yo‘ldashev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – T: «Ma‘naviyat», 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T: «O‘ME», 2002.
6. Hojiahmedov A. She‘r san‘atini bilasizmi? – T: «Sharq», 1999.
7. Yo‘ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. Fan. 2006

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T: «O‘qituvchi», 1995.
2. O‘rinboev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – T: «O‘qituvchi», 1990. 219-b.
3. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – T: «O‘qituvchi», 1992.
4. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000.
5. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet saytlari

- <http://WWW.ziyonet.uz>.
<http://WWW.bimm.uz>
<http://WWW.yazikoznanie.ru>
<http://WWW.lingust.ru>

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

Тестлар

1.	O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda necha yo‘nalish yetakchilik qiladi?	*2	3	4	5
2.	Tilning turli vazifalari qaysi yo‘nalishda tahlil qilinadi?	* Lingvopoetik	Lingvistik	Lingvodidaktik	
3.	“Matn” so‘zi qaysi tildan o‘zlashgan?	* arab tilidan	yunon	lotin	fors
4.	“Matn” so‘zi bilan aynan teng bo‘lgan so‘zni toping	* tekst	abzas	gap	So‘z
5.	Lingvistik adabiyotlarda matn birligi sifatida qaysi birliklar ko‘rsatiladi?	* gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas	So‘z, gap, abzas	Abzas, so‘z birikmasi, tovush	Gap, abzas, so‘z
6.	Maqol, matal, aforizm va miniaturalar matnning hajm belgisiga ko‘ra qaysi turiga misolbo‘la oladi?	* minimal matn	Maksimal matn	makromatn	mikromatn
7.	“Matn bir so‘z bilan, bir necha so‘z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin “ degan fikr muallifi kim?	* N.Turniyazov	M.Hakimov	A.Mamajonov	O‘.Hoshimov
8.	Matnlar tipologik jihatdan necha turga bo‘linadi?	* 2	3	4	5
9.	Ma‘lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya kabilar matnlarning lisoniy strukturasi jihatidan qaysi	*turg‘un strukturali	Erkin strukturali	Nobadiiy strukturali	Badiiy strukturali

	turiga kiradi?				
10.	Nutqiy muloqotning asosiy shakllariga ko'ra quyidagilardan qaysilari to'g'riligini aniqlang	* hikoya tasviriy, muhokama	Didaktik matn, hissiy ifoda matn	So'roq mazmunli matn, tasviriy matn	Muhokama, tahliliy, izohli
11.	Asosiy maqsad – mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matn qanday nomlanadi?	* nobadiiy matn	Badiiy matn	Rasmiy matn	Tasviriy matn
12.	Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi va gaplarning keyingi komponentlaridan takroran qo'llanilishi matn qismlarini birlashtirishi qaysi usulga kiradi?	* takrorlar yordamida birikish	Zamon va makon ifodalovchi birliklar	Parselliatli tizilmalar yordamida birikish	Murojaat birliklari
13.	Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun. Ushbu gapda qanday tuzilma berilgan?	* parselliatli	murojaat	nominativ	infinitiv
14.	Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q. Kokil yoysang yerdan bo'lak toshonang yo'q. (M.Yusuf) Ushbu gapda qanday Grammatik vosita qo'llangan?	* murojaat birlik	Zamon va makon ifodalovchi birlik	Takrorlar	parselliat
15.	Ayyorlikda uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg'on emas. Ushbu gapda qanday hodisa bor?	* geminatsiya	grafon	alliteratsiya	annosans
16.	Badiiy asarda qahramon nutqini individuallashtirish, hamda ifodani og'zaki-jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida qaysi usuldan foydalaniladi?	* grafon	geminatsiya	annosans	alliteratsiya
17.	Xalq maqollarida intonatsion butunliklarni ta'minlash maqsadida qaysi vosita qo'llanadi?	* alliteratsiya	grafon	geminatsiya	annosans
18.	Suymaganga suykalma, suyganingdan ayrilma. Qanday san'at qo'llangan?	* alliteratsiya	grafon	geminatsiya	annosans
19.	Ovni otsang, bilib ot, Dol nishonga qo'yib ot. Qanday fonetik usul qo'llangan?	* assonans	* alliteratsiya	grafon	geminatsiya
20.	Javoblar mosligini aniqlang 1. Leksik ma'nodoshlik 2. Frazeologik ma'nodoshlik 3. Leksik-frazeologik ma'nodoshlik A) ovoz, un, sas B) toqati toq bo'lmoq-sabr-kosasi to'lmoq C) damini ichiga solmoq-kamgap	*1-A, 2-B, 3-C	1-A, 2-C, 3-B	1-B, 2-A, 3-C	1-C, 2-B, 3-A
21.	Fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash yaqin bo'lib qolgan so'zlarga...	*paronim so'zlar	Shakldosh so'zlar	Ma'nodosh so'zlar	Ko'p ma'noli so'zlar
22.	Tilshunoslikda omonimiyaning necha ko'rinishi mavjud?	*3 ta	4 ta	5 ta	2 ta
23.	Qovoq(inson a'zosi), qovoq(o'simlik nomi). Ushbu misollarda omonim so'zlarning qaysi turi qo'llangan?	* omoleksema	omograf	omofon	frazeologik
24.	Omofonlar qaysi qatorda berilgan?	*sudxo'r, sutxo'r	Tom(uyning tomi), tom(jild)	Ishning boshi, ko'chaning boshi	Ishchi, kuchli
25.	Qaysi asarda mutobaqa so'zi tabaqa fe'lidan olinganligi qayd etilgan?	*"Mafotih al-ulum"	"Miftah ul-adl"	"Majmui shoiron"	"Makotib ul-uluq"
26.	U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi. Ushbu gapda	* shartli	frazeologik	leksik	Leksik-frazeologik

	antonimning qaysi turi bor?				
27.	Men- <i>jinlanganman</i> , men-o'tman, olovman! Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z qanday so'z hisoblanadi?	* yangi so'z	Sheva so'z	Eskirgan so'z	O'zlashgan so'z
28.	Dialektizmlarning turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.	*leksik, fonetik, grammatik	Leksik, fonetik, poetik	Fonologik, Grammatik, poetik	Dramatic, poetic, lingvistik
29.	Jiyaningiz qishloqdan jig'ir moy olib keldi. Shuni chuchutyapman. Dialektizmning qaysi turi qo'llangan?	* leksik	grammatik	fonetik	fonologik
30.	Qaysi gapda Grammatik dialektizm qo'llangan?	* Qurbonbibi bu haqiqatni o'zi-o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin.	Men buvimdan beruxsat mehmon chaqirmayman.	Bilamiz, taqdir, yangi uylangan odamni gapga tutib bo'lmaydi.	Men ovoz qo'yib chiriq berdim.
31.	Tilshunoslikda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi so'zlar qanday atama bilan yuritiladi?	* vulgarizm	varvarizm	evfemizm	jargonizm
32.	Bundan otlichniy communist chiq. Ushbu gap qanday birlikka misol bo'la oladi?	* varvarizm	evfemizm	jargonizm	vulgarizm
33.	Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari kim tomonidan keng o'rganilgan?	* B.Yo'ldoshev	A.Nurmonov	Sh.Yusupov	A.Sobirov
34.	“ Agnonim” so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	* bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum nom	Qayta ishlangan, tekshirilgan	Tekshirilgan	Noma'lum, tekshirilgan
35.	Agnonimlar qanday hodisa hisoblanadi?	* antroposentrik	lingvosentrik	denosentrik	deliosentrik
36.	Agnonimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo'llanilishi hodisasi bu-...	* agnomaziya	agnofaziya	agnoniya	agnolingvistik
37.	Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos olim nomini aniqlang.	* A.Abdullayev	A.Shomaqsudov	B.O'rinboyev	R.Qo'ng'urov
38.	Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi. Ushbu gapda qo'llangan hodisani aniqlang.	* sintaktik parallelizm	Inversiya	skut	gradatsiya
39.	So'z yoki so'z guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishiga...	* ellipsis	skut	gradatsiya	inversiya
40.	Gradatsiya so'zi qaysi tildan olingan?	* lotin	grek	fors	arab
41.	Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon...	* gradatsiya	ellipsis	oksumoron	antiteza
42.	So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar berilgan qatorni aniqlang.	*giperbola, neyozis	Ironiya, sarkazn	Antifraza, apostrofa	Metonimiya, metafora
43.	So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar qaysi qatorda ko'rsatilgan?	* metafora, metonimiya	Simvol, jonlantirish	Epitet, apostrofa	Sarkazn, antifraza
44.	Metaforaning ko'rinishlari berilgan qatorni topib belgilang.	* epitet, apostrofa, simvol	Perifraza, sinekdoxa, alligoriya	Sarkazn, antifraza, ironiya	Neozis, litota, giperbola
45.	Troplar va ularning ko'rinishlari mosligini tekshiring.1. Metafora 2. Metonimiya 3. Ironiya 4. Neozis A)	* 1-A, 2-D, 3-B, 4-C	1-B, 2-A, 3-C, 4-D	1-C, 2-D, 3-A, 4-B	1-A, 2-B, 3-D, 4-C

	apostrofa B) sarkazn C) litota D) alligoriya				
46.	Metoforaning nech aturini farqlash mumkin?	* 2	3	4	5
47.	O'xshatishga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi 2. O'xshatishda so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi 3. O'xshatishda o'xshatiluvchi ob'yekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi 4. O'xshatishda bir component bo'ladi	* 1, 3	2, 4	1, 4	2, 3
48.	“Badiiy san’atkor” kitobining muallifini toping.	*T.Boboyev, Z.Boboyeva	M.Mirtojiyev, A.Shomaqsudov	Z.Boboyeva, M.Mukarramov	M.Mamadaliyeva, A.Shomaqsudov
49.	Aka, Xeminguey ham badinga urib ketdi, -dedi buxorolik shoir. Qanday ma’no ko’chish sodir bo’lgan?	* metonimiya	metafora	sinekdoxa	vazifadoshlik
50.	Daraxtlar sarg’aydi, olma gulladi, qo’limni kesib oldim. Qanday ma’no ko’chishi sodir bo’lgan?	* sinekdoxa	metonimiya	metafora	Tag ma’no
51.	Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda kesatq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko’chim qanday nomlanadi?	* kinoya	Tag ma’no	metafora	giperbola
52.	Yevropa adabiyotshunosligida kinoya qaysi atama bilan yuritiladi?	* ironiya	sinekdoxa	perifraz	grotesk
53.	Kinoyaning masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatini kulgu, kalaka yo’li bilan inkor qilish usuli qanday nomlanadi?	* antifraza	sarkazm	ironiya	grotesk
54.	Sarkazm bu - ...	* zaharxanda ta’na, piching	Masxaralash, kalakalash	Inkor qilish, rad etish	Zidlash, qarama-qarshilash
55.	Samarqand-sharq darvozasi, sher-hayvonlar sultoni. Uslubiy vositalarning qaysi turiga misol bo’la oladi?	* perifraz	antifraz	grotesk	giperbola
56.	Grotesk so’zi qaysi tildan olingan va qanday ma’no bildiradi?	* fransuzcha, g’ayritabiiy	Arabcha, kulgili	Yunoncha, g’ayritabiiy	Forscha, ixcham
57.	Haqiqatni haqiqatsimon g’ayritabiiy shakllarda yanada ta’sirliroq ifodalash bu-...	* grotesk	antifraza	sarkazm	ironiya
58.	Mubolag’aning aksi...	* litota	sarkazm	giperbola	grotesk
59.	Metodologiya so’zining ma’nosini aniqlang.	* yunoncha, usul	Gruzincha, yo’l	Arabcha, uzun	Yunoncha, yangi
60.	Insonning nazariy va amaliy faoliyatini to’g’ri uyishtirish, tashkil etish haqidagi ta’limot bu...	*metodologiya	lingvistika	tahlil	taftalogiya
61	Badiiy matnni tahlil qilish nechta tamoyilni o’z ichiga oladi?	* 5	4	6	3
62.	“Badiiy adabiyot tili haqida” (1959) nomli asarning muallifini aniqlang.	* V.V.Vinogradov	N.M.Shanskiy	Z.Zapasov	A.Mamajonov
63.	Bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matnga misol to’g’ri berilgan qatorni belgilang.	* S.Ahmad “Azroil o’tgan yo’llarda”	M.Ali “Ulug’ saltanat”	Navoiy “Farhod va Shirin”	A va B

64.	“Tabdil “ so’zining lug’aviy ma’nosini toping	* almashtirish	O’zgartirish	O’rin almashtirish	So’z qo’shish
65.	Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga qaysi tamoyil niuqtai nazaridan yondashish zarur?	* makon va zamon birligi tamoyili	Shakl va mazmun birligi tamoyili	Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili	Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili
66.	Biror bir badiiy asarning tilning bir jihati bo’lishi va ma’lum bir tamoyil, usullar bo’yicha tahlil qilish qaysi tahlil turiga kiradi?	* tematik tahlil	Kompleks tahlil	Fonologik tahlil	Tipologik tahlil
67.	Qaysi tamoyilda asardagi uslubiy vositalar ro’yxati ustida ish olib boriladi?	* lisoniy birliklar indeksi tuzish usuli tamoyili	Lug’atlarga asoslanish usuli tamoyili	Matn variantlarini qiyoslash tamoyili	Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili
68.	Tilning konstruktiv vazifasi bu-...	* fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash	Ijtimoiy tajriba va bilimlarni to’plash, saqlash vazifasi	Tilning kishilar orasida asosiy aloqa vositaligi	Turli fikr va tuyg’ularni ifodalash vazifasi
69.	“Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g’ishtdan, oynadan, po’latdan quriladi”. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po’lat va g’ishtning ham o’rniga badiiy so’z ishlatiladi. Ushbu fikr muallifini belgilang.	* P.Qodirov	S.Mirzayev	H.Doniyorov	Hakimov
70.	Muzika sariga, masalan, biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo’lgan she’r...	* matn	abzas	logika	trop
71.	“Rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz musiqa bo’lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo’lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar”- ushbu fikrlar muallifini aniqlang.	*O.Sharafiddinov	A.Fitrat	O.To’xtasinov	N.Mahmudov
72.	“Tilning bu vazifasi faqat badiiy asardagina namoyon bo’lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz”. Ushbu fikr muallifi kim?	* D.N.Shemeyev	V.V.Vinogradov	D.M.Magomedov	M.N.Gorilikova
73.	Disrurs va matn terminlarining farqi?	* disrurs-og’zaki kommunikatsiyaga nisbatan matn-yozma kommunikatsiyaga nisbatan	Diskurs-rasmiy matn, matn sintaktik butunlik	Bu ikki termin bir xil maqsadda qo’llanadi	Diskurs-sintaktik butunlik, matn-rasmiy matn
74.	“Disrurs ” so’zining ma’nosi...	* nutq, so’zlash	Yozma	Qayta takrorlash	Mos, munosib
75.	Gapning matn birligi bo’la olmasligini ta’kidlagan tilshunos olim kim?	* I.R.Galperin	A.N.Gvozdev	V.V.Vinogradov	Z.Zapasov
76.	“O’zbek tilining paremiologik	* X.Berdiyarov,	Sh.Shomaqsudo	V.V.Vinogradov	Z.Zapasov

	lug'ati" asarining muallifi?	R.Rasulov	v		
77.	Tilning akumuliyativ vazifasi bu - ...	* ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash	Fikrlarni shakllantirish, tajribaga solish	Turli xil fikr va tuyg'ularni ifodalash	Kishilar o'rtasida sosiy aloqa vosita ekanligi
78.	adiiy matnning lisoniy tahlili" fani quyidagi qaysi fanlar bilan aloqador? 1. Tilshunoslik 2. Adabiyotshunoslik 3. Matnshunoslik 4. Nutq madaniyati 5. Uslubshunoslik 6. Falsafa 7. Etika 8.Eстетika 9. Mantiq 10. Psixologiya	*1,2,3,4,5,6,7,8,9,10	2,3,4,5,6,7,9,10	1,3,4,5,7,8,10	1,2,3,4,6,7,9,10
79.	Axborotni uzatish usuliga ko'ra matnlar anday turga bo'linadi?	* yozma va og'zaki	Minimal va maksimal	Tarixiy va zamonaviy	Macro va mikro
80.	So'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi nima deb aytiladi/	* anafora	alliteratsiya	aksonans	epifora
81.	Uzun tunlar bunchalar, mahzun tunlar bunchalar uzun. Ushbu she'riyparchada takrorning qaysi turio qo'llangan?	* hiaz	anafora	alliteratsiya	aksonans
82.	Ta'kid og'zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg'u bilan amalgam oshiriladi.Yozma nutqda bu vazifani qanday vsita bajaradi?	* partsellyatli qurilmalar	hiazn	Murojaat birliklari	Zamon va makon
83.	"O'zbek tili tarixiy fonetikasi" o'quv qo'llanmasida "Qo'shoqlanish deb nomlangan vosita qaysi?"	* geminatsiya	grafon	Alliteratsiya	assonans
84.	Qaysi fono-grafik vosita ko'hna badiiyatshunoslikda "Tavzi" san'ati deb yuritilgan?	* alliteratsiya	assonans	geminatsiya	grafon
85.	Qaysi san'at turi mutobaqa, tiboq, tatbiq, takofu deb ham yuritilgan?	* tazod	tajnis	tashbih	sifatlash
86.	"Tuya orqa oyog'ini o'ziningoldingi oyog'ining iziga qo'yib yurdi" ma'nosini bildiruvchi san'at turi nomi qaysi?	*mutobaqa	takofu	tadbiq	tiboq
87.	"Nafotih al-ulum" asarining muallifi kim?	*Xorazmiy	Farobiy	Beruniy	Ibn Sino
88.	Quyidagi parchada qanday dialektizm qo'llangan? Enaxonlarning butun oilasi yoyilgan qopning tegrasida <i>jugari</i> – uqalab o'tirardilar. (Cho'lpon)	* fonetik dialektizm	Leksik dialektizm	Grammatik dialektizm	Frazeologik dialektizm
89.	U eshikdan kirar-kirmas <i>to'y to'qqizini</i> xotiniga uzatib: - Qizing qani? Yuqoridagi parchada qanday dialektizm qo'llangan?	*etnografik	semantik	fonetik	leksik
90.	"Yunoncha tushish, tushirilish" ma'nosini bildiruvchi hodisa nomi?	* ellipsis	parallelizm	agnonim	gradatsiya
91.	Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo, bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.Ikkisi ichra ham ko'rmagan also, molim yomon degan biror kimsani. A.Oripov qalamiga mansub ushbu she'riy parchada qanday hodisa yuz bergan?	* inversiya	gradatsiya	parallelizm	skut
92.	Lotincha "zinapoya", "bosqichma-bosqich", "Kuchaytirish"	* gradatsiya	inversiya	parallelizm	skut

	ma'nolarini bildiruvchi, nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon bu...				
93.	Saroy tinch uyquda, tun yarim. Ushbu gapda ma'no ko'chishning qaysi turi qo'llanan?	* metonimiya	Metafora	sinekdoxa	kinoya
94.	... deb narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakter, belgi-xususiyatlari asosida ifodalshga aytiladi	* perifraz	metonimiya	Metafora	grotesk
95.	Ashraf so'zining ma'nosi nima?	* e'tiborli kishilar	maslahatchi	hamsuhbat	munosib
96.	"Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin..." fikr qaysi olimga tegishli.	* Z.Zapasov	Hakimov	M.Mirtojiyev	Sh.Abdurah monov
97.	Diskriptiv matn bu...?	* tasviriy matn	Katta matn	Real matn	Kichik matn
98.	Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so'zlar qanday yuritiladi?	* paremalar	aforizmlar	sitatalar	troplar
99.	Antonomasiya bu...	* atoqli otlarning badiiy matnda alohida maqsadlar bilan qo'llanilishi	siz predmetlarga jonli narsadek murojaat qilish	Aynan yoki yaqin unilarning takrori	Agnonimlar ning badiiy matnda qo'llanilishi
100.	Kutish! Soniyalar daqiqalar, daqiqalar soatlarga aylanadigan bekat. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmni toping.	* infinitive gap	Partselyatli tuzilmalar	Atov gap	Murojaat birliklari.

БОИҚА МАТЕРИАЛЛАР

МЕ'YORIY HUJJATLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi qonuniga sharhlar. -Toshkent.: "Sharq", 2000. – 384 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni, 1998.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

5. "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida": O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.
6. "Barkamol avlod yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O'zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so'zi. -2009. - № 238. – dekabr`.-1 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. –Toshkent: 2007. 19 mart, PF-3864-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori. –Toshkent: 2007. 6 aprel', PK-616- son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi 616-sonli "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent: 2007 yil 6 aprel'.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi "Odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-son Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi. 2008 yil 2 dekabr'.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1533-son qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me'yoriy hujjatlari

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. –Toshkent: 2007. 15 may, 97-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. –Toshkent: 2007. 24 may, 106- son.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 20 avgustdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 186-qarori.

Tilshunos olimlar

ABDURAHMONOV G`ANIJON

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi G`anijon Abdurahmonov 1925- yil 3-dekabrda Farg'ona viloyatida tavallud topgan. U tilshunos olim sifatida o'zbek tili tarixi, o'zbek tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, tilning badiiy-estetik vazifasi, shuningdek, tilshunoslikning umumiy masalalari doirasida barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xususan, «Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklari» (1956), «Qo'shma gap» (1957), «Qo'shma gap sintaksisi asoslari» (1958), «Qo'shma gap sintaksisi» (1964), «O'zbek adabiy tilining uslubiy normalari» (1973), akademik A.Rustamov bilan hamkorlikda yozilgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik G`.Abdurahmonov oliy va o'rta ta'lim bo'g'inlarida filologiya ta'limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, akademik A.Rustamov bilan hamkorlikda yozilgan «Qadimgi turkiy til» (1982), Sh.Shukurov bilan hamkorlikda yozilgan «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» (1973) kabi qator

asarlari bilan o`zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning tahriri ostida o`zbek tilining ikki tomli akademik grammatikasi («O`zbek tili grammatikasi» (2 tomli, 1975–76)) yaratildi. X–XI sinflar uchun yozilgan ona tili dasturi va darsligi ko`p yillardan buyon yosh avlodga til haqida bilim berishga xizmat qilib kelmoqda.

ASQAROVA MAZLUMA

Mazluma Asqarova 1924-yil 4-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi (1965), filologiya fanlari doktori (1963), professor (1965), Rossiya Federatsiyasi Ta`lim akademiyasining muxbir a`zosi (1968). Toshkent pedagogika bilim yurti (1940), Toshkent pedagogika institutining o`zbek tili va adabiyoti fakultetini (1944) tamomlagan. M.Asqarova qo`shma gap qismlarining mazmun munosabati, tuzilish va bog`lanish yo`llari xususida tadqiqot olib borib, qo`shma gapni bog`langan qo`shma gap va ergashgan qo`shma gapga ajratgan. Uning «Hozirgi zamon o`zbek tilida qo`shma gaplar» (1960), «O`zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (1966), «O`zbek tili taraqqiyoti muammolariga doir» (1995) kabi asarlari o`zbek tili sintaksisini o`rganishda muhim rol o`ynaydi.

M.Asqarova o`rta va oliy ta`limda o`zbek tili va tilshunosligini o`qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning A.G`ulomov bilan hamkorlikda oliy o`quv yurtlarining o`zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobi o`zbek tili sintaksisi tadqiqiga bag`ishlangan sara asarlardan. M.Asqarovaning o`rta maktablarning V–IX sinflari uchun hammualliflikda yozilgan ona tili darsliklari salkam 20 yil davomida maktablarda o`qitilib, ta`lim va tilshunoslik taraqqiyotiga muhim hissa bo`lib qo`shildi.

FAXRI KAMOLOV

Faxri Kamolov – o`zbek tilshunosligining fan sifatida, zamonaviy lingvistik soha bo`lib shakllanishida munosib hissa qo`shgan olim. U 1907 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. O`z tadqiqotlari bilan o`zbek adabiy tilining leksik, fonetik, orfoepik me`yorlarini belgilash, o`zbek alfaviti va imlosining, o`zbek nutqi madaniyatining shakllanishi va takomillashuvida bebaho hissa qo`shgan. Uning «Latinlashgan yangi o`zbek alfaviti» (1929), «Maktablarda imlo o`qitish metodikasidan qo`llanma» (1929), «Orfografik mashqlar to`plami» (1934), «Grammatika va orfografiya» (1934), «Sistemali diktantlar to`plami» (1935), «Hozirgi zamon o`zbek tili» (1953), «O`zbek tili leksikasi» (1953), «Qo`shma gaplarga doir masalalar» (1955), «Hozirgi zamon o`zbek tili» (1957), «Oz`bek tilini o`qitish metodikasi» (1958) kabi o`rta va oliy ta`lim uchun yaratilgan darslik va qo`llanmalari, ilmiy maqolalari 30-50-yillar o`zbek tilshunosligining muhim yutug`i bo`lib qoldi.

Faxri Kamolov o`z hayoti davomida o`zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bag`ishlab 150 dan ortiq darslik, qo`llanma, dastur, risola va maqolalar yaratgan zabardast olim edi. U malakali ilmiy kadrlar tayyorlashda ham katta hissa qo`shgan.

Olim 1966 yilda vafot etgan.

HOJIYEV AZIM

Azim Hojiyev – filologiya fanlari doktori, professor, O`zFA akademigi. 1933 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Olim o`zbek tili morfologiyasi, so`z yasalishi, leksikologiyasi va leksikografiyasi, orfografiyasi bo`yicha qator asarlar yaratib, tilshunosligimiz rivojiga munosib hissa qo`shdi. Ular orasida «O`zbek tilida ko`makchi fe`llar» (1966), «To`liqsiz fe`l» (1970), «Fe`l» (1973), «Hozirgi o`zbek

tilida forma yasalishi» (1979), «O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati» (1980), «O`zbek lingvistik terminlarining izohli lug`ati» (1984), «Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati» (2002) kabi asarlari alohida qimmatga ega.

A.Hojiyev oliy va o`rta maktablarda ona tilini, hozirgi o`zbek tilining nazariy muammolarini o`qitishni takomillashtirish bo`yicha ham barakali faoliyat olib bormoqda. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida oliy o`quv yurti filologiya fakultetlari talabalari uchun «Hozirgi o`zbek adabiy tili. – I qism» (1980) darsligi, o`rta maktablarning V–IX sinflari uchun «Ona tili» dasturi (1992) va darsligi (1992–94) yaratilib, amaliyotda keng qo`llanildi.

ISHOQXON IBRAT

Ishoqxon Ibrat – ma`rifatparvar shoir, atoqli tilshunos, o`zbek tili grafikasi, leksikografiyasi tadqiqida munosib hissa qo`shgan yetuk olim. 1862- yili Toshkentda tavallud topgan. O`zbek xalqining sharq va g`arb tillarini o`rganishini osonlashtirish yo`lida tinmay izlanishlar olib bordi. Arab, fors, hind, turk, o`zbek, rus tillaridagi so`zlarni o`z ichiga olgan olti tilli «Lug`ati sitta al-sina» (1901) lug`atini yaratib, ko`p tilli lug`atlar tuzishda ilk qadamni qo`yib berdi. Lug`at mingdan ortiq so`zni o`z ichiga olgan, unda o`zbekcha so`zlarning qarshisida arab, rus, fors, turk va hindcha tarjimasi berilgan.

Ishoqxon Ibrat tilshunoslikning murakkab sohasidan biri – yozuv tarixi bilan shug`ullandi. Uning piktografik yozuvdan to shu kungacha ishlatilgan yozuvlar tarixiga bag`ishlangan «Jome`-ul xutut» (Yozuvlar majmuasi) asari o`zbek grafikasining muhim yutug`i. Ushbu asarda muallif nafaqat o`zbek yozuvi, balki eramizdan 2000 yil ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklari, Kipr orolidan topilgan yozuv qoldiqlari, yahudiy, arab, suriya yozuvlari haqida ham qimmatli ma`lumotlar keltiradi.

1932- yilda vafot etgan.

MAHMUDOV NIZOMIDDIN

Nizomiddin Mahmudov 1951- yil Farg`ona viloyatida tavallud topgan, filologiya fanlari doktori, professor. Hozirgi o`zbek tilshunosligining sintaksis, leksikologiya, leksikografiya, sotsiolingvistika sohalari bo`yicha qator jiddiy tadqiqotlar yaratgan, ona tili bo`yicha darsliklar e`lon qilgan yirik va sermahsul olim.

«O`zbek tilidagi sodda gaplarda semantik va sintaktik asimmetriya» (1984), «Yozuv tarixidan qisqacha lug`at – ma`lumotnoma» (1990), «Til va ma`naviyat» (hamkor, 1992), «O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (hamkor, 1992), «Turkcha - o`zbekcha, o`zbekcha – turkcha lug`at» (hamkor, 1993), «O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (hamkor, 1995), «Til» (1998), «O`zimiz va so`zimiz» (1997), «Ma`rifat manzillarida» (2000), «O`zbek tilida ish yuritish» (hamkor, 2003), «Ona tili» (hamkor, 2004) kabi qator darslik va qo`llanmalar muallifi.

NE`MATOV HAMID

Filologiya fanlari doktori, professor Hamid Ne`matov 1941 yilning 22 noyabrida Buxoro shahrida tavallud topgan. O`zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi yuzasidan qator asarlar muallifi.

H.Ne`matov tilshunoslikning deyarli barcha sohalari bo`yicha barakali ijod qilib kelmoqda. Uning «История лингвистических учений» (1981), «Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII в.» (1989), «O`zbek tili tarixiy fonetikasi» (1992), «Til va nutq» (hamkorlikda, 1993), «O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (hammuallif, 1995), «Ona tili ta`limi mazmuni»

(hammuallif, 1995), «O`zbek tili struktural sintaksisi asoslari» (hammuallif, 1999) kabi asarlari, shuningdek, tilshunoslik tarixi hamda hozirgi o`zbek tilshunosligining dolzarb masalalariga, ona tili ta'limi mazmuniga bag`ishlangan 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy – metodik maqolalari fanimiz rivojiga barakali xizmat qilmoqda.

H.Ne`matov o`zbek tilini sistemaviy tadqiq qilish asoschilaridan hisoblanadi.

H.Ne`matov o`rta umumiy ta'limda ona tili predmetini takomillashtirish bo`yicha ham barakali xizmat qildi. U o`rta maktablarning V–IX sinflari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga mo`ljallangan «amaliyotdan nazariyaga» tamoyiliga asoslangan yangi tipdagi ona tili darsliklarining nazariy asoschisi.

H.Ne`matov o`zbek tilini uning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda tadqiq etib, boshqa tillar qolipi asosida o`rganish jarayonida yuzaga kelgan chalkashliklarga aniqlik kiritdi va o`zbek tilshunosligining keyingi takomillashuviga katta hissa qo`shdi.

NURMONOV ABDUHAMID

Filologiya fanlari doktori, professor Abduhamid Nurmonov 1942- yili Andijonda tavallud topgan. O`zbek tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va tilshunoslikning umumiy nazariy masalalari bilan bog`liq qator asarlar muallifi. Ular orasida «O`zbek tili sintaksisini sistema sifatida o`rganish muammolari» (1982), «Gap haqida sintaktik nazariyalar» (1988), «O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (1991), «O`zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi» (1992), «O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (1995), «O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya» (2001), «Tilshunoslik va tabiiy fanlar» (2001), «O`zbek tilshunosligi tarixi» (2002) kabi kitoblar muallifi.

A.Nurmonov o`rta va oliy ta'limda o`zbek tili va tilshunosligini o`qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qilmoqda. Ayniqsa, uning akademik litsey talabalari uchun yozilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili» I qism (2001), «Hozirgi o`zbek adabiy tili» II qism (2002), «Hozirgi o`zbek adabiy tili» III qism (2003) darsliklari, o`rta maktablarning V–IX sinflari uchun yozilgan «Ona tili» darsliklari ona tili ta'limi va o`zbek tilshunosligining taraqqiyotiga muhim hissa bo`lib qo`shildi.

QODIROV MUHAMMADJON

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Qodirov 1941- yilning 22- oktabrida Farg`ona vilovatining Buvayda tumanida tavallud topgan. Olimning ilmiy faoliyatida o`zbek adabiy tili tarixini, xususan, Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o`rganish asosiy o`rinda turadi.

M.Qodirov oliy o`quv yurtlari va umumta'lim maktablarida o`qitilayotgan “Ona tili” fani ta'lim mazmuni va usulini yangilash ishida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, olim 5-9 sinflar “Ona tili” fanining mustaqillik ruhiga mos, yangilangan o`quv dasturini yaratishda (1999, 2004, 2009) qatnashdi. Professorlar H.Ne`matov, A.G`ulomov, R.Sayfullayevalar bilan hamkorlikda 5-, 6-, 7- sinflar uchun (2000-2004), 8- sinf uchun (2006) yaratgan darsliklari yosh avlodga til haqida bilimva nutqiy ko`nikmalar berishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, u oliy o`quv yurtlari talabalari uchun “Ozbek tilini o`qitish metodikasi” (200), “Ona tili o`qitish metodikasi” (hamkor, 2001), “Til ta'limida milliy istiqlol g`oyasi” (2003) qo`llanmalarini tuzgan.

M.Qodirovning o`zbek adabiy tili me`yorlari va nutq madaniyati, yozma savodxonlik, mumtoz adabiyot vakillarining o`zbek adabiy tiliga qo`shgan muhim hissasi va boshqa masalalar bo`yicha yozgan maqolalari respublikamizning madaniy

va ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda.

RAFIYEV ABDIROZIQ

Filologiya fanlari nomzodi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti Abduroziq Rafiyev 1952- yilning 18- oktabrida Buxoro viloyatida tug'ilgan. Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va metodik ishlari bilan tanilgan.

Faol ishtiroki va ilmiy-metodik rahbarligida respublikamizning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinf (guruh)larda o'zbek tilini o'qitish konsepsiyasi va barcha ta'lim bosqichlarida o'zbek tili predmetining uzviyligini ta'minlashga qaratilgan namunaviy o'quv dasturlari yaratilgan. Chet elliklar uchun 4 ta audiokassetali (SD) va multimediali "O'zbek tili" darsligi 50 dan ortiq nufuzli xorij universitetlarida o'qitilmoqda. Indiana universitetidagi hamkorlari bilan o'zbek tilini masofadan o'qitish dasturi va elektron darsligini tayyorlagan.

Kasb-hunar kollejlari uchun "Ona tili va adabiyoti" darsligi, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 3-11- sinflari uchun "O'zbek tili" darsligi amalda qo'llanilmoqda.

A.Rafiyev "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" (1994), "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi fidoyisi" (2002) unvonlari bilan taqdirlangan. Olim Xalqaro turkiyshunoslar jamiyati a'zosi.

RUSTAMOV ALIBEK

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori, professor, O'zFA akademigi A.Rustamov 1931 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. U o'zbek tili tarixi, tilning badiiy-estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiy masalalarini hal qilishda barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xususan, «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), «Qofiya nima?» (1975), «Mahmud Zamaxshariy» (1971), akademik G'.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik A.Rustamov oliy o'quv yurtlarida filologiya ta'limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G'.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Qadimgi turkiy til» (1982) o'quv qo'llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o'qish va ularni tahlil etish bo'yicha talabalarning doimiy hamrohiga aylanib qoldi.

G'ULOMOV ASKAR

Askar G'ulomov 1940- yil 15-dekabrda Buxoro shahrida tavallud topgan, pedagogika fanlari doktori, Buxoro universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida professori, o'zbek tilini umumiy ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha respublikamizda birinchi fan doktori. 1978- yilda nomzodlik dissertatsiyasini mashhur tadrishi T.Salimov rahbarligida "IV sinfdan ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlari" mavzusiga yoqlagandayoq olim ona tili ta'limining sovet davrida mutlaqlashtirilgan ko'rgazmali bayon (retroskopik, reproduktiv) ta'lim usuli o'quvchida ijodiylikni bo'g'ishi, unda mustaqil fikrlash malakalarining shakllanishini chegaralashini sezdi. Shuning uchun olimning navbatdagi 1991- yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi – "Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish" mavzusidagi tadqiqoti – mustaqil fikrlovchi ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish uchun ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni va usulini yangilash, buning uchun tayanch bo'g'ida ona tili ta'limi kognitiv-pragmatik (o'sha davrda zamona zayli bilan induktiv deb atalgan) ta'lim usuliga ko'chirish zaruratini ilmiy-nazariy asoslashga bag'ishlandi. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash

Milliy dasturi”ning hayotga tatbiqi jarayonida umumiy o`rta ta`lim tizimida ona tilini o`qitish mana shu yo`nalishda yangilandi. A.G`ulomov ona tili o`quv fanidan 1999-yilda qabul qilingan umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartlari talablariga muvofiq ilk dastur, shu dastur asosida tuzilgan va 1999-2004- yillarda amaliyotda bo`lgan darsliklarining yaratilishi va ommalashishida faol ishtirok etdi. Olim “Ona tilini o`qitish jarayonida faollik tamoyilini amalga oshirishning nazariy asoslari” (-Toshkent: Fan, 1989), “Ona tili o`qitish prinsiplari va metodlari” (-Toshkent: O`qituvchi, 1992), “Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish” (-Toshkent, 1992) kabi o`ndan ortiq ilmiy-metodik kitoblarning, 200 yaqin ilmiy maqollarning muallifi.

A.G`ulomov qoraqalpoq maktablarida davlat tili – o`zbek tilini o`qitishning yangi maqsadi, mazmuni va usulini belgilashga, shu yo`nalishda dastur, darsliklar yaratishga va bu sohani yetuk tadrishchilar bilan ta`linlashga ulkan hissa qo`shdi. Qoraqalpoq maktablari uchun uning rahbarligida yaratilgan “O`zbek tili” darsliklari hozir ham amalda.

A.G`ulomov 2003- yilda vafot etdi.

G`ULOMOV AYYUB

O`zbek formal tilshunosligining asoschisi A.G`ulomov 1914- yilda Toshkentda tavallud topgan. U «O`zbek tilida aniqlovchilar» (1940), «O`zbek tilida kelishiklar» (1940), «O`zbek tilida ko`plik kategoriyasi» (1944), «O`zbek tilida urg`u» (1947), «Sodda gap sintaksisi» (1948), «Sodda gap» (1955), «O`zbek tilida tarixiy so`z yasaliş muammolari» (1955), «Fe`l» (1957) kabi qator asarlari bilan o`zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning rahbarligida o`rta maktablarning V, VI, IX sinflari uchun yozilgan ona tili darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta`limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A.G`ulomov tomonidan oliy o`quv yurtlarining o`zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobidan o`zbek tili sintaksisining sir-asrorlarini o`rgangan va hanuz o`rganib kelmoqda. Uning ilmiy xulosalari, nazariy qarashlari o`zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti uchun ham asos bo`lib xizmat qilmoqda.

A.G`ulomov 1984- yilda vafot etgan.

SHOABDURAHMONOV SHONAZAR

Filologiya fanlari doktori, professor, O`zFA akademigi Sh.Shoabdurahmonov 1924- yilda Toshkentda tavallud topgan.. O`zbek tili fonetikasi, o`zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratib, tilshunosligimiz rivoji uchun munosib hissasini qo`shdi. Jumladan, «O`zbek tilida yordamchi so`zlar» (1953), «Fonetika. O`zbek tili fonetikasiga doir ba`zi masalalar» (1953), «O`zbek tilida punktuatsiya» (1955), «O`zbek adabiy tili va o`zbek xalq shevalari» (1962) kabi asarlari o`zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo`lib qo`shildi.

Akademik Sh.Shoabdurahmonov o`rta va oliy ta`limda o`zbek tili va tilshunosligini o`qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning V.Reshetov bilan hamkorlikda oliy maktablarning o`zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun «O`zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978) darsligi, shuningdek, o`rta maktablarning IX sinfi uchun hammualliflikda yozilgan «O`zbek tili» (1977, 1978, 1980, 1982) hamda oliy o`quv yurtlari uchun yaratilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili. I qism» (1980) darsliklari alohida ahamiyatga ega.

«Badiiy matnning lingvistik taxlili» fanidan

SAVOLNOMA

1. Badiiy matnning lingvistik taxlili fanining maksadi va vazifalari
2. Morfologik taxlil va uning ahamiyati
3. Bob tushunchasi
4. Lingvistik tahlil usullari
5. Matnning tarkibiy qismlari
6. Leksik tahlil va uning ahamiyati
7. Matn lingvistik mikroskop ostida
8. Abzats haqida tushuncha
9. Sintaktik tahlil va uning ahamiyati
10. A.Navoiy g`azallaridan birini lingvistik tahlil qiling
11. Matnning tarkibiy qismlari
12. Ona so`zi lingvistik mikroskop ostida
13. Nasriy matnning lingvistik tahlili
14. Bobur ruboiylaridan birini lingvistik sharxlang
15. Go`zallik so`zini morfemik tahlil qiling
16. Nazmiy matnning lingvistik tahlili
17. Matn haqida tushuncha
18. Do`stlik so`zini morfologik tahlil qiling.
19. Matnning tarkibiy qismlari.
20. Olam so`zi fonetik mikroskop ostida
21. Havo bulut lekin yomg`ir yog`madi bog`langan qo`shma gap lingvistik mikroskop ostida.
22. Superfrazali sintaktik butunlik haqida ma`lumot.
23. Ilmiy matn haqida tushuncha.
24. Sintaktik tahlil va uning ahamiyati
25. Matnda tinish belgilarning ahamiyati,
26. Mashrab g`azallaridan birini lingvistik sharxlang,
27. Leksik tahlil va uning ahamiyati.
28. Matn haqida tushuncha,
29. Ruboiylardan birini lingvistik sharhlang.
30. To`la va yarim sharhlash haqida ma`lumot,
31. Istiora va jonlashtirish,
32. Lingvistik sharhlash tamoyillari.
33. Og`zaki va yozma lingvistik tahlil.
34. Ilmiy va rasmiy matn orasidagi tafovutlar,
35. Nasriy matnlarda epilog va xotimaning ahamiyati.
36. Nasriy matnga xos xususiyatlar va ularni taxlil qilish tartibi,
37. Katta va o`rta hajmdagi matnlar.
38. Matnni o`rganuvchi soha
39. Matnlarning mazmuniga ko`ra turlari.
40. Kursning boshqa fanlar bilan aloqasi.
41. Tinish belgilarning matn mazmunidagi roli.
42. She`riy matnlarni o`qib lingvistik taxlil qilish,
43. Badiiy asar tili.

44. Badiiy asarda personajlar nutqi tahlili,
45. Maktabda nazmiy asarlarni lingvistik tahlil qilish,
46. Navoiy ruboiylaridan birini lingvistik tahlili,
47. Publitsistik va ilmiy matn orasidagi tafovutlar,
48. Matnni lingvistik tahlil qilish tamoyillari,
49. Lingvistik tahlil va uning ahamiyati,
50. Mashrabg`azallaridan birini sharhlang,
51. Ato yaev keldi gapi morfologik mikroskop ostida,
52. Matn va uning turlari
53. O`xshatiish va sifatlash hag`ida ma`lumot,
54. Leksik taxlil va uning axamiyati,
55. Ruboylprdan birini lingvistik sharxlang,
56. Mustaqillik so`zini morfemik tahlil qiling,
57. «Matnning lingvistik tahlili» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi,
58. «O`n sakkiz ming» deb boshlanuvchig`azalini lingvistik sharxlang,
59. Publitsistik va rasmiy matn xaqida tushuncha,
60. Prozaik matnlarni lingvistik sharxlash,
61. Troplar haqida ma`lumot
62. Qo`shma gap lingvistik mikroskop ostida,
63. Badiiy matn haqida tushuncha ,
64. Bobur ruboiylaridan birini lingvistik sharhlang,
65. Do`st so`zi fonetik mikroskop ostida,
66. Antiteza xaqida ma`lumot
67. Nasriy matnning lingvistik taxlili
68. Do`stlik suzini morfemik taxlil qilish
69. 1 . Lingvistik taxlil va uning turlari
70. .Muqimiy she`rlaridan birini lingvistik sharxlang
71. Odobnoma so`zini fonetik tahlil qiling
72. «Vatan –sajdagoh kabi muqaddas»sodda gap lingvistik mikroskop
73. ostida,
74. Lingvistik tahlil usullari,
75. Bobur ruboiylaridan birini tahlil qiling,
76. Badiiy asar tili.
77. Badiiy asarda personajlar nutqi tahlili,
78. Maktabda nazmiy asarlarni lingvistik tahlil qilish,
79. Navoiy ruboiylaridan birini lingvistik tahlili,
80. Publitsistik va ilmiy matn orasidagi tafovutlar,
81. Matnni lingvistik tahlil qilish tamoyillari,
82. Lingvistik tahlil va uning ahamiyati,
83. Mashrabg`azallaridan birini sharhlang,
84. Ato yaev keldi gapi morfologik mikroskop ostida,
85. Matn va uning turlari
86. O`xshatiish va sifatlash hag`ida ma`lumot,
87. Leksik taxlil va uning axamiyati,
88. Ruboylprdan birini lingvistik sharxlang,
89. Mustaqillik so`zini morfemik taxlil qiling,
90. «Matnning lingvistik tahlili» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi,
91. «O`n sakkiz ming» deb boshlanuvchig`azalini lingvistik sharxlang,

92. Publitsistik va rasmiy matn haqida tushuncha,
93. Prozaik matnlarni lingvistik sharxlash,
94. Troplar haqida ma'lumot
95. Qo'shma gap lingvistik mikroskop ostida,
96. Badiiy matn haqida tushuncha ,
97. Bobur ruboiylaridan birini lingvistik sharhlang,
98. Do'st so'zi fonetik mikroskop ostida,

Muallif to'g'risida ma'lumot

Ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси п.ф.н. Ш.Юлдашева

Юлдашева Шахло Шукурлаевна 1974 йил 5 июлда Қорақалпоғистон Республикаси Амударё тумани «Қангли» жамоа хўжалигида ишчи оиласида туғилган.

1980-1981 ўқув йилида Амударё туманидаги 39-сонли ўрта мактабнинг 1-синфига ўқишга боради. 1991 йилда мазкур мактабни олтин медаль билан муваффақиятли тугатиб, Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Филология факультети Ўзбек тили ва адабиёти бўлимига ўқишга қабул қилинади.

1996 йили Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Филология факультетини имтиёзли диплом билан тугатиб, меҳнат фаолиятини Нукус шаҳридаги 7-сонли ўзбек-турк лицейида ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиси сифатида бошлаган. 1997 йилдан эътиборан Нукус педагогика билим юртида ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиси сифатида ишлаган. 1998 йили 24 ноябрдан институтнинг “Ўзбек тили ва адабиёти” кафедрасида ўқитувчи бўлиб ишлаб келди. 2008-2011 йилларда Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири вазифасини вақтинча бажарувчи бўлиб ишлади. 2011 йил ноябрь ойидан Ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси лавозимида ишламоқда.

2003 йилдан бери **“Давлат тили таълимида ўқувчилар нутқий малакаларини ўстиришнинг илмий-методик асослари (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида)”** мавзусидаги **номзодлик диссертацияси** устида иш олиб бориб, уни 2008 йил 22 апрелда Низомий номидаги ТДПУ хузуридаги К. 067. 18. 02 рақамли Бирлашган ихтисослашган Кенгашда муваффақиятли ҳимоя қилди. 2008 йил 25 сентябрда Олий Аттестация Комиссиясининг қарорига асосан педагогика фанлари номзоди даражасини олди. **30 га яқин илмий мақолалари** республиканинг илмий-методик журналларида эълон қилинган, **учта методик қўлланмаси** нашрдан чиққан. **3 нафар магистрантга илмий раҳбарлик қилган.**

1-Variant

1. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursi haqida umumiy ma'lumot.
 2. Matn birliklari.
 3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.
- T.t.: matn, badiiy matn, lingvistik yo'nalish, lingvopoetik yo'nalish, gap, murakab sintatik butunlik, abzas.

2-Variant

1. Matn va uning lingvistik mohiyati.
- 2 Badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: matn, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, tipologik tavsif, matn tiplari, ma'nodoshlik, shakldoshlik, agnonimlar, paremlar, varvarizm, vulgarizm.

3-Variant

1. Badiiy matnning fonografik xususiyatlari.

2. Matn va uning tipologik xususiyatlari.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: alliterasiya, assonans, geminasiya, grafon, matn tipologiyasi, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, turg'un struktural matn, erkin struktural matn, hikoya matn, tasviriy matn, muhokama matn.

4-Variant

1. Badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar.

2. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: takror, parsellyat, atov gaplar, infinitiv, murojaat birliklari, kesim, modal so'zlar, xiazmatik konstruksiyalar.

5-Variant

1. Lisoniy tahlil tiplari.

2. Ko'chimlar.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: **Tematik tahlil, kompleks tahlil**, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, perifraz, mubolag'a, grotesk, kichraytirish.

6-Variant

1. Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining obyekt, maqsadi va vazifalari.

2. Matn butunligida mazmuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: mazmun, sintaktik aloqa, predikatsiya, gradatsiya, kontakt aloqa, distant aloqa, lingvopoetik tahlil tamoyillari, fonografik vositalar, leksik vositalar.

7-Variant

1. Matning hajm va ifoda mazmuniga ko'ra tiplari.

2. Alliterasiya.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, turg'un struktural matn, erkin struktural matn, hikoya tasviriy matn, muhokama matn,

8-Variant

1. Makon va zamon birligi tamoyili.

2. Tahlil tiplari.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: tarixiy mavzu, davr, zamon ruhi, diaxron aspekt, tematik tahlil, kompleks tahlil

9-Variant

1. Badiiy matnning morfologik xususiyatlari.

2. Mubolag'a, grotesk ka kuchaytirish.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: morfologik parallelizm, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya, antroponim.

10-Variant

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.

2. Morfologik parallelizm.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: dialektal birlik, shakl, mazmun, parallelizm

11-Variant

1. Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari.

2. Geminasiya va ularning badiiy matndagi oʻrni.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik soʻroq gap, inversiya, ellipsis, sukut, gradatsiya, antiteza, farqlash, qoʻshoqlanish, ikkilangan undosh,

12-Variant

1. Antroponimlarning badiiy matnda qoʻllanishi.

2. Sintaktik parallelizm.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: atoqli ot, ism, antonomasiya, parallelizm, sintagma, sintaktik qurilish.

13-Variant

1. Subyektiv shakllarning badiiy matndagi oʻrni.

2. Agnomimlar.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: subyektiv shakllar, ot, erkalash-kichraytirish, poetic morfologiya, agnomaziya, lingvosentrik, antroposentrik

14-Variant

1. Koʻchim: perifraz

2. Badiiy matnda parsellyativ konstrusiyalarning qoʻllanishi.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: koʻchim, tasviriy ifoda, mazmuniq yaqinlik, parsellat, qayta tartiblash

15-Variant

1. Hajm belgisiga koʻra matn tiplari.

2. Maʼnodosh soʻz va iboralarning badiiy matndagi oʻrni.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, epigraf, epilog, murakkab sintaktik butunlik, leksik maʼnodoshlik, frazeologik maʼnodoshlik, leksik-frazeologik maʼnodoshlik.

16-Variant

1. Inversiya.

2. Lingvopoetik tahlil tamoyillari.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: gap boʻlagi, ogʻzaki nutq, individuallashtirish, ohangdorlik, taʼsirchnlik, tamoyil, usul, shakl, mazmun, makon, zamon, tabdil, lugʻat.

17-Variant

1. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

2. Antiteza.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: intertekstuallik, nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, zidlash, zid maʼnoli qoʻshimchalar, zidlovchi boʻlovchilar.

18-Variant

1. Lingvopoetik tahlil va lingvistik tahlil.

2. Ellipsis.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: lingvopoetika, linvistika, tahlil, gap bo‘lagi, lingvopoetik iqtisod, maqol, lisoniy tahlil tiplari

19-Variant

1. Kompleks tahlil.

2. Paranteza.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: umumfilologik yo‘nalish, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, lingvopoetika, to‘plash, tasniflash, indeksli ma’lumot, lug‘at, paranteza, konstruksiya, kiritma.

20-Variant

1. Lisoniy tahlil tiplari: tematik tahlil.

2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: til sathlari, lug‘aviy birliklar, tahlil maqsadi, qamrov, variant, lisoniy farq, tuzatishlar, muharrir.

21-Variant

1. Lisoniy birliklar indeksini tuzish.

2. Deskriptiv va eksplikativ matnlar

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: indeks, alifbo tartibi, faktik material, lisoniy mahorat, tasviriylik, partonomik tasvir, didaktika, pand-nasihah, didaktika.

22-Variant

1. Barqaror birikmalar.

2. Ekspressiv matn.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: ichki kechinma, pafos, hissiy ifoda, ibora, leksik tarkib, iboralarni qayta ishlash

23-Variant

1. Kinoya (ironiya)

2. Atov va infinitiv gaplarning lingvopoetik imkoniyatlari

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: kesatiq, qochirim, antifraza, sarkazm, atov gap, infinitiv, matnni shakllantiruvchi birliklar,

24-Variant

1. Chet va haqorat so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.

2. Metafora

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: varvarizm, vulgarizm, kakofemizm, disfemizm, o‘xshashlik, sinestetik metafora, lingvistik metafora, xususiy-muallif metaforalar.

25-Variant

1. Alliterasiya assonans, geminasiya, grafonlarning badiiy matndagi o‘rni.

2. Badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar.

3. Berilgan matnni lisoniy tahlil qiling.

T.t.: fonografik vositalar, unli, undosh, grafon, alliteratsiya, assonans, geminatsiya.